**Abstract:** This article describes the methodology of teaching the mother tongue and the principles of teaching the mother tongue.

**Key words:** principle, orthographic literacy, speech, language, expressiveness of speech.

**Аннотация:** В данной статье описывается методика обучения родному языку и принципы обучения родному языку.

**Ключевые слова:** принцип, орфографическая грамотность, речь, язык, выразительность речи.

O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariy asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi. Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar:

1. Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsada, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyili. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til — juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo'yoqdorligini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi. Bu esa matn mazmuni va uning o'ziga xos noziklik" larini ham anglab yetishga yordam beradi.

5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". T. Ma'naviyat, 2008 y.
2. Davlat Talim Standartining boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi (yangi tahrir) 2010y.
3. [www.google.com](http://www.google.com) internet tarmog'i



Termiz davlat pedagogika universiteti talabasi

Jumayeva Dildora Parda qizi

**The role of social networks in the current era of globalization**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy media tarmoqlari hamda hozirgi glaballashuv davrida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy media, YouTube, Facebook, Instagram, Twitter.

**Аннотация:** В этой статье описываются социальные сети и роль социальных сетей в нынешнюю эпоху глобализации.

**Ключевые слова:** социальные сети, YouTube, Facebook, Instagram, Twitter.

**Abstract:** This article describes social media networks and the role of social networks in the current era of globalization.

**Keywords:** Social media, YouTube, Facebook, Instagram, Twitter.

Social media is a broad term describing computer-based technologies that enable the sharing of ideas, communication, and interactive virtual communities. This includes email, instant messaging, and accounts such as YouTube, Facebook, Instagram, Twitter, or Snapchat. We are surrounded by social networks every day.

Communicating with others through computerized technology connects us to loved ones that we might not otherwise have. It is also useful for work and academics. Scientists easily share articles and reports with the latest findings. Consumers buy products because of the social media marketing strategies used by businesses, which drives the economy.

Social media gets a negative stigma when it comes to assessing its effects on the brain. Of course, there are countless pitfalls of technology-based social platforms, but social media is a positive presence in many people's lives. Brain activity in many areas of the brain responds to stimuli by increasing productivity, elevating mood, and expanding.





Social media platforms facilitate open communication. The hustle and bustle of everyday life does not leave much time for face-to-face communication. Social media is the solution.

Individuals can connect across distances and create networks with people they might not otherwise have access to. Increased communication also provides an opportunity to learn social and communication skills.

Creativity is the ability to generate original ideas, techniques, or opportunities in useful ways. Divergent thinking involves ideas generated in a non-linear, free-thinking process using the brain's executive functions.

Social media is an outlet for creativity with its photos, text posts, GIFs and videos. It's a resource for learning new ideas and building on information—all while receiving constructive feedback from others.

While social media can be a source of depression as users endlessly scroll through posts and compare their lives, looks, or careers to their friends, social media can also inspire happiness. The sense of happiness from using social media comes from social connections.

Michigan State University conducted a study among Facebook users. Users who received empathic support through social media posts reported increased levels of well-being and self-esteem, whereas passive users did not.

Dopamine and serotonin, neurotransmitters that send chemical messages to nerve cells in the brain, are present when experiencing social contact. Neurotransmitter release is associated with feelings of happiness and reward.

An average person spends 144 minutes a day checking their social media accounts. While 81% say social media has a positive impact on their lives, frequent social media use has a negative impact.

In conclusion, with all the information about the impact of social media, it can be overwhelming to know what to do. But don't be discouraged! It really comes down to responsible use in moderation.



**References:**

1. Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking, 15:117–121.
2. Bekalu, MA, McCloud, RF, & Viswanath, K. (2019).
3. [www.google.com](http://www.google.com) internet network



## Yerqalampir o'simligining shifobaxsh xususiyatlari

Yuldasheva Aziza Azamat qizi

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ma'lumki, o'simlik maxsulotlari tarkibida har xir hayotbaxsh vitaminlar, oqsil, karbonsuvlar, ifor moylari, shuningdek, organizimning hayoti va faliyati uchun juda zarur bo'lgan ma'danlar, tuzlar va boshqa muhim biologik faol moddalar mavjud. Bo'yoqdor ro'yan o'simligi ha shunday o'simliklar qatoriga kiradi.

**Kalit so'zlar:** xren, sinegrin glikozidi, Valkovskiy, Atlant, Suzdal.

**Yerqalampir**, xren (*Armoracia*) — karamdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik turi, sabzavot ekini. Yevrosiyoda 2 turi bor. Oddiy Yerqalampir (*A. rusticana*) — Yevropa, Hindiston, AQSH, Xitoy, O'rta Osiyoda ekiladi (ildizida S vitamini, efir moylari, fitonsidlar bor). Iste'mol uchun yo'g'on etli ildizpoyasi (ziravor sifatida) va bargi ishlatiladi. Tupi serbarg. Bargi yashil, cho'ziq, to'p-to'p bo'lib o'sadi. Ildizi tuproqqa 80—100 sm gacha kirib boradi, ildizpoyasi esa tuproqning 30 sm gacha bo'lgan qismida joylashadi. Yerqalampir yuqori haroratga chidamli, namga talabchan o'simlik. Yerqalampir ildizi va bargida turli mineral tuzlar, vitaminlar va achchiq ta'm beruvchi sinergii glikozidi mavjud. Undan oshqozon kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Yerqalampir o'ziga xos o'tkir hid va xushbo'y ta'mga ega. Oziq-ovqat sanoatida, turli mahsulotlarni (pomidor, bodring va boshqalarni) tuzlashda ishlatiladi. Valkovskiy, Atlant, Suzdal navlari ekiladi. O'zbekistonda shaxsiy tomorqalarda, fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. O'tloq Yerqalampiri (*A. sisymbrioides*) — yovvoyi holda uchraydi. Ildizi iste'mol qilinadi.



Ushbu dorivor ne'matning tarkibida kaliy, kalsiy, natriy, fosfor, temir va boshqa minerallar mavjud. Shuningdek, V, S darmondorilari, askorbin kislota, fitonsidlar, efir moylari, shakar, kraxmal, uglevod, kletchatkalariga boyligi bilan ham ajralib turadi. Barra barglari esa S, V, PP vitaminlari va karotinga mo'lligi bilan ayniqsa, foydalidir.

Traxeit, bronxit, uzluksiz yo'talda: qirg'ichdan o'tkazilgan bir qoshiq yerqalampirni uch qoshiq asal bilan aralashtirib tindirilib, bir kunda 1 mahal 1 choy qoshiqdan iste'mol qilinsa juda yaxshi foyda beradi.

Sistit va uretrit dardiga chalingan bemorlar uchun: qirg'ichdan o'tkazilgan 1 osh qoshiq yerqalampirni 100 ml. qaynoq suv bilan aralashtirilib, 5 daqiqa ustini yopib tindirib qo'yiladi va bir kunda 3-4 mahal ichiladi.

Bo'g'im og'riqlarida quyidagi malham tavsiya qilinadi: yerqalampirning ildizi go'sht maydalagichdan o'tkazilib, unga teng miqdorda maydalagichdan chiqarilgan olma qo'shiladi. U yaxshilab aralashtirilib og'riq joyga malham sifatida kompress qilinadi.

**Foydalanilgan adabyotlar:**

1. I.V.Belolipov, X.Ch.Buriev, E.B.Juraev, R.Z.Murodov “Yovvoyi holda o’suvchi dorivor o‘simliklar genafondini saqlash, madaniylashtirish va tabobatda foydalanish”. Toshkent 2020 y.
2. Agroximiya (Pod red. B. A. Yagodina). Moskva, 1982 y.
3. Ahmedov O‘, Ergashev A, Abzalov A, Dorivor o‘simliklar va ularni o‘stirish texnologiyasi ToshDAU nashr taxririya bo‘limi Toshkent 2009 y.
4. Ahmedov O‘, Ergashev A, Abzalov A, Yulchieva M Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi Toshkent – 2009 y.

**Dorivor tirnoqul – Calendula Officinalis L o'simligining shifobaxshlik xususiyatlari**

**Yuldasheva Aziza Azamat qizi**

**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi**

**Annotatsiya:** O'simlik tarkibi 7,6–7,8 mg% karotin (karatanoidlarning umumiy miqdori savatchaning tilsimon chetki gullar tarkibida 3% ni tashkil etadi), 0,62–0,4 efir moyi, 0,33– 272 0,88% flavanoidlar (kversetin, izoramnetin, izokversetin va boshqalar) kumarinlar (eskuletin, skopoletin, umbelliferon), 3,44% smolalar, 4% gacha shilliq, 10,4–11,2 oshlovchi moddalar, 19% gacha achchiq modda kalenden, 6,84% olma, pentadetsid va oz miqdorda salitsilat kislotalar, triterpen diollar (arnidiol va faradiol), triterpen saponi–kalendulozid hamda alkaloidlar bo'ladi

**Kalit so'zlar:** Dorivor tirnoqgul, Kalendula, flavanoidlar, eskuletin, skopoletin, umbelliferon.

**Tirnoqgul**-bo'yi 50 smga boradigan bir yillik o'simlik. Ildizi-shoxlaydigan o'q ildiz , poyasi tik o'sadi, qatiqqina kalta tuklar bilan qoplangan, barglari navbatma-navbat joylashgan, chetlari mayda tishli. Gullari poyasi va shoxlarining uchki tomonida joylashgansavatcha ko'rinishida to'pgullar hosil qiladi. Mevlari-urug'li meva. Iyundan kech kuzgacha gullaydi, iyul oxiridan boshlab mevlari yetilib boradi. Bu o'simlikning gullarida karotin va unga yaqin turadigan boshqa moddalar, efir moylari, azotli shilimshiq moddalar, organik kislotalar bor. Tirnoqgulning yer ustki qismida kalenden degan achchiq modda, oshlovchi moddalar, triterpendiollar va saponinlar topilgan. Urug'larida moy va bir oz miqdorda alkaloidlar bor.

**Ta'siri va qo'llanilishi:** tirnoqgulning juda yaxshi shifobaxsh xossalari borligi, ko'pgina dardlarga davo bo'lib, ko'ngilga orom berishi qadimdan ham ma'lum bo'lgan. Tabiblar undan siydik haydaydigan, balg'am ko'chiradigan va odamni terlatadigan dori sifatida foydalanishgan. Badanning dog' tushgan joylari, gush kasalligi, mastit (sut bezi

yallig'lanishi) ga davolashda shu o'simlikdan foydalanishgan. Bundan tashqari, tirnoqgulni gepatit, xolesistit, yara kasalliklari, gepertoniya, siydik-tosh kasalligi, davosiga ham ishlatilgan. Tomoq og'rig'i, tish atrofidagi to'qimalar kasalliklarida buyuriladi. Ibn Sino ham tirnoqgul "kal" kasalligi, bealngiga davolash uchun ishlatgan, ilon-chayon chaqqan odamlarga buyuriladi. Farangistonda bu o'simlik gullaridan yara-jarohatlarini bittiradigan, odamni terlatadigan vosita tariqasida keng foydalaniladi. Hind tabobatida uni odamni quvvatga kirgazib, tetiklantiradigan dori sifatida buyuriladi.

**Tirnoqgul damlamasi:** tirnoqgulli choysaratoni davolashda eng samarali vositalardan biridir. Gullari va urug'i bakteriyalarga qarshi kurashuvchi xususiyatga ega. Ayniqsa tirnoqgulni suv bug'ida ozgina ushlab turib, keyin choyga qo'shib damlashni tavsiya qilinadi. Haftada 3-4 kun albatta ushbu choyni ichish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yurak-qon tomir tizimining kasalliklari: ko'p sonli yurak-qon tomir kasalliklari bilan tirnoqgul tananing umumiy holatini yaxshilashga va hech qanday nojo'ya ta'sirlarga olib kelmaslikka yordam beradi. Tirnoqgul yurak-qon tomir tizimi bilan quyidagi muammolarni davolash uchun ishlatiladi:

- Taxikardiya tez yurak urishi bilan namoyon bo'ladi.
- Aritmiya – yurakning beqarorligi;
- Ateroskleroz;
- Gipertenziya;
- Yurak etishmovchiligi;
- Nafas qisilishi;
- Hipotansiyon

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Balyan H.S., Gupta P.K., Kumar S., Dhariwal R., Jaiswal V., Tyagi S., Agarwal P. Gahlaut V., Kumari S. Genetic improvement of grain protein and other health-related constituents of wheat grain. Plant Breeding. 2013. available at <http://wileyonlinelibrary.com>. DOI 10.1111/pbr.12047.
2. Dorofeev V.F., Udachin R.A., Semenova L.V., Novikova M.V., Grad- chaninova O.D., Shitova I.P., Merezhko A.F., Filatenko A.A. Pshe- nitsy mira [World Wheats]. Leningrad, Agropromizdat Publ., 1987.
3. I.V.Belolipov, X.Ch.Buriev, E.B.Juraev, R.Z.Murodov "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar genafondini saqlash, madaniylashtirish va tabobatda foydalanish". Toshkent 2020 y.
4. Agroximiya (Pod red. B. A. Yagodina). Moskva, 1982 y.
5. Ahmedov O', Ergashev A, Abzalov A, Yulchieva M Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi Toshkent – 2009 y.



**Adonis o'simligining tarqalishi, tarkibi, shifobashlik xususiyatlari**

**Yuldasheva Aziza Azamat qizi**

**Termiz agrotexnologiyalar va innavatsion rivojlanish instituti talabasi**

**Annotatsiya:** Adonis poyasi tik (20-40 sm), tukli bo'lib, gullab bo'lgandan so'ng tuklari to'kilib ketadi. Barglari qirqma, patsimon, murakkab, poyasining yuqori qismida bandsiz, quyi qismida bandli. Gullari yirik, aktinomorf (to'g'ri), har bir poyacha uchida bittadan gul bo'ladi: gulkosachasi 5 ta ko'k kosachabargdan, gultoji 5-20 ta sariq gulbarglardan iborat. Changchi va urug'chilari ko'p. Gul o'rni konussimon. Adonis aprel- may oyida gullaydi.

**Kalit so'zlar:** Adonis, simarin, adonitoksin, donitoksigenin, strofantidindigitalozid, dezglukoxeyrotoksin

**O'simlilming nomi.** Bahorgi adonis - Adonis vernalis L.; ayiqtovondoshlar - Ranunculaceae oilasiga kiradi.

Bahorgi adonis ko'p yillik, kalta va ko'p boshli ildizpoyali o'q o'simlik. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, shoxlanmagan yoki karn shoxli, serbarg, silliq, bo'yi gullash oldida 5-20 sm, gullab bo'lganidan so'ng 30-40 sm bo'ladi. Bargi oddiy, panjasimon 5 bo'lakka ajralgan, poyada bandsiz ketma-ket o'mashgan. Barg bo'lakchalari ingichka, chiziqsimon, bigizsimon o'tkir uchli. Gullari yakka-yakka joylashgan, sariq rangli, kosachasi 5-8 bargli, toj bargi 10-30ta. Mevasi - ko'p yong'oqli to'p meva.

April-may (ba'zi joylarda iyun) oylarida gullaydi, mevasi iyulda yetiladi.

**O'simlilrning hamma qismi zaharli.**



**Geografik tarqalishi.** Bu o'simlik, asosan, qora tuproqli yerlarda, har xil o'tli cho'llarda, qayinzorlarda, butalar orasida 53 o'sadi. Asosan, bahorgi adonis Ukraina, Belarus, Moldova, Rossiyaning Ovrupo qismining cho'l va o'rmon zonasida, Sibirda, Shimoliy Kavkaz, Volga bo'yi va boshqa yerlarda uchraydi.

**Kimyoviy tarkibi.** O'simlikning yer ustki qismi tarkibida yurak glikozidlari va flavonoidlar bo'ladi. Mahsulotdan simarin (gidrolizlanganda simaroza qandiga va strofantidin aglikonga parchalanadi), adonitoksin (gidrolizlanganda ramnoza qandiga va adonitoksin aglikoniga parchalanadi), strofantidindigitalozid, dezglukoxeyrotoksin va boshqa yurak glikozidlari hamda adonivernit, oriyentinksilopiranozid flavon glikozidlari ajratib olingan.

**Ishlatilishi.** Adonis o'simligining preparatlari yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Adonis preparatlari kumulativ xossaga ega bo'lmagani sababli surunkali yurak porogini davolashda doim ishlatish mumkin (angishvonagul o'simligidan

farqi). Adonis turkestanica va Adonis vernalisdan yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladigan adonizid olinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xolmatov H.X., Axmedov o‘.A. “Farmakognoziya” Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 1995 y.
2. Xolmatov X.X., Qosimov A.I., Dorivor o‘simliklar. – Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1994 y.
3. Berdiev E., Axmedov E.T “Evvoyi va o‘rmon dorivor o‘simliklari” fani bo‘yicha maruza matni. Toshkent- 2016 y.
4. Xolmatov H.X., Axmedov o‘.A. “Farmakognoziya” Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 1995 y.

## HUQUQIY MADANIYATNING SHAXS VA DAVLAT BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI

Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li

O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish" yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Ilmiy rahbar:** Xolmo'minov Mo'minmirzo Zokir o'g'li

O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası katta o'qituvchisi  
[mominmirzoxolmominov@gmail.com](mailto:mominmirzoxolmominov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada huquqiy madaniyat tushunchasi, uning shaxs va davlat bilan uzviy bog'liqligi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Huquq, madaniyat, shaxs, jamiyat, qonun, tarbiya, davlat.

**Abstract:** In this article, the concept of legal culture, its integral connection with the individual and the state is discussed in detail.

**Key words:** Law, culture, person, society, law, education, state.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetini mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibot, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyati ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Davlat boshqaruvida qatnashgan barcha rahbarlar mamlakatimiz yuksalishi va rivoji uchun harakat qildilar, albatta, kerakli imkoniyatlar yaratilib berildi. "Eng avvalo, o'zimizga shunday savol berishimiz kerak: har bir fuqaro, har bir inson, oila va jamoa boshlig'i hokimiyatdan nimani kutyapti? Barcha zamonlarga va xalqlarga xos bo'lgan eng asosiy, eng muhim, eng umumiy maqsadni aniqlaydigan bo'lsak, shuni to'la asos bilan aytilish mumkinki, davlat paydo bo'lgandan buyon, inson o'zining xavfsizligini himoya qilishni, shaxsiy huquqlari va erkinliklari ta'minlashini davlatdan kutadi, hokimiyatdan najot izlaydi. Hokimiyat shu tabiiy talablarga javob beraolmasa, ochig'ini aytganda, bunaqa hokimiyat va davlat tashkiloti hech kimga kerak bo'lmaydi"[1:128].

Tez va shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda inson ongi uchun kurash tobora kuchayib borayotgan davrda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, diniy eksterimizm va terorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Shu ma'noda mustaqilikning dastlabki yillarida

boshlangan ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqiy ongini oshirish masalalari ham alohida tamoyil sifatida o‘z aksini topdi. Harakatlar startegiyasining davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasining “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” deb nomlangan ikkinchi yo‘nalishi huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan. Albatta, hozirgi vaqtda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish, tom ma’noda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylandi. Fuqarolarda yuksak huquqiy tafakkur shakllanmas ekan, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqaveradi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va shu orqali qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o‘sib kelayotgan yoshlar uchun ham qimmatlidir. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zarur sharti qonunlarga itoat qilishdir.

Huquqiy madaniyat – bu insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarini egallab olish darajasi, kishining davlat va jamiyat chiqargan qonunlarini bilish va ular asosida munosib hayot kechirish borasida orttirgan tajribasi, umumiy huquqiy siyosatidir. Huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning ajralmas, uzviy bir qismi hisoblanadi. Jamiyatda huquqiy madaniyat qaror topishi quyidagi omillarga chambarchas bogliq:

1. Davlat tomonidan xalq manfaatlarini ifodalovchi huquqiy siyosatining ishlab chiqilishi va amalga oshirilib, tatbiq qilinishi;
2. Mamlakatda yuridik huquqshunoslik fanlarining rivojlangan bo‘lishi, hamma o‘z huquq va erkinliklarini bilishi, unga rivoya qilishi;
3. Hammaning qonun oldida tengligi;
4. Huquqni amalga oshiruvchi davlat idoralari va mansabdor shaxslarning qonunlar doirasida o‘z huquqi, burchlarini bajarishi, ularni anglab olishi;
5. Huquqiy tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarining yo‘lga qo‘yilishi va uning ijrosini ta’minlanishi;
6. Kelajak yosh avlodga huquqiy tizimni ko‘proq o‘rgatish kabi omillar mavjud. [2:63].

“Huquqiy madaniyat” tushunchasi “huquqiy ma’rifat” va “huquqiy savodxonlik” kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq. Bir narsaga e’tibor berishimiz kerakki, huquqiy ma’rifat nafaqat qonunlarning o‘zini, balki ularni hayotga tatbiq qilish bilan bog‘liq,

qonunosti hujjatlarni bilishni ham talab etadi. Huquqiy savodxonlik va ma'rifat asosida insonning huquqiy ongi shakllanadi. Huquqiy ongi yuksak odam qonuniylik bilan qonunsizlikning farqini yaxshi anglaydi, o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan birga, o'zgalarning huquq hamda erkinliklarini hurmat qilishni ham unutmaydi.

Qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Qonunning ustuvorligi-huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonuning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir[3:319].

Huquqiy madaniyatli odam qonunlardan qo'rqqani uchun emas, balki ularni hurmat qilgani, qonunlar timsolida xalq xohish-irodasini ko'rgani uchun ham qonun asosida yashashni o'z hayotining mazmuni deb biladi. Buni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun shuni bilishimiz kerakki, ya'ni, sizning huquq va erkinliklaringiz xuddi sizdek boshqa bir kishining huquq va erkinliklari chegarasigacha davom etadi. O'sha kishining qonuniy huquq va erkinliklarini hurmat qilish sizning qonun oldidagi fuqarolik burchingiz va majburiyatingiz hisoblanadi. Chunki huquqiy demokratik jamiyat va davlat o'z nomi bilan erkin jamiyat va davlatdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, har qanday madaniyat yuksak ong va tafakkurga asoslangani singari, huquqiy madaniyat odamlarda, avvalo, huquqiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni talab etmoqda. Huquqiy tafakkur va dunyoqarash esa konstitutsiya, qonunlarni, umuman huquq ilmini o'rganish orqali shakllanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy bilim va madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Demak, huquqiy madaniyat inson hayotining mohiyatini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyat insonning jamiyat hayotida faol ishtirok etishga imkon beradigan, ma'naviy saviyasini ko'rsatadigan o'ziga xos me'zondir.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T: "O'zbekiston" nashriyoti. 2011-yil, 128-bet.
2. Qo'chqorov, Nishonova, Musurmonov, Qarshiboyev. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari:-T: "Ma'naviyat" nashriyoti. 2015-63-bet.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston:milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T: "O'zbekiston" nashriyoti. 1996-yil. 319-bet.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЁШЛАРНИ  
МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ  
ИННОВАЦИОН ОМИЛЛАРИ**

**Т.О.Раҳманов.,**

**Тошкент давлат стоматология институти**

**Г.Қ.Нарзуллаева**

**Тошкент тиббиёт академияси Термез филиали**

**АННОТАЦИЯ**

Янги Ўзбекистонда ёшлар яшаш ҳаётига доир воқеалар, ёшларни ҳар томонан кўкка кўтариш, қўллаб-қувватлаш, замонавий шароитларни яратиб бериш режа ва масалалари глобал дунё сиёсати даражасига юқори мақсадларда кўтарилган. Янги Ўзбекистонда юксалтириш даврининг тўғри ва тесқари тамонларини ўрганиш дунё ёшлар олдида олдинга сурилаётган асосий вазифалардан биридир.

Хозирги замон ёшларнинг ақлий тезқорлигини кучайтириш, ёшларда тадбирқорлик, китобқонлик, ахборот технологиялари, инновацион ғояларини қўллаб-қувватлаш, ёшларни оила қуришга тайёрлаш, психологик хизмат кўрсатиш ҳамда лидерлик қобилиятини шакллантириш бўйича ишлар олиб бориш муҳим глобал жараёнлардан биридир.

**Калит сўзлар:** Ёшларни ҳар томонан кўкка кўтариш, қўллаб-қувватлаш, замонавий шароитларни яратиб бериш режа ва масалалари глобал дунё сиёсати даражасига юқори мақсадларга кўтариш келажак , тажрибали барқамол инсонлар қилиб етиштириш ёшлар тизимига юклатилган масулият.

Ўзбекистон Республикасида ёшлар яшаш ҳаётига доир воқеалар, ёшларни ҳар томонан кўкка кўтариш, қўллаб-қувватлаш, замонавий шароитларни яратиб бериш режа ва масалалари глобал дунё сиёсати даражасига юқори мақсадларда кўтарилган. Шу даврда юксалтириш даврининг тўғри ва тесқари тамонларини ўрганиш дунё ёшлар олдида олдинга сурилаётган асосий вазифалардан биридир.

Хозирги замон ёшларнинг ақлий тезқорлигини кучайтириш, уларнинг маънавий ҳуқуқий ва савиясини кўтариш, келажак учун оқил, тажрибали барқамол инсонлар қилиб етиштириш ёшлар тизимига юклатилган масулият билан қараш вазифадир.

Демак, келажак ёшларини муаммосини ечиш ва янги Ўзбекистон ёшлар уюшмаларининг иш фаолиятини ўрганиш ва тахлил қилиш кенг жамоатчилик ва илмий марказларнинг ҳар доим диққат марказидадан жой олади. Ўсиб келаётган ёшлар давлатимизни, жамиятимизнинг асосий бўлимларидан иборатдир ва ташкил этади. Юқоридагилар эса ёшларнинг ҳар-хил ижтимоий келишмовчиликларига алоҳида диққатга сасоворлигига эътиборли бўлишни ва ҳар доим ўз вақтида давлат ва жамоа томонидан асосий режа ва лойиҳаларни доимий равишда татбиқ этиб бориш мақсадга мувофиқдир ва режали равишда бу ишларни олиб боришни талаб этади. Давлатнинг алоҳида диққат-эътиборини ҳзига тортувчи ва жалб этиб турувчи қатлами бу ёшлардир.

Биз биламизки Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг айтганидек ҳамма жойда ёшлар муаммоларини ҳал қилмай туриб, ватанни, жамиятнинг ҳозирги ҳаёти ва келажаги ривожлана олмайди. Ҳозирги кунда Янги Ўзбекистонда, қола берса бутун дунё миқёсида ўсиб келаётган ёшларнинг энг асосий ва глобал муаммолари –интизом, маърифат, таълим-тарбия, бандлик, бўш вақтини самарали, мазмунли ўтказиш ҳисобланади. “Янги Ўзбекистонда ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” Давлат дастури ижросини таъминлашда яратилган янги лойиҳаларини олдинга суриш ва қўллаб-қувватлаш, “Ғояга қарши ғоя, жаҳолатга қарши маърифат билан” шиори остида маҳаллаларда, айниқса, ўсиб келаётган ёшлар орасида ҳамма муҳитларни кенг такомиллаштириш ижтимоий ҳамдўстлик ва жамоатчилик алоқаларини кузатишларни юқори даражаларга кўтариш, жамият ҳамдўстлигини мустаҳкамлашда ва таъминлашда ёшлар орасида маънавиятни барқарорлигини инновацион омилларини ўрганиш ва ёшларнинг ҳаётий, турмуш тарзига амалиётга айланиш борасида чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда ва ёшлар орасида кенг даражада мақсадга мувофиқ равишда олиб борилмоқда . Ҳозирги вақтда, шу кеча кундузи Янги Ўзбекистон давлати ёшлар маънавиятини янада илмий асосланган ҳолда юксалтириш борасида глобал чора-тадбирларни амалга ошириб олдинга суриб келмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг таъкидлашича, “Ҳозирги вақтда ёшлар тарбияси биз учун ўз долзарблиги ва аҳамиятини ҳеч қачон йўқотмайдиган масала бўлиб қолмоқда. Бугунги тез ўзгараётган дунё инсоният олдида, ёшлар олдида янги-янги, буюк имкониятлар очмоқда”.

Янги Ўзбекистонда ички ва ташқи маънавий таҳдидлардан ёшлар онгини ҳар томонлама ҳимоя қилиш жамият ижтимоий барқарорлигининг муҳим кафолатидир. Янги Ўзбекистонда Ёшларни ҳар томонлама чин инсон қилиб



тарбиялаш, уларни илм-фан чўққиларини эгаллаш, янгиликларни жорий этиш, инновацион жараёнларга ўргатиб бориш бугунги куннинг долзарб вазифасидир.

Янги Ўзбекистонда, жойларда ёшлар маънавиятини юксалтириш жараёнидаги муаммоларни ўрганиш, бу муаммоларнинг келиб чиқиш сабабларини таҳлил этиш, уларни ҳал этиш ва олдини олиш юзасидан инновацион таклифлар ишлаб чиқиш, вилоят ҳокимлиги, вилоятдаги тегишли бошқармалар ва идораларга тегишли инновацион тавсиялар киритиб бориш асосий вазифалардан саналади.

Шундай қилиб, менинг ва баъзи бир адибларни ёзишларича ва айтишларича қуйидагилар мақсадга мувофиқдир.

Ёшларда тадбиркорлик, китобхонлик, ахборот технологиялари, инновацион ғояларини қўллаб-қувватлаш, ёшларни оила қуришга тайёрлаш, психологик хизмат кўрсатиш ҳамда лидерлик қобилиятини шакллантириш бўйича ишлар олиб бориш муҳим жараёндир. Инновация ва технология трансфери марказлари, технопарклар, лабораториялар, стартап ва бизнес акселераторлар ташкил этиш, фундаментал, амалий ва инновацион лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш ҳамда доимий молиялаштириш давлат ва жамоатчиликнинг биргаликдаги фаолиятидан биридир.

### Адабиётлар :

1. И.А Каримов Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси. Тошкент 2010.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизнинг мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Ўзбекистон матбуот ва ахборот агентлигининг “O'zbekiston” нашриёт матбаа ижодий уйи. 2017 й.
3. Ўз.Рси инновацион ривожлантириш вазирлиги хузурида халқаро молекуляр аллергология марказини ташкил этиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 25.10.2018 йилдаги 865-сон.
4. Раҳманов, Т. О., & Жамалов, Ж. Б. (2022). ИННОВАЦИОННОЕ ПРЕПОДОВАНИЕ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ, ПО СОВМЕСТНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОГРАММЕ ТГСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 809-810.

## USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN LEARNING ENGLISH

**Xurshida Tojimurodova Rashidovna**

Student of Termiz state pedagogical  
tojimurodovaxurshida@gmail.com

### ABSTRACT

The article examines the concept and essence of educational innovations, provides a definition of innovations in the educational process. The authors of this article conducted a survey of students in grades 9-11 of secondary school No. 11, the purpose of which was to determine the knowledge of students about educational innovations and their readiness to learn using educational innovations. The sample consisted of 53 people. The results of this questionnaire indicate the following: in general, students adequately understand the essence of educational innovations, realize their importance in ensuring the quality of professional education; most students prefer a traditional form of education; more than half of the students are interested in modern educational technologies.

**Keywords:** innovations, education, active forms of education, electronic technologies.

Modern realities put forward their own requirements for today's youth - a student with developed critical thinking, ready to perceive the surrounding world in all its complexity, striving through self-realization to transform reality. A 21st century graduate must be proficient in foreign language for effectively solving communication problems in situations of personal communication and in conditions of academic mobility, when many students take part in international educational programs, communication situations in the educational environment. In the context of the need to improve the adaptation of high school students to work, earlier initial vocational training, the main goal of teaching a foreign language at school is the formation of foreign language communicative competence [1, p.45].

Unfortunately, among the set of modern methods of teaching foreign languages, it is not always easy for a teacher to select those teaching methods, which most effectively contribute to the formation of communicative competence. The content of education, focused on anticipating the development of society and personal development, presupposes the continuity of general and professional education at the

level of such component as a personal communication experience, including in a foreign language. We are interested in ways of organizing training that contribute to the awareness of the value of education in modern conditions and the need and willingness to learn constantly.

In other words, methods that transform learning foreign languages in the sphere of strategic development of the individual, help the formation of educational needs that initiate the pursuit of lifelong education. In modern conditions, one of the main criteria for the competitive advantage of an educational institution is the presence and successful implementation of various innovative forms and methods of teaching disciplines. Today, the topic of innovation in schools is raised at the state level. She is given special importance. The modern school is always in search of various ways to implement its own functions, one of which is innovation. Innovation should be understood as change, innovation, innovation.

It is worth noting that, historically, in one way or another, novelty is considered a relative concept. It has a concrete historical character, in other words, it may appear before "it's time", after which it turns into a normal phenomenon or becomes obsolete. From this we can conclude that the implementation of innovative activities in the school is continuous: some of its directions are constantly being replaced by others.

Innovation in education is understood as the process and results of targeted effective changes based on innovations that ensure a qualitative renewal and development of individual components and the entire system of vocational education [4, p.221]. Innovations can be the result of applied and fundamental research, experimental and theoretical developments in the field of vocational education, training, management and technology, which, when mastered, lead to the effectiveness and development of vocational education in the education system. Innovations in education are aimed at improving the quality of the vocational training process, increasing its organizational and economic efficiency. This leads to the need for purposeful management of the process of development and implementation of educational innovations in the activities of educational organizations, collection and systematization of information about them, the use of existing innovations in the promotion of educational services in secondary education.

**References:**

1. Alexandrova V.G. The role of an innovative approach in training a young teacher / V.G. Alexandrova // Pedagogical sciences journal, 2016- No.3-45-47 p.
2. Berezhnoy V.I. Innovations in education and science. Edition II. Part 1. Collection of articles; Rusines - M., 2017 - 710 p.
3. Berezhnoy V.I. Innovations in education and science. Edition II. Part II. Digest of articles; Rusines - M., 2017 - 446 p.
4. Ilyin G.L. Educational innovation; Prometheus - M., 2019 - 925 p.

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA INSONPARVARLIK FAZILATLARINING TARANNUM ETILISHI

**Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi II bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining asarlari orqali yosh avlodni tarbiyalashda insonparvarlik, inson qadri, erkinligi va bugungi hayotimiz bilan tarixning uzviy bog'liqliligi asarlarning asl mohiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Insonparvarlik, iymon, e'tiqod, Qur'on, hadis, qadr, tafakkur, ma'naviyat, diniy bag'rikenglik, millatlar aro totuvlik, sharqona tarbiya.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimizni har tomonlama yangi

O'zbekiston sharoitida barkamol, komil qilib tarbiyalash, sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratib berish, keng mushohadali yoshlarni tarbiyalashda aynan inson Muqaddas Islom dinimizda insonparvarlik huquqlari va vazifalari ochiq-oydin bayon qilingan va ma'naviy-marifiy jihatdan hadislar orqali boyitilgan. Mehr-shavqatli bo'lish, insonlar, atrofdagilar bilan qilayotgan yaxshi va yomon munosabatlarimiz, ota-onamiz va jigarlarimizga bo'lgan ijobiy-salbiy muomalamiz barchasi Muqaddas kitobimiz Qur'on kitobida yozilgan. Bugun tarixiy davrning yangi bosqichi – xalqimiz o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yib, o'z kuch va imkoniyatlariga tayangan holda, og'ir va sinovli kunlarda ham hamjihatlik ila taraqqiyot sari odimlab borayotgan pallada yashayapmiz. Islom dini mohiyatida mujassam bo'lgan barcha fazilatlar asrlar osha bashariyatni hidoyatga chorlab kelmoqda. Ayniqsa, muborak dinimizning ezgulik, xayru saxovat, mehr-oqibat, muruvvat kabi olijanob g'oyalari jamiyatda insonparvarlik, bag'rikenglik muhiti mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Tarixdan ma'lumki, xalqimiz ko'p sinov va qiyinchiliklarni matonat bilan engib o'tgan. Ota-bobolarimiz azaldan og'ir kunlarda ahil va hamjihat bo'lgan. Har bir qarori, harakatida mo'tabar manbalar, sog'lom aqlga tayangan. Sharq mutafakkirlari, xususan, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom asarlarida makon va zamon ta'limoti, ilmiylik nazariyasi, insoniylik burchlar, iliqlik munosabatlari va insonparvarlikning asosiy xislatlari bo'lgan: mehnat, halollik, mehr, muhabbat, shirinso'zlik madh etilgan. Forobiy insonlarning inoq va do'st yashashi mamlakatda xalqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tin-chlikni qat'iy quvvatlab, faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Navoiy inson taqdiri, xalq manfaa-ti,

mamlakat haqida g'amxo'rlikni asosiy masala qilib qo'ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg'a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan islom dinida ham Insonparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag'al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, sahovatli va insofli bo'lishga da'vat qilinadi. Insoniyat qachonki, o'zi uchun ma'naviy ozuqa istasa, uni qidirsam o'z elidan, vatandoshlaridan, xalqining yuragidan, uning orzu-istaklaridan va o'tmishidan qidirsin. Zero, insonlar bor ekan har onda uni tinimsiz harakatga majbur etadigan kuch ham tirik bo'ladi. Xalqning, elning ma'naviyati yuksak qadr-qimmat, ulug' tolesi barcha-barchasi buyuk ijodkorlarining, aziz avliyolarning, vatanparvar allomlarning asarlarida, ijod namunalarida o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz ularning buyuk merosi bilan faxrlanishimiz, asrab-avaylashimiz, kelgusi avlodlarga esa ulug' meros sifatida yetkazishimiz shart va zarurdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.A.Musurmonova, X.Ibragimova "Umumiy pedagogika", darslik. Toshkent.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2020-yil.
- 2.R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.
3. R.D.Norqobilova, P.Nazarova. "Pedagogical Possibilities of education of young generation at Abu Rayhan Beruni teaching". Web of Scientifical Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, June 2022. 1908-1911

## STRESS

**Qurbanazarova Dinora Muzaffar qizi**  
**Urganch davlat universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada stress, stress profilaktikasi va barqarorligi hamda samaradorligi haqida yoritib berildi.

**Kalit soʻzlar:** stress, gomeostaz, stress profilaktikasi, nerv sistemasi.

**Аннотация:** В этой статье обсуждались стресс, профилактика стресса, стабильность и эффективность.

**Ключевые слова:** стресс, гомеостаз, профилактика стресса, нервная система.

**Abstract:** In this article, stress, stress prevention and stability and effectiveness were covered.

**Key words:** stress, homeostasis, stress prevention, nervous system.

Stress (inglizcha: stress — „bosim“, „kuchlanish“, „tanglik“) — odam va hayvonlarda kuchli taʼsirotlar natijasida sodir boʻladigan oʻta hayajonlanish, asabiylik holati. Stress — bu gomeostazni buzish bilan tahdid qiluvchi turli ekstremal omillar taʼsirida yuzaga keladigan tananing oʻziga xos boʻlmagan reaksiyasi va asab va endokrin tizimlar faoliyatida stereotipik oʻzgarishlar bilan tavsiflanadi. Organizmda har xil taʼsirotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya. „stress“terminini kanadalik patolog G. Selye taʼriflab, tibbiyotga kiritgan (1936). Olim stress holatiga olib keluvchi omilni stressorlar deb, ular taʼsirida organizmda roʻy beradigan oʻzgarishlarni moslashish (adaptatsiya) sindromi deb atadi. Fizik (issiq, sovuq, shikastlanish va boshqalar) va psixik (qoʻrquv, qattiq tovush, oʻta xursandchilik) stressorlar ajratiladi. Organizmda bu omillar taʼsirini yengishga qaratilgan moslashuvchi biokimyoviy va fiziologik oʻzgarishlar rivojlanadi, bu stressorning kuchi, taʼsir etish muddati, odam yoki hayvonning fiziologik sistemasi va ruhiy holatiga bogʻliq.

Nerv sistemasi yuqori rivojlangan odam va hayvonlarda, his-tuygʻu koʻpincha stressor vazifasini oʻtaydi va u fizik stressor taʼsiriga zamin tugʻdiradi. Odamda bir xil kuchdagi stress ham xavfli, ham ijobiy boʻlishi mumkin. Shuning uchun maʼlum bir darajadagi Stresslarsiz faol hayot kechirib boʻlmaydi, chunki stresslar boʻlmasligi bu oʻlim bilan barobar degan edi, Hans Selye. Demak, stresslar nafaqat xavfli, balki organizm uchun foydali ham boʻlishi mumkin (eustress), bu holat organizm

imkoniyatlarini ishga soladi, salbiy ta'sirotlarga chidamliligini oshiradi (masalan, infeksiyalar, qon yo'qotish va boshqalar), ma'lum bir somatik kasalliklar (masalan, yara kasalligi, allergiya, yurak kasalliklari va boshqalar) kechishini yengillashtiradi yoki bemorning ulardan form bo'lishiga yordam beradi. Zararli stresslar (distress) organizm rezistentligini pasaytiradi, ko'pgina kasalliklarning kechishini og'irlashtiradi. Stress ta'sirida kasalliklar paydo bo'lishida organizmning dastlabki holati katta ahamiyatga ega. Masalan, gipertoniya kasalligi bilan og'irgan bemorda stress og'irroq, ya'ni gipertonik krizlar bilan kechadi.

Hans Selye, stress natijasida rivojlanadigan kasalliklar yo stressorning kuchli ta'sir etishi, yoki gormonal tizimning „noto'g'ri“ reaksiya berishiga bog'liq deb hisoblagan. Chunki ayrim hollarda distress uncha kuchli bo'lmagan stressor ta'sirida yuzaga keladi. Stressning organizmga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi organizmning ushbu stressorga nisbatan reaksiyasiga bog'liq. Stress xrlatini faol o'zgartirishga qaratilgan choralar organizm chidamliligini oshiradi va natijada kasallik rivojlanmaydi yoki, aksincha, faol kurashish bo'lmasa, moslashish sindromi susayib, og'ir holatlarda organizmni nobud bo'lishigacha olib kelishi ham mumkin. Organizmdagi hamma o'zgarishlarni nazorat qilishda miyadagi katexolaminlar miqdori katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, nerv sistemasi organizmning stressga reaksiya berish holatini belgilaydi.

Hozirgi „stress“termini juda keng ma'noda tushuniladi, masalan, nerv sistemasi bo'lmagan quyi hayvonlar, hatto o'simliklarda ham suv miqdori yoki harorat keskin o'zgarsa, ularda kechayotgan fiziologik jarayonlar buziladi.

Stressni oldini olish va barqarorlikni oshirishda asosan kognitiv xulq-atvor terapiyasi nazariyasi va amaliyotiga asoslangan o'ziga-o'zi yordam berish yuzasidan qator yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Stressni boshqarish fiziologik va immun afzalliklarga ega. Nomedikamentoz aralashuv bilan birga qo'llanilganda quyidagi ijobiy natijalar kuzatiladi:

- g'azab yoki adovatni davolash,
- autogen mashqlar
- suhbatli terapiya (munosabatlar yoki ekzistensial muammolar xususida)
- biologik fikr bildirish
- tashvish-xavotirlarning yoki klinik depressiyaning kognitiv terapiyasi
- stress insonlar bilan yengib o'tish mumkin shunda ko'zlagan natijaga ega bo'lamiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, stress oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha an'anaviy ravishda ko'plab uslublar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, bu bilan bir qatorda stressni oldini olish, ruhiy barqarorlikni oshirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan salmoqli izlanishlar o'tkazilgan.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Selye G. Moslashuv sindromi haqidagi esselar. — M.: Medgiz, 1960.
2. Selye G. Kimyoviy vositalar bilan yurak nekrozining oldini olish. - M: Medgiz, 1961.
3. Selye G. Butun organizm darajasida. - M: Nauka, 1972.

**Oila psixologiyasining asoslari. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi**

**Qurbanazarova Dinora Muzaffar qizi**

**Urganch davlat universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila psixologiyasining asoslari, oilaviy munosabatlar psixologiyasi haqida yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** mehmon nikohi, fuqarolik nikohi, gomoseksual nikoh.

**Abstract:** This article describes the basics of family psychology, the psychology of family relationships.

**Key words:** guest marriage, civil marriage, homosexual marriage.

**Аннотация:** В данной статье описаны основы семейной психологии, психологии семейных отношений.

**Ключевые слова:** гостевой брак, гражданский брак, гомосексуальный брак.

Oila va qadimiy hunarmandchilik o'rtasidagi farq shundaki, tosh devorni beton bilan almashtirish mumkin. Garchi unchalik uzoq bo'lmasada, lekin u xizmat qiladi. Ammo oilaning o'rnini bosadigan hech narsa yo'q. Ko'pchilik yolg'iz qolishdan xursand bo'lishi mumkin. Ikki kishining birlashuvining boshqa shakllari an'anaviy oila uchun mos emasligini ko'rsatdi. Oila sevgi munosabatlarini o'rnatishning boshqa barcha shakllariga nisbatan katta afzalliklarga ega: barcha oila a'zolarining baxtli bo'lish qobiliyati, uzoq vaqt davomida cheksiz sevgini saqlab qolish qobiliyati, bolalarni to'laqonli, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash qobiliyati. Nima uchun biz imkoniyat haqida gapirayapmiz - chunki inson o'z ishini buzishi mumkin. Lekin hech bo'lmaganda oilada bu barcha imtiyozlarga, inson uchun mavjud bo'lgan eng yuqori imtiyozlarga erishish imkoniyati mavjud. Va munosabatlarning "mehmon nikohi", "fuqarolik nikohi", gomoseksual "nikoh" kabi shakllarida imkoniyat ming baravar kam.

Oilani yaratish uchun siz uni qanday qurishni bilishingiz kerak. Bu katta, jiddiy fan. Ushbu bobda biz oila qurish san'atining faqat ba'zi asosiy nuqtalarini ko'rib chiqamiz. Oilaviy hayotning asosiy maqsadi Hali turmushga chiqmagan yoshlardan oila qurishdan maqsad nima deb so'rasangiz, ular shunday javob berishlari mumkin: "Xo'sh, maqsad nima? Ikki kishi bir-birini sevadi va birga bo'lishni xohlaydi!" Umuman olganda, javob yaxshi. Yagona muammo shundaki, "birga bo'lishni xohlash" dan "birga bo'lish imkoniyatiga ega bo'lish" gacha uzoq masofa bor. Agar siz faqat "birga bo'lish" maqsadi bilan oila qursangiz, ko'plab filmlarda ko'rsatiladigan bir lahza deyarli muqarrar. U va u bir to'shakda yotishadi, u uxlaydi va u o'ylaydi. Endi esa yonida uxlab yotgan jasadga qarab hayron bo'ladi: "Bu yerda menga mutlaqo begona odam nima qilyapti? Nega men u bilan yashayman? Va javob topa olmayapman. Bu

lahza o'n yillik nikohdan keyin yoki undan oldin kelishi mumkin, lekin u keladi. "NEGA?" degan savol to'liq, ulkan balandlikka ko'tariladi. Lekin juda kech bo'ladi. Bu savol avvalroq berilishi kerak edi. Tasavvur qiling-a, sizning do'stingiz bor. Bu odam sizni qiziqtiradi. Siz uni siz bilan sayohatga taklif qilasiz. Agar u rozi bo'lsa, tabiiyki, siz o'z oldingizga sayohat maqsadini qo'yasiz - borishingiz mumkin bo'lgan turli joylar orasida siz o'zingiz uchun ikkalangizning ko'z o'ngingizda jozibali bo'lganini tanlaysiz.

Odamlar bir-birlari bilan shunchalik yaxshi munosabatda bo'lishadiki, ular har qanday samolyot, kema yoki poezdga chiqishga tayyor. Va bu o'ziga xos tarzda ajoyib. Ammo bu samolyot, paroxod yoki poyezd sizni ongli ravishda xaritaga tushirishingiz mumkin bo'lgan eng yaxshi joyga olib borishi ehtimoli qanday? Balki siz do'stingiz shunchaki o'ldirilgan va siz yolg'iz qoladigan biron bir bandit hududiga kelasizmi? Axir, haqiqiy hayot, xayolparastlardan farqli o'laroq, xavf-xatarlarga to'la. Oilaviy hayot ham sayohatga o'xshaydi. Hech qanday maqsad qo'ymasdan qanday qilib unga kirish mumkin? Maqsad nafaqat bo'lishi kerak, balki u etarlicha yuqori, ahamiyatli bo'lishi kerak, shunda siz butun umringiz davomida ushbu maqsadga erishishingiz mumkin. Aks holda, ma'lum bir yildan keyin bu maqsadga erishasiz - va sizning birgalikdagi sayohatingiz avtomatik ravishda tugaydi. Shundan so'ng siz yangi maqsad qo'ya olasizmi va bu odam siz bilan yangi sayohatga borishga rozi bo'ladimi, bu boshqa savol. Shu sababli, oilaviy hayotning yana bir umumiy maqsadi - bolalarni tug'ish va tarbiyalash ham asosiy maqsad bo'la olmaydi. Siz farzandlar tug'asiz, ularni katta qilasiz va ular katta bo'lishi bilanoq sizning nikohingiz tugadi. U o'z vazifasini bajardi. Bu ajralish bilan yakunlanishi yoki tirik murdadek yashashda davom etishi mumkin...

Haqiqiy oila, to'g'ri maqsad tufayli hech qachon murdaga aylanmaydi. Safarning maqsadi mutlaqo zarur va boshqa sababga ko'ra. Safar maqsadini aniqlamaguningizcha, sizning hamrohingiz qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakligini tushunolmaysiz. Agar siz, aytaylik, plyajda dam olish maqsadida sayohat qilsangiz, xuddi shunday iste'dod va ko'nikmalarga ega bo'lgan odam sizga mos keladi. Agar qadimiy shaharlar bo'ylab sayohat qilsangiz - boshqalar bilan. Agar siz tog'larda sayrga chiqsangiz - uchinchisi. Aks holda, siz plyajda zerikasiz, shaharlar bo'ylab sayohat qilayotganda mashina haydaydigan hech kim bo'lmaydi va tog'larda ishonchsiz o'rtoq bilan siz hatto o'lishingiz mumkin. Oilaviy hayotning maqsadi nima ekanligini bilmasdan, siz bo'lajak sherikni to'g'ri baholay olmaysiz. U bilan birga rejalashtirilgan yo'ldan borish qanchalik yaxshi? Sevgi munosabatlarida aql - bu xunuk atavizm degan noto'g'ri ishonch tufayli qancha umidsizliklar, singan hayotlar! Aksincha: aqlni ishlatmasdan, sevgini saqlab bo'lmaydi. Xo'sh, oilani haqiqiy qilishdan maqsad nima? Oilaning asosiy maqsadi sevgidir. Ha, oila muhabbat maktabidir. Haqiqiy oilada muhabbat yildan-yilga

kuchayib boradi. Shunday qilib, oila insonlar uchun hayotning haqiqiy, yagona haqiqiy ma'nosiga - mukammal sevgiga erishish uchun juda mos bo'lgan muassasadir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bir qator psixologlarning fikriga ko'ra, sevgi 10-15 yillik turmushdan keyin boshlanadi. Keling, bu raqamlarni jiddiy qabul qilmaylik, chunki hamma odamlar har xil va sevgini o'lchash unchalik oson emas. Bu raqamlarning ma'nosi shundaki, sevgi darhol emas, balki oilada erishiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akramova F. A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2005.
2. Akramova F. A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2006.



## Psixologiya

Qurbanazarova Dinora Muzaffar qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologiya fani nimani o'rganishi, vazifasi, psixologiyaning rivojiga xissa qo'shgan olimlar haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, sezgi, idrok, faoliyat, psixika.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается, что изучает наука психология, ее миссия и ученые, внесшие свой вклад в развитие психологии.

**Ключевые слова:** Психология, интуиция, восприятие, деятельность, психика.

**Abstract:** This article describes what the science of psychology studies, its mission, and the scientists who contributed to the development of psychology.

**Key words:** Psychology, intuition, perception, activity, psyche.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi,  mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashyoviy bo'lagi sifatida talqin qilganlar. Ularning g'oyalari Platonning jon abadiyligi to'g'risidagi ta'limotiga qarama-qarshi qo'yilgan. Aristotel „Jon to'g'risida“gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi.

O'rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko'rinishdagi g'ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba'zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va boshqalar) asarlarida bu sohada olg'a qadam qo'yildi. Inson xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qadimgi qo'lyozmalar, yodgorliklarda o'z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan

akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiyev, Moskva va boshqa shaharlarda) psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan.

Psixologiyaning rivojiga I. M. Sechenov (psixikaning reflektor tabiati), I. Pavlov (oliy nerv faoliyati) ta'limotlari muhim hissa bo'lib qo'shildi. Rossiyada V. M. Bexterev eksperimental laboratoriya (Qozon, 1885), Harkov universiteti va N. N. Langening Odessadagi laboratoriyasi, G.Chelpanovning Kiyevdagi, S. Korsakovning Moskvadagi, keyinchalik V. M. Bexterev, A. Lazurskiy, A. Nechayevlarning Peterburgdagi, V. Chijning Yuryev (Tartu, Estoniya)dagi eksperimental laboratoriyalari psixologiya taraqqiyotiga alohida ta'sir o'tkazdi. 1912-yil Moskva universitetida Psixologiya instituti ochildi. Shu yilda I. A. Sikorskiy tomonidan Kiyevda jahonda birinchi marta Bolalar psixologiyasi instituti tashkil qilindi. XX asrning 1-yarmida Rossiyada K. N. Kornilov, Blonskiy va boshqalar dialektikaga asoslangan ilmiy psixologiyani yaratishga kirishdilar.

Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta'lim tizimida, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, transport, radio, televideniye va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Psixologiya erishgan yutuqlari shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni harakatga keltirishda alohida ahamiyat kasb qilmoqda hamda shu asnoda mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir o'tkazmoqda. Zamonaviy psixologiyada elektron-hisoblash texnikasi, elektr va kimyoviy vositalar yordami bilan psixikani chuqur o'rganish kabilar qo'llanilmoqda. Psixologiyada o'zini o'zi kuzatish (introspeksiya) metodi atrofida keskin bahslar davom etmoqda. Ba'zi yo'nalishdagi psixologlar uni tadqiqot o'tkazishning asosiy metodi deb ta'kidlasalar, boshqalari esa uning cheklanganligini e'tirof qiladilar, buning o'rniga obyektiv metodlardan foydalanishni tavsiya etadilar. Obyektiv metodlar tufayli psixikaning moddiy negizi aniklangan, inson ichki munosabatlari bilan sub'yektiv holatlar sababiy bog'liqligi yakka shaxsda, jamoada namoyon bo'lishi dalillangan. Jahon hamjamiyatida AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Shveysariya mamlakatlarida ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida, universitetlarda psixologik izlanishlar keng ko'lamda olib borilmoqda.

O'zbekistonda psixologiya 1928-yildan e'tiboran hozirgi Milliy universitetda fan sifatida o'qitila boshlandi. 1929-yil Xalq maorifi komissarligi qoshida psixologiya laboratoriyasi ochildi. Keyinchalik pedagogika institutlarida psixologiyaning bir necha sohalari bo'yicha talabalarga bilim berila boshlandi. XX asrning 2-yarmida M. Vohidov, M. Davletshin singari mahalliy kadrlar yetishib chiqdi. Hozirgi davrda psixologiya fanlari doktorlari V. Tokareva, E. G'oziyev, B. Qodirov, G'. Shoumarov, R. Gaynutdinov, V. Karimova, Sh. Barotov, A. Jabborov, R. Sunnatovalar

psixologiyaning umumiy psixologiya, pedagogik va yosh psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya sohalari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Psixolog mutaxassislar tayyorlash va tadqiqot ishlari O'zbekiston milliy universiteti, SamDU, Farg'ona universiteti, Qarshi universiteti, Termiz universiteti bazalarida yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda psixologik xizmat joriy qilingan va uning tarmog'i tobora kengayib bormoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, psixologiya taraqqiyotida, umuman, XIX asrdagi eksperimentlar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda psixologik real voqelikni o'rganish uchun metodlar majmuasi qo'llana boshlandi: kuzatish, laboratoriya eksperimenti, tabiiy eksperiment, faoliyat natijasini tahlil qilish, ruhiy jarayonlarni modellashtirish genetik metodi, test, ekspert baholash, intervyu, anketa, so'rovnoma, tarjimai hol va hokazolar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'oziyev E., Psixologiya fani, T., 2002
2. G'oziyev E., Psixologiya, T., 2003
3. Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 1989



Urganch davlat universiteti talabasi

Soliyeva Komila G'ayrat qizi

Psixologiya tarixi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola psixologiya tarixi, jon va ruh, psixik hodisalar haqida umumiy ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixika, jon, ruh, psixologiya tarixi, ong.

**Аннотация:** В статье представлены общие сведения об истории психологии, души и духа, психических явлениях.

**Ключевые слова:** психика, душа, дух, история психологии, сознание.

**Abstract:** This article covers general information about the history of psychology, soul and spirit, psychic phenomena.

**Key words:** psyche, soul, spirit, history of psychology, consciousness.

Psixologiya tarixi - bu insoniyat tomonidan hayvonlar va odamlarga xos bo'lgan ruhiy hayot hodisalari haqidagi bilimlarning bosqichma-bosqich to'planishi tarixi. Insonning o'zi haqidagi bilimlarni to'plash va chuqurlashtirishdir.

Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlarning ruhiy hayotini o'rganishni istagan kishilarning hayotning turli tarixiy bosqichlarida ular tomonidan nazariy va amaliy ehtiyojlari qanday aniqlanganligini, ba'zi ma'lumotlar, ya'ni biz, psixik hodisalar qanday kashf etilganligi, aniqlanganligi va aniqlanganligi, ular qanday tushuntirilganligi, ularning ba'zi qonuniyatlari qanday kashf etilganligini bilib olishlari mumkin. Bundan tashqari, psixologiya tarixi tarixiy hayotning turli bosqichlarida fan va madaniyatning umumiy rivojlanishi bilan bog'liq holda psixologik fanlar sohasi qanday kengayganligini va dastlab izolyatsiya qilingan psixologiya qanday rivojlanganligini ko'rsatadi ., shuningdek, butun bir psixologiya fanlari tizimi darajasiga ko'tarilganligi haqida xabar beradi. Psixologiya tarixida psixikani chuqurroq va aniq bilish imkoniyatini beruvchi, psixologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shadigan foydali ilmiy tadqiqot usullariga intilish va yaratish katta o'rin tutadi.

Psixologiya fan sifatida psixologiyaning faktlari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Lekin shunisi aniqki, berilgan ta'rif ham psixologiya predmeti haqida gapirganda juda muhim tushuntirishni talab qiladi, an'anaviy ta'riflar kabi u psixik jarayonlarni, xususiyatlarni, sharoitlarni va shunga o'xshash narsalarni o'rganuvchi fandır. Psixik hodisalarni "maxsus hodisalar" deb ta'kidlab, ular "ichki dunyo"ni tashqi ko'rinishda namoyon etishi psixikaning mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bera olmaydi. Psixika nima degan savolga javob berishdan oldin,



avvalo, psixik hodisalarning tabiati va tabiati haqidagi tasavvurlarning asrlar davomida qanday o'zgarganiga qisqacha to'xtalib o'tish kerak.

Qadim zamonlardan beri psixologik ijtimoiy hayot masalalari insonni o'z atrofidagi odamlarning psixologik tuzilishini farqlashga va o'z harakatlarida ularni hisobga olishga majbur qiladi. Dastlab, bu xususiyatlar jonning effekti sifatida tushuntirilgan. "Jon" tushunchasining paydo bo'lishi ibtidoiy xalqlarning animistik qarashlari bilan bog'liq. Ibtidoiy odam tasavvurida ruh tanadan ajralmagan. Bunday tasavvurlar hayot hodisalari va ongini, jumladan, uyqu, o'lim, o'tish va hokazolarni ilmiy asoslanmagan, ibtidoiy-materialistik talqin qilish natijasida shakllanadi. Ibtidoiy odam bunday hodisalarning sabablarini tushuntirish vositalariga ega bo'lmagan holda, to'g'ridan-to'g'ri idrok etilgan sirtni haqiqiy mohiyat sifatida qabul qildi. Misol uchun, tushlar tanani tark etib, tush ko'rish paytida erda aylanib yuradigan ruhning taassurotlari deb hisoblanadi. Ibtidoiy odam o'limni hayot jarayonining oxirgi bosqichi deb tushunmagan. Shuning uchun o'lim uyquning bir turi sifatida qabul qilinadi, unda ruh turli sabablarga ko'ra tanaga qaytmaydi. Ibtidoiy odam bu hodisalarni odatiy tarzda tushungan: ruh bir xil shaxs; uning ehtiyojlari va odatlari, yashash sharoitlari tirik odamlarniki bilan bir xil. Ibtidoiy odam bu hodisalarni odatiy tarzda tushungan: ruh bir xil shaxs; uning ehtiyojlari va odatlari, yashash sharoitlari tirik odamlarniki bilan bir xil. Ibtidoiy odam bu hodisalarni odatiy tarzda tushungan: ruh bir xil shaxs; uning ehtiyojlari va odatlari, yashash sharoitlari tirik odamlarniki bilan bir xil.

Chinakamiga inson hulk-atvorining bu alomatlarini atom harakati doirasidan, "sharbatlar" aralashmasidan yoki miyaning tashqi tuzilishidan tashqari tushuntira olmadi. Bu esa quldorlik jamiyati manfaatlarini himoya qiluvchi faylasuflar ruhiyatida idealistik qarashlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. Bu faylasuflar orasida Aflotun (miloddan avvalgi 428G'427 - 347) alohida ajralib turadi. U jonning qismlari tushunchasini yaratdi. U shunday qismlardan: a) aql-zakovat, b) jasorat va v) istakni ajratib ko'rsatib, ular tananing turli qismlarida (bosh, ko'krak, qorin) joylashganligi haqidagi fikrni ilgari surdi.

Ruh va ong tananing qismlari bo'lganligi sababli, ularning tanasi ham tana sifatida qaraladi va atomistlarning fikriga ko'ra, u sharsimon, kichik va shuning uchun ko'proq harakatlanuvchi atomlardan iborat.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aqliy faoliyatni ilmiy tushunishdagi dastlabki ulkan yutuqlar uning jismoniy mavjudlik qonuniyatlariga bo'ysunishini isbotlash, uning namoyon bo'lishi organizmning anatomik-fiziologik tuzilishiga bog'liqligini aniqlash bilan uzviy bog'liqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G‘oziyev E., Psixologiya fani, T., 2002
2. G‘oziyev E., Psixologiya, T., 2003
3. [www.google.com](http://www.google.com) internet tarmog‘i

## Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Soliyeva Komila G'ayrat qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologiya fani haqida umumiy tushuncha, psixologiya fanining sohalari va boshqa fanlar bilan aloqasi haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, psixika, ruxiyat, miya, ong, sezgi, idrok, xotira, hayol, fantaziya xolat, xususiyat, jarayon, motivatsiya.

**Аннотация:** Данная статья дает общее представление о науке психологии, областях психологии и ее взаимосвязи с другими дисциплинами.

**Ключевые слова:** Психология, психика, психика, мозг, разум, интуиция, восприятие, память, воображение, состояние фантазии, черта, процесс, мотивация.

**Abstract:** This article provides a general understanding of the science of psychology, the fields of psychology and its relationship with other disciplines.

**Key words:** Psychology, psyche, psyche, brain, mind, intuition, perception, memory, imagination, fantasy state, trait, process, motivation.

Psixologiya – grekcha «psyche» - jon, rux va «logos» - ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, inson ruxiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil qiladi.

Biroq hozirgi davrda "jon" tushunchasi o'rniga "psixika"ni qo'llashda davom etmoqdamiz. Lingvistik nuqtai nazardan jon, psixika tushunchalari aynan bir xil ma'noni bildiradi. Lekin psixika tushunchasi bugungi kunda jondan kengroq ko'lamga ega bo'lib ham ko'zga ko'rinuvchi ham ko'zga ko'rinmovchi tomonlarini o'zida aks ettiradi. Demak, qisqa qilib, psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlaridir, deb ta'riflash mumkin.

Psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi desak to'g'ri bo'ladi. Hozirgi vaqtda psixologiya o'zi

o'rganadigan alohida predmetiga, o'zining alohida vazifalariga, o'zining maxsus tadqiqot metodlariga egadir; uning psixologik muassasalar tarmog'i (institutlari, laboratoriyalari, psixolog kadrlarni tayyorlovchi o'quv yurtlari), ixtisoslashtirilgan kitob nashiriyotlari mavjud. Psixik faoliyat mexanizmlari u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiradigan konkret anatomik-fiziologik apparatlarning ishlashini taqazo qilgani uchun ham psixologiya bu mexanizmlarning tabiati va harakatini boshqa fanlar (fiziologiya, biofizika, bioximiya, kibernetika va boshqalar) bilan birgalikda ochib beradi.

Psixika to'g'risidagi dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun dastavval psixika mohiyati bilan tanishamiz. Odatda, psixik hodisalar deganda ichki, sub'ektiv tajriba faktlarining (voqelikning) namoyon bo'lishi tushuniladi, boshqacha aytganda psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, hayol kabi har bir olingan yaqqol shakllaridan iboratdir. Ichki, sub'ektiv tajribaning o'zi nimani anglatadi? Insondagi quvonch yoki zxerikish tuyg'ulari, uning nimalarinidir esga tushirishi, biron bir hohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, xadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosi tarkibiy qismlaridir, ya'ni ularning hammasi sub'ektiv psixik hodisalar sanaladi.

Subyektiv hodisalarning asosiy xususiyati – ularning bevosita sub'ektga taalluqliligidir. Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni bir davrning o'zida tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikqilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasini sodir bo'layotganligini anglab turamiz ham shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo'lishidan tashqari, ular bevosita ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turadi. Obrazli qilib aytganda, odamning ichki dunyosida turli hodisalar vujudga keladi, kechadi, odatda, shaxs bunday hodisalarni harakatlantiruvchi kuchi hamda ularning tomoshabini hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sub'ektiv hodisalar xususiyatidan kelib chiqqan holda ayrim psixologlar psixologiya fani sub'ektiv kechinmalarning paydo bo'lishi va ularning kechishi bilan shug'ullanishi zarur, uning asosiy metodi o'zini-o'zi kuzatish (shaxsning o'z fikrlari, xis-tuyg'ulari, xatti harakatlarini o'zi kuzatishi)

bo'lmog'i kenrak, degan xulosaga keladilar. Lekin psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti bunday cheklanganlik fanni mutlaqo ta'minlay olmasligini tasdiqladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'oziyev E., Psixologiya, T., 2003
2. Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 1989
3. [www.google.com](http://www.google.com) internet sayti

## Psixologiya fanining asosiy metodlari

Soliyeva Komila G'ayrat qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologiya fani metodlari, kuzatish metodi, so'rov metodi haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** metod, kuzatish metodi, suhbat metodi.

**Abstract:** This article describes the methods of psychology, the observation method, and the survey method.


**Key words:** method, observation method, interview method.

**Аннотация:** В данной статье описаны методы психологии, метод наблюдения и метод опроса.

**Ключевые слова:** метод, метод наблюдения, метод интервью.

Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning metodlari deb yuritiladi.

Fanning salohiyati va obro'si ham birinchi navbatda o'sha metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi va validliligiga bog'liq bo'ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo'lib, metodlar masalasi bu fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida qaraladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixik hodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir



tarmog'i o'z vazifalarini yechish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan.

Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo'llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo har bir metodning ishonchlilik darajasini aniqlash, qolaversa, to'plangan ma'lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam beradi. 3-rasmda asosiy psixologik metodlar va ularni qo'llash shakllari keltirilgan. Ushbu metodlar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqqan shaxs u yoki bu psixik jarayon, xolat yoki shaxs xususiyatlari to'g'risida birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana tahlil qilinadi va maxsus tarzda ishlatilishi mumkin.

### Kuzatish metodi

Bu usul eng tabiiy va hayotiy metodlar jumlasiga kiradi. Chunki biz hayotda o'rgangan ko'p odatlarimiz, harakatlarimizning asosida o'zining bilim-bilmay kuzatgan, xotiramizda shu tarzda olib qolgan ma'lumotlarimiz yotadi. Ilmiy nuqtai nazardan esa kuzatuvning turlari va bosqichlari farqlanadi.

### So'rov metodi

Odamlarni so'rov qilish, u yoki bu bilmagan yoki qiziqtirgan narsalarni so'rab o'rganish insonga xos xislat. Ko'cha-kuyda ketayotganimizda ham vaqtni yoki ko'chalar nomini so'rovchilar bo'ladi. Katta tadbirlar arafasida, mustaqillik, "Navro'z"

bayramlari arafasida odamlar kayfiyatlarini bilish uchun ham oddiy odatiy so'roqlar o'tkazilishi rasm bo'lgan. Lekin bu hayotiy usul psixologiyada ham fikr-o'ylarni o'rganish orqali qimmatli ilmiy ma'lumotlar to'plash vositasi sifatida qadrlanadi. Shuning uchun so'roq metodlari psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, shuni aytish kerakki, so'rov metodlari inson psixologiyasini o'rganish, uning dunyoqarashi, saviyasini aniqlashning qimmatli usulidir. Lekin uni professional tarzda to'g'ri ishlatish va natijalarni to'g'ri tahlil qilish juda katta amaliy ahamiyatga egadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. 1-qism. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.
2. Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perevs angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.
3. [www.google.com](http://www.google.com) internet tarmog'i



## ПОЛИМОРФИЗМ ГАПТОГЛОБИНА У БОЛЬНЫХ С РЕВМАТОИДНЫМ АРТИРОМ

*Пулатов Улугбек Суннатович*

*PhD, ассистент кафедры Внутренних болезней №3*

*Суюнов Асрор Фарходович*

*ординатор по направлению внутренние болезни (терапия) Самаркандский  
государственный медицинский университет*

**Аннотация.** В статье приведен анализ данных пациентов с ревматоидным артритом, при котором изучены данные полиморфизма фенотипа гаптоглобина. Исследование проведено за 2020-2022 годы в отделении терапии городской больницы г. Самарканд. В исследование включены 185 пациентов различного возраста. Изучены состояния периферической крови у данной группы пациентов с целью патогенетического лечения их состояния.

**Ключевые слова:** полиморфизм, фенотип гаптоглобин (Hr), ревматоидный артрит (РА), железodefицитная анемия (ЖДА).

**Цель исследования:** выявление полиморфизма фенотипа гаптоглобина (Hr) у пациентов с ревматоидным артритом.

**Материалы и методы:** Нами были исследованы 185 пациентов в отделение терапии городской больницы г. Самарканд с диагнозом ревматоидный артрит (РА) за период 2020–2022 гг. Средний возраст пациентов составил –  $53,6 \pm 1,8$  лет, продолжительность заболевания –  $7,8 \pm 1,2$  лет ( $r=0,48$ ). Установлены следующие рентгенологические стадии РА: I-II у 25,9 %, III стадия у 38,9 %, IV стадия у 35,2 % больных. Вторая стадия нарушения функциональной способности сустава выявлено у 57,6 % больных, а третья стадия у 25,3 %. Определение фенотипа Hr в сыворотке крови проводилось методом электрофореза по Davis в модификации Н.А.Осиной. Существуют три генетически детерминированные фенотипа Hr, которые определяются комбинацией двух аллельных генов Hr1 и Hr2, гомозиготные фенотипы Hr1–1 и Hr 2–2 и гетерозиготный Hr 2–1.

**Результаты:** В ходе исследования определено что, у пациентов с РА общее содержание Hr было в 1,8 раза больше, чем у здоровых. При изучении Hr чаще обнаруживался (51,4%) фенотип Hr 2–2. Частота Hr 2–1 36,2 %, Hr 1–1 12,4 %. Содержание общего гаптоглобина в крови было самым высоким у Hr 2–2 ( $3,4 \pm 0,2$  ммоль/л). Распределение по группе крови: O (I) у 52 (28,1%), A (II) – 93

(50,3%), В (III) – 33 (17,8%), а АВ (IV) – всего 7 (3,8%) пациентов. В 57,3% случаев была хроническая анемия, у 42,7% - ЖДА. Анемия у Нр 1–1 составила 9,7 %, Нр 2–1–23,0 % и у Нр 2–2–67,3%.

У пациентов с фенотипом Нр 2–2 болезнь протекала с более выраженной симптоматикой суставного синдрома. Они чаще предъявляли жалобы на боль в суставах интенсивного характера, на утреннюю скованность, полиартрикулярное поражение с выраженными экссудативными и пролиферативными изменениями. Наряду симметричным поражением суставов обеих кистей, также поражение крупных и средних суставов верхних и нижних конечностей. А фенотип Нр 2–1 обуславливал преимущественное поражение голеностопных суставов, поражение коленных суставов диагностируется значительно меньше. Фенотип Нр 1–1 почти не способствует поражению крупных суставов.

**Выводы:** У пациентов с РА имеется определенная зависимость между носительством фенотипов Нр с развитием, клинической симптоматикой заболевания и функциональными нарушениями суставов. Для развития РА одним из факторов риска является группа крови А (II) и фенотип Нр 2–2, у них заболевание имеет более тяжелое клиническое течение. Это указывает на наследственную обоснованность прогрессирующего иммунного воспаления суставов и степени анемии у пациентов с РА.

#### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Авдеева А.С. (и др.). Генно-инженерные биологические препараты в лечении ревматоидного артрита // под ред. Е.Л. Насонова. - М.: Изд. группа «ИМА-ПРЕСС», 2013. - 552 с.
2. Бабаева А.Р., Калинина Е.В., Каратеев Д.Е. Опыт применения тофацитиниба в лечении резистентного ревматоидного артрита // Современная ревматология, 2015, 2: 28-32.
3. Ватутин Н.Т., Калинкина Н.В., Смирнова А.С. Анемия при ревматоидном артрите // Вестник Харьковского национального университета имени В.Н. Каразина. Серия «Медицина» 2010 №898 стр 76-82
4. Джафарова Сабина Мисир кызы. Особенности анемического синдрома при ревматоидном артрите (обзор литературы) // ИССН 1992\_5913 Современная педиатрия 3(75)/2016 стр 41-43
5. Иголкина Е.В. (и др.) Возможность применения лефлуномида при ревматических заболеваниях // Современная ревматология, 2011. - №1. - С.54-57.

6. Синяченко О. В., Петренко Е. А., Науменко Н. В. Зависимость течения ревматоидного артрита от экологии атмосферы регионов проживания больных // Журнал «Боль. Суставы. Позвоночник. – Киев, 2011. – Т. 4. – С. 04.
7. З. А. Шопулотова, Д. Р. Худоярова, Ш. А. Шопулотов, А. Б. Ганиева Явления коморбидности у беременных с пиелонефритом // Медицинская наука и практика: междисциплинарный диалог : сборник статей Международной научно-практической конференции, посвященной 55-летию Чувашского государственного университета имени И.Н. Ульянова, Чебоксары, 08–09 апреля 2022 года / Чувашский государственный университет имени И.Н. Ульянова. – Чебоксары: Чувашский государственный университет имени И.Н. Ульянова, 2022. – С. 193-196. – EDN PGHJBA.
8. Aletaha D, Blüml S. Therapeutic implications of autoantibodies in rheumatoid arthritis. RMD Open. 2016 May 17;2(1):e000009. doi: 10,1136/rmdopen-2014-000.
9. Bhalra N, Emberson J, Merhi A, Abramson S, Arber N, Baron JA, et al. Vascular and upper gastrointestinal effects of non-steroidal anti-inflammatory drugs: meta-analyses of individual participant data from randomised trials. Lancet. 2013;382:769–79. doi: 10,1016/S0140-6736(13)60900-9.
10. Branco JC, Barcelos A, de Araújo FP, et al. Utilization of subcutaneous methotrexate in rheumatoid arthritis patients after failure or intolerance to oral methotrexate: a Multicenter Cohort Study. Adv Ther. 2016;33(1):46–57.
11. Choy E, Aletaha D, Behrens F, Finckh A, Gomez-Reino J, Gottenberg JE, Schuch F, Rubbert-Roth A. Monotherapy with biologic disease-modifying anti-rheumatic drugs in rheumatoid arthritis. Rheumatology (Oxford) 2016 Aug 21. pii: kew271.
12. Gottheil S, Thorne JC, Schieir O, et al. Early use of subcutaneous MTX monotherapy vs. MTX oral or combination therapy significantly delays time to initiating biologics in early RA. Arthritis Rheumatol. 2016 68(suppl 10).
13. Pulatov U., Hamdullaev M. LUS THERAPY IN PREGNANT WOMEN WITH CHRONIC RHINOSINUSITIS //Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – Т. 1. – №. 18. – С. 37-40.
14. Raj D.S. Role of Interleukin-6 in the Anemia of Chronic Disease / D.S Raj // Semin Arthritis Rheum. -2009,-№5.-P. 382-388
15. Rizaev J.A., Ahrorova M.Sh., Kubaev A.S., Hazratov A.I.; „Morphological Changes in the Oral Mucous Membrane in Patients with COVID-19,American Journal of Medicine and Medical Sciences, 12, 5, 466-470, 2022

16. Rizaev Alimjanovich, Jasur; Shavkatovna, Akhrorova Malika; Saidolimovich, Kubaev Aziz; Isamiddinovich, Khazratov Alisher; ,CLINICAL AND IMMUNOLOGICAL ASPECTS OF THE RELATIONSHIP OF THE ORAL CAVITY AND COVID-19, Thematics Journal of Education, 7, 2, 2022
17. Shodikulova G. Z. et al. The Correlation among Osteoporosis, Calcium-Phosphore Metabolism and Clinical Symptoms of Main Disease in Patients with Rheumatoid Arthritis //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 4185-4190.
18. Shodikulova G. Z., Pulatov U. S. EFFICIENCY EVALUATION OF TREATMENTS PATIENTS WITH RHEUMATOID ARTHRITIS BY DEPENDENCE OF CLINIC COURSE AND GENETIC POLYMORPHISM OF HAPTOGLOBINS //Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. – 2020. – №. 1. – C. 175-178.
19. Shopulotova, Z. A., et al. "PHENOMENA OF COMORBIDITY IN PREGNANT WOMEN WITH PYELONEPHRITIS." 194.
20. Yakubovich, S. I., Eryigitovich, I. S., Takhsinovna, N. M., Negmatullaevna, M. N., & Abdumuminovna, S. Z. (2022). Morphofunctional Changes of the Adrenals at Chronic Exposure to Magnesium Chlorate. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 178-185. Retrieved from <https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/1190>
21. Vucelic V. Combined megaloblastic and immunohemolytic anemia associated-a case report / V. Vucelic, V. Stancic, M. Ledinsky // Acta Clin Croat. - 2013. - № 4. - P.239-243

AYOLLARDA SIYDIK AJRATISH TIZIMI KASALLIKLARINING  
TA'SIRI

*Iskandarov Asliddin Husniddin o'gli*

*“Nefrologiya gemodializ bilan” yo'nalishi ordinatori*

*Ilmiy raxbari: Qurbonov Nizom Azimovich*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston*

**Dolzarbligi.** So'nggi yillarda siydik tahlillarida patologik o'zgarishlar bo'lmaganida siydik ajratish buzilishi bilan kasallangan ayollar sonining ko'payishini ko'rsatadigan ko'plab ishlar paydo bo'ldi (Asadova, 2016; Xudoyarova D.R., 2020). Premenopauzal davrda urogenital kasalliklar ayollarning 10 foizida, 55-60 yoshda - 50 foizda va 75 yoshda - 60-65 foiz ayollarda uchraydi va 75 yoshdan keyin deyarli har bir ayolda siydik ajratish buzilishining individual belgilari aniqlanadi (A.N. Russkix, 2017).

**Tadqiqot maqsadi:** Ayollarda siydik ajratish tizimining kasalliklarini, aynan siydik tutaolmaslikni o'rganish.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Ish materiallari 2020-2022 yillar davomida Samarqand davlat tibbiyot universitetining urologiya kafedrasida premenopauzal yoshdagi 50 nafar ayollarning ma'lumotlarida o'rganildi. Tadqiqot usullari bemorlarni to'liq klinik va laboratoriya tekshiruvini bo'lib, relaksin-2 darajasi IFA usuli bilan hbaholandi; instrumental usullardan UTTdan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Siydik ajratish tizimining buzilishlari rivojlanishida muhim rol ni ekstragenital kasalliklar (EGK) chastotasi o'ynadi, barcha tekshirilgan ayollarda yuqori yuqumli indeks qayd etildi. Deyarli barcha ayollar anamnezida gripp holatlari va o'tkir respirator kasalliklar aniqlandi. Ayollarning aksariyati - 28 (56%) kamida 3 ta kasallikka duchor bo'lgan va ular surunkali kechish holatiga o'tgandi. Yana bir muhim omil - semirish, ayniqsa qorin sohasidagi semirish o'ta xavflidir. Semirib ketgan ayollar

odatdagi vaznli ayollarga qaraganda 4-5 marta ko'proq siydik tutolmaslik uchraydi. Semirib ketish chastotasi bizning ayollarda 36% ni tashkil etdi.

Ginekologik tarixni tahlil qilish uning sezilarli darajada og'irlashganini ko'rsatdi: yarmidan ko'pida kolpit (27-54%), hayz ko'rishning buzilishi 39 tasida (78%), jinsiy a'zolarning tushishi 43 (86%) nafarda, bachadon bo'yni eroziyasi 7 (14%) nafarda, bachadon miomasi 12 (24%) nafarda.

20 (40%) nafar bemorlar anamnezida 1-2 ta tug'ruq qayd etildi, 3 yoki undan ko'p tug'ruq 30 (60%) nafarda bo'lgan. Katta homila vazni ST bo'lgan ayollarning 40,0 foizida kuzatilgan. Ayollarda katta homilaning tug'ilishi tug'ruq kanali, tos bo'shlig'i mushaklari shikastlanishi bilan kechgan (RR = 2,23), oraliq sohasi yorilishlari paydo bo'lgan, bu esa keyinchalik ST rivojlanishi uchun xavf omili (RR = 3,2) hisoblanadi.

STni baholash va tashxislash uchun biz 3 turdagi sinamalardan foydalandik:

- Valsalva testi - ginekologik o'rindiqla to'la qovuqli holatda ayolni qattiq kuchanish so'raladi. Uretraning tashqi teshigi sohasida siydik tomchilari paydo bo'lsa, test ijobiy deb hisoblanadi. Ushbu test 36 (72%) nafar ayollarda ijobiy bo'ldi;

- yo'tal testi - ginekologik o'rindiqla to'la qovuqli holatda ayolga yo'talish taklif qilinadi. 35 (70%) nafar ayollarda yo'talayotganda siydik oqishi kuzatilib test ijobiy bo'ldi;

- taglik testi - taglikning og'irligi bir soatlik mashqdan keyin aniqlandi. Agar yostiqning og'irligi 1 g dan oshsa, siydik tutolmaslik paydo bo'lganini anglatadi. 41 (82%) nafar ayollarda testi ijobiy bo'ldi.

Relaksin-2 darajasi IFA diagnostikasi bilan aniqlandi, uning qiymatlari  $0,36 \pm 0,02$  U/ml ( $P < 0,001$ ) ni tashkil qildi. Premenopauzal davrdagi deyarli sog'lom ayollarda ST belgilari bo'lmagan va sinamalar manfiy bo'lganda, uning o'rtacha qiymati  $1,3 \pm 0,1$  U / ml ni tashkil etdi. Relaksin-2 darajasining pasayishi bu ayollarning siydik chiqarishdan kelib chiqadigan kasalliklarga, ya'ni siydik tutolmaslikning rivojlanishiga moyilligini ko'rsatadi.

UTT da ayollarda surunkali endometrit, surunkali salpingoofarit va surunkali sistit belgilari aniqlandi. Bundan tashqari ayollarda kichik tos venalarining kengayishi va qovuq sohasi dopplerometrik ko'rsatkichlarida o'zgarishlar ham aniqlandi. Ushbu o'zgarishlar qovuqdagi metabolic o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligini anglatadi.

**Xulosa.** Ma'lumotlarga ko'ra, premenorpausal davrni siydik tutolmaslikning paydo bo'lishi uchun xavf omili deb hisoblash mumkin, chunki bu vaqtga kelib ayollarda ko'p sonli tug'ruqlar, og'irlashgan akusherlik tarixi bilan 86% holda jinsiy a'zolarining tushishi, yuqori yuqumli ko'rsatkich anamnez ham e'tiborni tortdi va tos a'zolarining yallig'lanish kasalliklari mavjudligi bilan tariflanadi. Ushbu yoshdagi ayollar genitourinar tizimi kasalliklari paydo bo'lishining oldini olish uchun muntazam ravishda tor mutaxassislariga tashrif buyurishlari kerak. Shu bilan birga ST rivojlangan ayollarda relaksin-2 miqdori kamayishi, UTT dagi dopplerometriyada qon aylanish ko'rsatkichlarining va nisbiy qarshiliklarning o'zgarishi ham qayd etildi. Bu o'zgarishlar ham siydik ajratish tizimi kasalliklari rivojlanishida o'z hissasini qo'shishi tabiiydir.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахтамова Н. А. и др. Инновационный метод лечения хронической тазовой боли //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 12 (53). – С. 89-91.
2. Ахтамова Н. А., Наргиз Ш., Тилявова С. А. ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОД ЛЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ ТАЗОВОЙ БОЛИ //Re-health journal. – 2021. – №. 1 (9).
3. Амирзода Т. С., ШОПУЛОТОВ Ш. А. НЕДЕРЖАНИЕ МОЧИ И НЕУДЕРЖАНИЕ МОЧИ: КАЧЕСТВО ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 5.
4. ЗЕЙНИТДИНОВА З. А., РИЗАЕВ Ж. А., ОРИПОВ Ф. С. СТЕПЕНЬ ЦИТОЛОГИЧЕСКОГО ПОРАЖЕНИЯ ЭПИТЕЛИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ЩЕКИ ПРИ COVID-19 //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 2.
5. Закирова, Н., Туракулова, Ш., Эшматов, С., Хасанова, Д., Курбаниязова, В., & Нуридинова, Ш. (2017). Акушерские и перинатальные исходы беременности при артериальной гипотензии. Журнал проблемы биологии и медицины, (1 (93), 195–197.

6. АмировнаТИЛЯВОВА С., ХУДОЯРОВА Д. Р. РЕАЛИИ ВРЕМЕНИ. СИНДРОМ ГИПЕРАКТИВНОГО МОЧЕВОГО ПУЗЫРЯ И ПРЕМЕНОПАУЗА //БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ. – С. 25.
7. Тоджиева Н., Курбаниязова В. Эффективность применения пролонгированного режима комбинированных оральных контрацептивов при лечении гиперпластических процессов эндометрия //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2016. – №. 4 (91). – С. 93-96.
8. РИЗАЕВ Ж. А., АХРОРОВА М. Ш. Оценка особенностей изменения слизистой оболочки и состояния полости рта при covid-19 //Журнал биомедицины и практики. – 2022. – Т. 7. – №. 4.
9. РИЗАЕВ Ж. А. и др. ПРОЯВЛЕНИЯ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ SARS-COV-2 В ПОЛОСТИ РТА //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 2.
10. Худоярова Д. Р., Кобилова З. А., Шопулотов Ш. А. ИСХОДЫ БЕРЕМЕННОСТИ У ПАЦИЕНТОК С COVID-19 //Актуальные вопросы диагностики и лечения новой коронавирусной инфекции. – 2020. – С. 35-39.
11. Худоярова Д. Р., Кобилова З. А., Шопулотов Ш. А. IMPROVEMENT OF METHODS OF NATURAL FERTILITY RESTORATION IN WOMEN WITH INFERTILITY CAUSED BY ENDOMETRIOSIS //Здоровье, демография, экология финно-угорских народов. – 2020. – №. 4. – С. 53-55.
12. Худоярова Д. Р., Кобилова З. А., Шопулотов Ш. А. Возможности инновационного метода обучения–геймификация //Онтологические и социокультурные основания альтернативного проекта глобализации.— Екатеринбург, 2021. – 2021. – С. 361-364.
13. Худоярова Д. Р., Шавкатова Г. Ш. ЭНДОМЕТРИЙ ПОЛИПЛАРИНИ ТАШХИСЛАШ ВА ДАВОЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЖИҶАТЛАРИ.
14. Шавкатова Г. Ш., Худоярова Д. Р., Абдуллаева Н. Н. МЕТАБОЛИЧЕСКИЙ СИНДРОМ И НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО КОРРЕКЦИИ
15. Askarova F. K., Yakhshinorov I. N. Risk Factors and Recommendations for the Treatment of Anemia in Pregnant Women (Literature Review) //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 190-193.
16. Askarova F. K. The Negative Impact of Vitamin D and Other Micronutrient Deficiencies in Pregnant Women //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 380-382.



17. ISKANDAROVNA T. N., RAKHIMOVNA K. D. RISK FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF ENDOMETRIAL HYPERPLASTIC PROCESSES IN PREMENOPAUSE //БИМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ. – С. 72.
18. Tilyavova S. A., Karimova G. S. Realities Of Time. Chronic Gender Inflammation And Pelvic Pain //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 03. – С. 2020.
19. Todjiyeva N., Vohidov S., Rajabov A. ENDOMETRIUM AND ITS HYPERPLASTIC PROCESSES //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 355-359.
20. Shavkatova G. S., Xudoyarova D. R., Shopulotova Z. A. Metabolik sindrom-zamonaviy jamiyatning muammosi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 486-491.
21. Shavkatovna S. G., Rakhimovna K. D., Khudoyarova D. R. STUDY AND TREATMENT OF THE ORIGINS OF OBESITY IN PREGNANT WOMEN //Next Scientists Conferences. – 2022. – С. 46-51.

## GRAVITATIONAL STRESS INNOVATIVE TREATMENT METHODS

*Khazratov Alisher Isomiddinovich*

*Oral Surgery and Dental Implantology department, Samarkand state medical university*

*Muminov Asliddin Yusupovich*

*Oral Surgery and Dental Implantology department, Samarkand state medical university*

**Annotation:** *In connection with the deepening of understanding of the cellular mechanisms of hypoxia under chronic extreme exposure, as well as due to the success of pharmacology in the creation of new effective antihypoxants, it seems interesting and practically significant to study in an experiment the possibility of their use to optimize the adaptation syndrome caused by chronic hypergravity. Nutrition and living conditions of animals of all groups did not differ. At the end of the experiment, 14 days after the last extreme exposure, the animals were taken out of the experiment with ether vapors, and then the material was taken for conventional laboratory, biochemical and immunological studies.*

**Key words:** *gravitational stress, chronic hypergravity, hypoxia, adaptation syndrome, antihypoxant, pharmacooptimization of adaptation syndrome.*

The performed study fully complied with ethical standards and was carried out in accordance with the current rules for conducting work using experimental animals and was approved by the ethical committee of the International Academy of Sciences of Ecology, Human Safety and Nature (protocol No. 2 dated May 12, 2021).

The significance of differences in the mean values of independent samples was assessed using the parametric Student's test with a normal distribution law and the nonparametric Mann-Whitney test with a difference from the normal distribution of indicators. The test for normal distribution was evaluated using the Shapiro-Wilks test.

It was established that under chronic gravitational influences in the leukocyte formula of experimental animals (series 2 and 3) there were no significant differences compared to laboratory animals of series 1, that is, a group of intact animals.

The polysystemic blood reaction is known as the hematological stress syndrome, which is defined as a hematological response to tissue failure of various nature. Ideas about the general adaptation syndrome are largely associated with the assessment of quantitative and qualitative changes in the peripheral blood leukocyte formula [6].

It is known that the protection of the purity of the internal environment of the body is carried out by a complex of functionally interacting barrier systems. The immune system carries out detoxification reactions in close unity with the liver. So, in the process of protecting the body from foreign chemical compounds, coupled responses of two types arise: induction of the synthesis of microsomal monooxygenases in the liver and induction of the synthesis of specific antibodies. Reciprocal relationships between the immune system and enzymatic mechanisms of liver biotransformation activity have been established. Against the background of structural damage to the liver parenchyma and its functional insufficiency, the activity of microsomal enzymes of hepatocytes decreases, which leads to a decrease in the clearance of foreign substances entering the body, incomplete neutralization of endogenous metabolic products. Nonspecific liver function disorders lead to the appearance of distinct relationships with the parameters of the immune system (correlations of ALT and CEC, 1dC, bilirubin - CEC) [7, 8].

It has been shown that bilirubin increases the activity of phagocytosis by stimulating the microtubule system of macro- and microphages. Incomplete metabolism of protein structures and other chemical compounds can lead to the development of intoxication, immune and allergic reactions. The presence of a pathogenetic relationship between disorders of the functional state of the immune system and the liver made it possible to form an idea of the functional unity of the main mechanisms of immunological and metabolic homeostasis [9].

The most important ions characterizing the state of mineral metabolism are  $\text{Ca}^{2+}$  and  $\text{P}^{3+}$ . Calcium is involved in many cellular processes: the functioning of the

membranes of all cell organelles, the processes of oxidative phosphorylation, and regulates cell division [10]. In recent years, it has been shown that calcium ions play an important role in the antioxidant protection of cells by regulating the activity of apoptosis reactions [3]. It is known that the concentration of calcium and phosphorus ions in the blood serum determines its concentration in saliva. A long-term decrease in the level of ionized calcium and the Ca / P ratio in the secretion of the salivary glands leads to electrolyte imbalance, which results in caries and non-cariou lesions of hard dental tissues. Carrying out pathogenetic therapy, leading to the normalization of calcium levels in blood plasma, simultaneously increases the calcium content in saliva [10].

It is known that the main methods for studying the activity of phagocytic cells are: the test for the reduction of nitroblue tetrazolium - NBT-test, which allows to evaluate the oxygen-dependent antimicrobial system of phagocytes. Under the influence of microorganisms (or products of the bacterial membrane, in particular zymosan) on phagocytic cells, biochemical reactions of the so-called "respiratory explosion" are initiated, in which oxygen consumption by the cell increases by 7–15 times. As a result of these reactions, hydrogen peroxide and singlet oxygen ( $O_2^-$ ) are synthesized, which have a pronounced bactericidal activity. The intact leukocyte membrane is impermeable to H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>. During phagocytosis, the absorption of HBT–heparin–fibrinogen complexes occurs, its transfer to the phagosome and cytoplasm of phagocytes, where H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> is reduced to formazan. H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> reduction involves membrane oxidases that catalyze the transfer of electrons from the reduced form of NADP to molecular oxygen [12]. The dehydrogenases of glycolysis and hexose monophosphate shunt also take part in the reduction of H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>, which provide a diffuse blue color and small blue granules in the cytoplasm of cells, while formazan is detected as large dark blue in phagosomes. granules. Defects in the formation system of superoxide hydroxyl radicals and hydrogen peroxide underlie incomplete phagocytosis [7, 8]. Consequently, the formation of

formazan in phagosomes characterizes the intensity of absorption of particles and the production of active radicals. Thus, the NBT-test is an integral one, allowing to evaluate both phagocytic and metabolic activity of cells.

**Conclusion.** Summarizing the above presented, it can be noted that under chronic hypergravity exposure, stress adaptive reactions develop, which pathogenetically justifies the need for preventive protective measures. At the same time, given the trend in world pharmacotherapy towards the creation of multicomponent drugs, it is advisable to continue experimental studies on the use of actoprotectors, as well as their combinations with antihypoxants for the purpose of their therapeutic and prophylactic use in chronic gravitational stress.

## REFERENCES

1. Благинин А.А., Гребенюк А.Н., Лизогуб И.Н. Основные направления совершенствования медицинского обеспечения полетов авиации ВВС в современных условиях // Воен.-мед. журн. 2014. № 2. С. 42–44.
2. Пономаренко В.А., Ворона А.А. Предпосылки для развития профилактической авиационной медицины // Воен.-мед. журн. 2014. № 10. С. 55–56.
3. Иорданишвили А.К. Стоматологические заболевания у летного состава. СПб., 1996.
4. Пащенко П.С. Регуляторные системы организма в условиях гравитационного стресса (морфофункциональный аспект). СПб., 2007.
5. Шеннон К.Э. Математическая теория связи // Работы по теории информации и кибернетике / Под ред. Р.Л. Добрушина, О.Б. Лупанова. М.: ИЛ, 1963. С. 243–332.
6. Гаркави Л.Х., Квакина Е.Б., Уколова М.А. Адаптационные реакции и резистентность организма. Ростов-на-Дону: Изд-во Рост. ун-та, 1990. 224 с.
7. Гайворонский И.В., Курочкин В.А., Гайворонская В.В. и др. Жевательные мышцы: морфофункциональная характеристика и возрастные особенности в норме и при воздействии экстремальных факторов. СПб., 2011.
8. Гайворонский И.В., Лобейко В.В., Гайворонская В.В. и др. Околоушная железа: морфофункциональная характеристика в норме и при воздействии экстремальных факторов. СПб., 2011.

9. Голиков С.Н., Саноцкий И.В., Тиунов Л.А. Общие механизмы токсического действия. Л.: Медицина, 1986. 279 с.
10. Григорьев А.И., Воложин А.И., Ступаков Г.П. Минеральный обмен у человека в условиях измененной гравитации. М.: Наука, 1994. 216 с
11. Качалиев Х. Ф. и др. Неотложная помощь при переломе скуловой кости и передней стенки гайморовой пазухи //Наука и образование сегодня. – 2021. – №. 1 (60). – С. 74-78.
12. Марупова М. Х., Кубаев А. С., Хазратов А. И. АНАЛИЗ ОККЛЮЗИОННО-АРТИКУЛЯЦИОННОГО ВЗАИМООТНОШЕНИЯ У ПАЦИЕНТОВ С СИНДРОМОМ БОЛЕВОЙ ДИСФУНКЦИИ ВИСОЧНО-НИЖНЕЧЕЛЮСТНОГО СУСТАВА //Conferencea. – 2022. – С. 195-196.
13. Пихур О.Л. Возрастные изменения состава и строения твердых тканей зуба. СПб.: Нордмедиздат, 2015. 154 с.
14. Манянский А.Н., манянский Д.Н. очерки о нейтрофиле и макрофаге. Новосибирск: Наука, 1989. 344 с.
15. Ризаев Ж. А., Хазратов А. И. Канцерогенное влияние 1, 2–диметилгидразина на организм в целом //Биология. – 2020. – Т. 1. – С. 116.
16. ХАЗРАТОВ А. И. и др. СРАВНЕНИЕ РЕЗОРБЦИИ МАРГИНАЛЬНОЙ КОСТНОЙ ТКАНИ ПРИ ОДНОЭТАПНОЙ И ДВУХЭТАПНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 122-127.
17. Эшев С. С., Хазратов А. Н. К вопросу моделирование нарушенной структуры связных грунтов в лабораторных условиях //Инновационное развитие. – 2016. – №. 5. – С. 25-28.

Ёшларда экологик тарбия ва толерантлик ривожлантириш жамият  
тараққиётининг муҳим омили  
Қўқон давлат педагогика институти  
катта ўқитувчиси  
Азимов Адхамжон Солижонович

**Аннотация.** Ушбу мақолада ёшларда экологик тарбия ва толерантлик ривожлантириш жамият тараққиётининг муҳим омиллари ҳақида баён этилган. Бугун инсониятнинг табиатга нисбатан салбий муносабатлари оқибатларига гувоҳ бўлиб турибмиз. Дунёнинг бир бурчида сув тошқинлари, зилзилалар рўй бераётган бўлса, бошқа жойида ўрмон ёнғинлари кузатилаяпти. Бу каби глобал муаммолар табиат бойликларидан экологик омиллар ҳисобга олинмаган ҳолда фойдаланиш натижасида ўтган асрнинг иккинчи ярмида авж ола бошлаган эди.

**Ключевые слова:** экологик муаммолар, мотив, экологик марказ.

Айни чоғда экологик муаммоларни ҳал этишда тежамкор, экологик тоза технологияларни жорий қилиш, табиатни муҳофаза қилиш тадбирларини изчил олиб бориш ёки соҳага оид қонунчиликни такомиллаштириш борасидаги саъй-ҳаракатлар уларни ҳал этишда етарли эмаслигини кўрсатмоқда. Аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш, атроф-муҳитга оқилона муносабатда бўлиш, табиат неъматларини келгуси авлодлар учун асраб-авайлаш ҳиссини шакллантириш антропоген таъсирларнинг олдини олишда асосий омиллардандир. Бунда экологик таълим-тарбиянинг аҳамияти ҳам ниҳоятда юқори.

Зеро, экологик таълим-тарбия табиат ва жамият ўртасидаги узвийликни таъминлаш ҳамда табиий барқарорликни сақлашда муҳим аҳамиятга эгадир. Шунингдек, экологик таълим-тарбия ёшларни табиатдан онгли равишда фойдаланиш ва улар қалбида табиатга меҳр-муҳаббат уйғотиш ҳамда тежамкорликка ўргатишда қўл келади.

Албатта, ёш авлод қалбида табиатга нисбатан ҳурмат ҳиссини шакллантириш ва ривожлантириш муҳим масалалардан саналади. Бу, ўз навбатида, педагог кадрлар зиммасига катта масъулият юклайди.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда барча жабҳалар қаторида экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш соҳасида тўлақонли ҳуқуқий-меъёрий база яратилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Таълим тўғрисида”ги қонунлар ҳамда Кадрлар тайёрлаш миллий

дастури, шунингдек, бошқа қатор ҳужжатлар экологик таълимтарбия тизимининг ҳуқуқий асосини ташкил этади.

Таъкидлаш жоизки, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 4-моддасида табиатни муҳофаза қилиш мақсадларига эришиш учун барча турдаги таълим муассасаларида экология фанини ўқитишнинг мажбурийлигини таъминлаш мустаҳкамлаб қўйилган<sup>1</sup>.

Таълим муассасаларида ўқитиш жараёнида ўқувчилар онгини ҳозирги экологик муаммолар моҳиятини очиб берувчи билимлар билан бойитиш ва шу билимларни уларнинг амалий фаолияти, ижтимоий меҳнати билан мустаҳкамлаб бориш мақсадга мувофиқ. Бундай масъулиятли вазифани ҳал қилиш учун ўқитувчидан шу соҳа бўйича билимга, педагогик маҳоратга, юксак экологик маданиятга эга бўлиш, шунингдек, тинимсиз изланиш, ўрганиш талаб қилинади.

Бу борада ўқув муассасаларида “Экологик марказ”, “Экологик тўғарак”ларни ташкил қилиш, мунтазам равишда экофестиваллар ёки танловлар ўтказиб туриш, ўқув-методик қўлланмалар, дарсликлар, кўرғазмали материалларни нашр этиш яхши самара бериши, шубҳасиз.

Экологик таълим-тарбияни юзага келтирувчи масканлардан яна бири, бу - маҳалла. Дарҳақиқат, халқимизда табиатга бўлган эҳтиром тарих каби кўхнадир. Шу маънода, азалий қадриятларимиздан бўлмиш умумхалқ ҳашарларини ўтказиш ва уларга ёшларни кўпроқ жалб этиш айни муддао.

Умуман олганда, ўқув юртлари, оила, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида ёшларнинг узлуксиз экологик таълим-тарбияси борасида самарали тизимни яратиш бугун зиммамиздаги энг муҳим вазифалардан биридир.

Ўзбекистоннинг демократик давлат, фуқаролик жамият асосларини қуриш жараёнида: ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий ва бошқа соҳаларда кенг масштабда ислохотларни амалга ошириши – экологик толерантликни ривожлантириш асосларини, мотивларини, механизмларини яратди ва барқарорлик шартларини, тараққиёт кафолатларининг стратегик вазифалари йўналишларини белгилаб берди.

Хусусан, давлатнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ривожланиш стратегиясида: 1) миллий тарихий қадриятлар ва миллий ўзликни тиклаш; 2) миллий давлатчиликни шакллантириш ва мудофаа қобилятини мустаҳкамлаш; 3) демократик институтларни ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантириш; 4) бозор иқтисодиёти муносабатларини қарор топдириш ва мулкдорлар синфини

<sup>1</sup> “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. <https://lex.uz/acts/107115>



шакллантириш; 5) ички ва ташқи ижтимоий-экологик сиёсат ва аҳоли ижтимоий фаоллигини ўстириш; 6) мамлакат стратегик имкониятлари ва табиий ҳом-ашё ресурсларидан оқилона фойдаланиш; 7) инсон салоҳиятини ривожлантириш ва ижтимоий ишлаб чиқариш инфраструктурасини такомиллаштириш; 8) кенг кўламли ўзгаришлар ва ҳамкорлик кафолатларини яратиш; 9) жаҳон ҳамжамияти билан ҳамкорликни, барқарор тараққиётни кафолатловчи имкониятларини яратиш стратегик вазифалари кун тартибига қўйилган эди<sup>2</sup>.

Глобаллашув жараёнининг табора шиддатли тус олиши нафақат инсоният имкониятларини кенгайтормоқда, балки зиддиятларнинг кескинлашуви, ривожланган ва қолоқ давлатлар ўртасидаги тафовутнинг ўсишига олиб келмоқда. Бунинг оқибатида тинчлик ва барқарорликка раҳна солаётган, моҳияти ва кўламига кўра трансмиллий хусусиятга эга турли хатти-ҳаракатлар содир этилмоқда<sup>3</sup>.

Бундай шароитда Ўзбекистон давлатининг 2017-2021 йилларга мўлжалланган “Ҳаракатлар стратегияси”да белгиланган вазифаларни самарали бажариш натижалари, унинг умуман халқаро алоқаларида, хусусан экологик муносабатларида толерантлик тамойилига амал қилишига боғлиқлигини тарихий тараққиёт мантиғи кўрсатиб бермоқда. Зеро, XXI аср воқелиги инсоният олдида кескинлашаётган глобал муаммоларни ҳал этишда толерантлик тамойилига асосланишни, ҳаётий заруратга, ижтимоий-экологик барқарор тараққиёт мотивига айлантирди ва уларни конкретлаштирмоқда.

Шунинг учун ҳам, Ўзбекистоннинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган “Ҳаракатлар стратегияси”да белгиланган вазифаларни мазкур тадқиқот мавзуси нуқтаи назардан таҳлил қилсак, **қонун устуворлиги экологик-ижтимоий фаолиятда толерантлик ҳодисасини ривожлантиришнинг муҳим механизми ва шарти эканлиги маълум бўлади.**

**Хусусан, суд ҳокимиятининг экологик масалалар ечимида: 1) суд тизими мустақиллигини таъминлаш ва нуфузини ошириш учун демократлаштириш ва такомиллаштириш; 2) экологик қонунбузарликларни чегаралаш, таъқиқлаш ва жазолашда судларни ихтисослаштириб, маъмурий, жиноят, фуқаролик ва хўжалик қонунчилигини такомиллаштириш, 3) фуқаролар экологик ҳуқуқи ва эркинликларини ҳимоя қилишни кафолатлаш учунбарча зарур чораларини кўриш; 4) жиноят ва жиноят-**

<sup>2</sup>Каримов И. Хавфсизлик ва барақарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т: Ўзбекистон. 1998. Б-125.

<sup>3</sup>Ш.М.Мирзиёев. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. //Халқ сўзи, 2016 йил, 19 октябрь.

процессуал қонунчилигида экологик ҳуқуқбузарликларни кўриб чиқиш жараёнини такомиллаштириш ва либераллаштириб; жиноий жазолар ва уларни ижро этиш тартибини инсонпарварлаштириш; 5) экологик жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасида давлат ва фуқаролик институтлари фаолиятини мувофиқлаштириш; 6) экологик терроризм, коррупция, экспансия ва бошқа уюшган жиноятчилик шакллариға қарши курашиш бўйича ташкилий-ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш; 7) **экологик жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришда** давлат тузилмалари, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари билан ўзаро самарали ҳамкорлигини ташкил этиш; 8) экологик ҳуқуқбузарликларни аниқлаш ҳамда уларға имконият яратаётган сабаб ва шароитларни бартараф этишда экологик ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат идоралари фаолияти устидан жамоатчилик назорати механизмлари самарадорлигини ошириш давлат сиёсатида экологик толерантлигини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари қилиб белгиланган<sup>4</sup>.

Экологик партияларнинг халқаро сиёсий муносабатларини, жамиятнинг: сиёсий, иқтисодий, мафкуравий тузими характериға, муайян ижтимоий қатламлар манфаатларға боғлаб, сиёсатлаштириш ва мафкуралаштириш ғализ назарий хулосаларға олиб келади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. <https://lex.uz/acts/107115>
2. Алихонов Б. Экологик таълим - атроф-муҳит мусаффолигининг асосий омили. Халқ сўзи, 10 август 2012 й.
3. Каримов И. Хавфсизлик ва барақарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т: Ўзбекистон. 1998. Б-125. 4.Ш.М.Мирзиёев. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. //Халқ сўзи, 2016 йил, 19 октябрь.
5. Musaev, Odil, et al. "Socio-philosophical interpretations of such concepts as" ethnos" and" nation" as social unit." *International Journal of Advanced Science and Technology* 29.5 (2020): 1936-1944.
6. ЮСУПОВ, Ахроржон. "CULTURAL, SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL FACTORS IN INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF CITIZENS IN SOCIETY." *O 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI* 1.5 (2022).

<sup>4</sup>Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисида /расмий нашр/ Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги. -Тошкент: Адолат, 2017.

7. Юсупов, Ахрор. "СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ГРАЖДАН." *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ*. 2020.
8. Юсупов, А. К. "Роль гражданской активности в демократизации общества." *Вопросы политологии* 10.9 (2020): 2709-2716.
9. Yusupov, Ahror Kurbanovich. "THE ROLE OF NATIONAL IDENTITY IN INCREASING THE SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF THE YOUTH OF UZBEKISTAN." *E-Conference Globe*. 2021.
10. Юсупов, Ахроржон, and Баходирхан Кодирхан угли Нуманов. "КИПЧАКИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ИХ УЧАСТИЕ В ЭТНИЧЕСКОМ ПРОЦЕССА." *Ученый XXI века* 6-2 (2016).
11. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "The Role of National Identity in Increasing the Socio-political Activity of the Youth of Uzbekistan." *JournalNX*: 177-179.
11. Alimovna, Usmonova Sofiya, and Juraeva Ramziya Abdurahimovna. "THE PLACE OF ETHNOTOPONYMS IN TOPONYMY." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact factor: 7.429* 11.09 (2022): 300-303.
12. Abdurakhimovna, Joraeva Ramziya. "Lexical-Semantic Features Of Muqimi's Works." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 138-144.

## BOLALARNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING O'RNI.

Xolmatova O'g'iloy Tojiddin qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti maktabgacha ta'lim 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni rivojlantirishga qaratilgan. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyatga o'rgatishda rasm, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlari haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san'at asarlari

Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jixatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik xislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruxiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Tasviriy san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni etishtirib chiqarish vazifasi turibdi

Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya — bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofnı obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan, yozuvchining she'ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlarga bo'lib, uning shaklini o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog'oz, bo'r, bo'yoqlar) bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy

faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish)ning rivojlanishiga imkon beradi, bu, o'z navbatida, bolalarning oqilona o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi.

Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Chunki bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari — boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlarni tarbiyalanadi. Bolalarda, ishni baholash jarayonida, bolalarni o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi — bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa yoki his etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rganadilar. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy-ijodiy o'stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, ko'z faslida sayohat uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofni kuzatishda paydo bo'luvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish,

boshqalarga yoqadigan, ularni ko'rganda quvonadigan qilib yaratish bu badiiy, axloqiy tarbiyalaslmimg asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari boshqa ta'lim-tarbiyaviy ish bo'limlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Mashg'ulot o'tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlariga ham tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvurga ega bo'lsalar, rasm, loy, applikasiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yusupova P. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". T.: O'qituvchi, 1993.
2. Xasanboyeva O.U. va boshq. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". T.: Ilm ziyo, 2006.
3. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.: Tafakkur bo'stoni, 2013
4. Kayumova.N "Maktabgacha pedagogika" T.: TDPU ,2013.
5. Qodirova.F., va boshqalar. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat", 2013
6. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.:2010y.

## GINEKOLOGIK BEMORLARNI TEKSHIRISH USULLARI

Xurramova Kamola O'ktamovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqoladan siz "ginekologiya fani o'zi nima, u nimani o'rganadi, ginekologiya fanining qanday tekshirish usullari bor?" kabi savollarga javob olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ginekologiya, tug'ruq komplekslari, anamnez, kontratsepsiya, bachadon polipi.

Ginekologiya (gynae – ayol, logos – ta'limot) – ayollar jinsiy a'zolarining fiziologiyasi va patologiyasini o'rganuvchi fan. Ginekologiya terapiya, xirurgiya va boshqa tibbiy fanlar bilan birgalikda klinik tibbiyotning asosini tashkil etuvchi ixtisoslar jumlasiga kiradi. Ginekologiya bo'limi ixtisoslashtirilgan turli statsionarlar tarkibiga (ko'p tarmoqli shifoxonalar, tug'ruq komplekslari, onkologik, silga qarshi kurash, endokrinologik dispanserlar) kirishi mumkin. Umumiy ixtisosdagi ginekologiya bo'limi jarrohlik yo'li bilan davolanishga va konservativ yo'l bilan davolanishga muhtoj kasallarga mo'ljallangan bo'limlar: qabul bo'limi, palatalar, tekshirib ko'rish, bog'lash, muolaja xonalar, oshxona, xodimlar xonasi, tibbiyot hamshirasi postlari, katta va kichik operatsiya xonalari, operatsiyadan keyingi xona, endoskopik xona, tuvak va kleyonkalar yuviladigan va quritadigan xonalardan iborat. Asosiy hujjatlar: qayd qilish jurnali; kasallik tarixi F<sup>1</sup>003/U; homiladorlikni to'xtatish (abort) tibbiy kartasi F<sup>1</sup>027/U; statsionardan chiqish varaqasi F<sup>1</sup>027/u; perinatal o'lim to'g'risida guvohnoma F<sup>1</sup>106 – 2/u; o'lim to'g'risida guvohnoma F – 106 /U.

Ginekologik kasalliklar subyektiv (shikoyatlar, anamnez) va obyektiv tekshirish ma'lumotlariga asosan aniqlanadi (diagnoz qo'yiladi).

Bemorning asosiy shikoyatlarini bilib, oldingi hayoti va boshdan kechirgan kasalliklari to'g'risida, ushbu kasallikning qanday boshlanganligi haqida ma'lumotlar olinadi. Dastlab umumiy ma'lumotlar: bemorning familiyasi, ismi, otasining ismi, oilaviy ahvoli, kasb-kori, yoshi, turmushi va ovqatlanish sharoitlari, zararli odatlari bor-yo'qligini bilish kerak.

Bemorning yoshi muhim ahamiyatga ega, chunki bitta simptomning o'zi ayol kishi hayotining turli davrlarida har xil kasalliklarning belgisi bo'lishi mumkin. Bemorning kasb-kori, mehnat sharoitlarini bilish ko'pgina patologik jarayonlarning sabablarini aniqlab olishga yordam beradi. Masalan: og'ir yuk ko'tarish, tik oyoqda uzoq turib ishlash ayol kishi jinsiy a'zolarining noto'g'ri holat olishiga yo'l ochadi. Ishlab chiqarishda mehnat – sanitariya-gigiyena sharoitlari va xavfsizlik texnikasi buzilgan chog'larda vibratsiya, kimyoviy va radioaktiv moddalarga yaqin yurish

ayollarning hayz ko'rish funksiyasiga va bola tug'ish funksiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddat sovqotish yoki haddan tashqari issiqlab ketish bilan aloqador ish yallig'lanish jarayonining qo'zishiga olib kelishi mumkin. Umumiy ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyin uni vrachga kelishga majbur qilgan shikoyatlarini aniqlash kerak. Ginekologik bemorlar odatda og'riq borligi, oqchil kelayotgani, hayz sikli buzilganligidan (bachadondan qon ketayotganligi yoki hayz ko'rmasligidan), farzandsizlikdan noliydi. Og'riqlar ginekologik kasalliklarda (vaqt-vaqti bilan tutib turadigan, kemirayotgandek bo'lib seziladigan, mudom simillab turadigan) ular zo'rli, seziladigan joyi, tavsifi, tarqaladigan joyi jihatdan har xil. Anamnez yig'ishda irsiyatga ahamiyat berish kerak. Bemorning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlarida surunkali infeksiyalar (sil va boshqalar, ruhiy, tanosil, o'sma kasalliklari, qon kasalliklari, moddalar almashinuvi kasalliklari, alkogolizm borligi bemorning ana shu kasalliklarga moyil-moyil emasligini aniqlab olishga yordam beradi). Bemorni so'rab surishtirish hayot anamnezini go'daklik davridan boshlab aniqlab olinadi. Ginekologik kasalliklarning sabablarini aniqlab olishda ilgari umuman boshidan kechirilgan dardlarning ahamiyati katta. Odamning tez-tez angina, revmatizm bo'lib turgani, jigar kasalliklari, neyroinfeksiya va boshqa kasalliklar bilan og'rigani aksari hayz funksiyasining buzilishiga jismoniy va jinsiy jihatdan rivojlanishda orqada qolishga olib keladi.

Ayol organizmi spetsifik funksiyalari: hayz, jinsiy, bola tug'ish va sekretor funksiyalarining xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. So'rab surishtirishni birinchi marta qachon hayz kela boshlaganini (menarxe), hayz funksiyasining ti'dini (hayz sikli va hayzning qancha davom yetishi, keladigan qon miqdori, og'riq bo'lish-bo'lmasligi), qachon so'nggi marta hayz bo'lganini aniqlashdan boshlash kerak. Jinsiy funktsiya xususiyatlari: jinsiy hayotning qachon boshlangani, jinsiy hissiyot, jinsiy aloqa vaqtida ko'riladigan o'zgarishlar (og'riq sezilishi, jinsiy aloqadan keyin qon aralash ajralmalar kelishi), bo'yida bo'lishdan saqlanish (kontratsepsiya) usullari ginekologik kasalliklar bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Diagnostika aniqlashda bemor erining yoshi va salomatligi ham katta ahamiyatga ega. Bola tug'ish funksiyasining xarakterini aniqlab olishda ayol kishining necha marta bo'yida bo'lgani, homiladorlikning qanday o'tgani va oqibati nima bo'lgani sinchiklab surishtirib bilib olinadi. Bemor farzandsizlikdan noliydigan bo'lsa, avval qanday tekshirishlar va davo qilib ko'rilganini aniqlab olish kerak. Sekretor funktsiya xarakteri jinsiy yo'llardan patologik ajralmalar (oqchillar) kelish-kelmasligi va bularning miqdori haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi. Ko'pincha vulva, qin, bachadon bo'yni va jinsiy sistema yuqorida yotgan a'zolarining har xil etiologiyali yallig'lanish kasalliklari



oqchillar kelib turishiga sabab bo'ladi. Oqchillar bachadon polipi va rakning belgisi bo'lishi mumkin. Oqchil suyuq, suvsimon, yiringsimon, shilimshiqsimon, tvorogsimon bo'lishi mumkin. Akusherlik-ginekologik anamnez xususiyatlarini aniqlab, bilib olgandan keyin mazkur kasallik anamneziga o'tiladi. Mazkur kasallikning qay tariqa avj olganligi to'g'risidagi ma'lumotlar: uning qachon paydo bo'lganligi, abort, tug'ruqlar, birga davom etib kelayotgan kasalliklar, hayz, sovqotish, umumiy infeksiya va qilingan davoning xarakteri va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar alohida diqqatga sazovordir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Allayorov Ya.N. "Reproduktiv salomatlik va kontraseptiv texnologiya", «Istiqbol», T., 2005.
2. Allayorov Ya.N. "Akusherlik" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2011.
3. Allayorov Ya.N., Yusupova D.O', Asqarova F.Q. "Akusherlikda amaliy ko'nikma va muolajalar", Samarqand, 2007.
4. Allayorov Ya.N., Tosheva D.G., Yusupova D.O'. "Onalikda hamshiralik parvarishi", "Voris" nashriyoti, T., 2012.

**Konstruksion materiallarning mexanik xossalari**  
**Axmedov Dilshod Namoz óg'li**  
**Termiz muhandislik-texnologiya instituti**  
**Mexanika fakulteti 2-bosqich 21 A guruh talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada konsstruksion materiallar haqida yozilgan. Konstruksion materiallar quyidagi metallar asosida tayyorlanadi: magniy, alyuminiy, titan, xrom, vannadiy, marganec, temir, kobolt, nikel, mis, rux, qalay, qo'rg'oshin va boshqalar. Konstruksion materiallar sifatida ishlatiladigan metallar va ularning qotishmalari engil qiyin yoki oson suyuqlanuvchan, mustaxkam, edirishga chidamli, korroziyaga chidamli kabi talablarga ega bo'lishi kerak. Hozirgi zamon texnikasining mashinalar, stanoklar, samoletlar, avtomobillar, temir yo'l vagonlari, og'irligini ularning puxtaligiga putur etkazmagan holda engillashtirishga imkon beradigan metallarga talabi katta.

**Kalit so'zlar:** Konstruksion materiallar, magniy, alyuminiy, titan, xrom, vannadiy, marganec, temir, kobolt, nikel, mis, rux, qalay, qo'rg'oshin, stanok, samolet, temir yo'l, avtomobil, qotishma, solishtirma og'irlik, suyuqlanish temperaturasi, mustaxkamligi.

### **Kirish**

#### **Konstruksion materiallar.**

Texnika mutaxasislari solishtirma og'irligi kichik bo'lgan metallrdan kengroq foydalanish ustida tinmay ish olib bormoqdalar. Biroq, asosan magniy o'ta engil (solishtirma og'irligi 1,74) qotishmalar tayyorlash uchun keyingi vaqtlarda tobora kengroq qo'llanilyapdi. Bunday qotishmalar asbob – uskunalarning og'irligini alyuminiy qotishmalaridan ko'ra yana ham engillashtirish imkonini beradi. Konstruksion materiallar tarkibiga ko'ra quyidagi ikki guruhga bo'linadi: Yengil konstruksion materiallar. Yengil konstruksion materiallarga asosan 4 ta metall kiradi. Ular quyidagilar: berilliy, magniy, alyuminiy, titan.

### **Asosiy qism**

Yuqoridagi metallardan magniy va alyuminiy haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirib o'tamiz. Magniy eng muhim engil metallarning biri bo'lib, hozirgi zamon texnikasida, ayniqsa, har biy texnikada alyuminiy kabi tobora keng qo'llanilmoqda. Magniyni sanoatda olish usuli o'tgan asrning oxirigcha ibtidoiy aholi qolib keldi. Undan asosan pirotexnika uchun kukun yoki kambar lenta tarzida foydalanilardi. Magniy sanoatining rivojlanishiga magniy qotishmalarining kashf qilinishi katta ta'sir etdi. Magniy er qobig'ida ko'p tarqalgan elementlar jumlasida bo'lib, u er qobig'ida

tarqalishi bo'yicha 8 o'rinda turadi. Uning zahiralari mis, nikel, rux kabi metallarning zahiralaridan bir qancha martta ko'pdir. Kimyoviy aktivligi yuqori bo'lgani tufayli magniy er qobig'ida erkin holati emas, balki birikmalar tarzida uchraydi. Er qobig'i ustki qatlamning 16 km gacha chuqurligida magniyning kislorodli birikmasi magniy oksid (MgO) o'rtacha 3,45 % chamasida bo'ladi. Qirg'oqlarning nurashi tufayli yuvilib suvga o'tadigan magniy oksid dengiz suvida to'planadi; bu suvda o'rtacha hisobda qariib 0,14% magniy bo'lib, u xlorli birikma magniy xlorid tarzida uchraydi

Magniy olinadigan eng muhim xom ashyo magnezit, dalamit, karnolit va boshqalardir. Sanoatda magniy olishning ikki usuli – termik va elektrolitik usuli bor. Termik usuli magniy oksidni biror qaytaruvchi, masalan, ko'mir, alyuminiy, kremniy va shu kabilar yordamida to'g'ridan-to'g'ri magniygacha qaytarishdan iborat. Misol:  $MgO + C = Mg + CO$  Bunda, temperatura 1000 C atrofida bo'lishi shart. Elektrolitik usulda magniy olishda uning har kilogramiga 20-25 Kilovatt-soat elektroenergiyasi sarflanadi va undan tashqari bu usuldagi xom ashyo juda toza bo'lishi lozim. Magniy dyuralyuminiy va magnaliy kabi keng tarqalgan alyuminiy qotishmalarining ancha puxtaligiga sababchidir. Bo'larda 0,8% (dyuralyuminiyda) 8-10% gacha (magnaliyda) bo'ladi.

Magniy uncha puxta bo'lmaganligi tufali toza holda konstrukciya materiali sifatida ishlatib bo'lmaydi. magniy qotishmalarining solishtirma og'irligi kichik bo'lib 1,8 ga teng. Bu qotishmalarning yangi bir afzallikka, ya'ni yuqori mexanik sifatlariga ega. Magniy qotishmalari solishtirma puxtaligi (uzulishga vaqtli qarshilikning solishtirma og'irlikka nisbati) jihatidan asosiy keng tarqalgan alyuminiy qotishmasi – dyuralyuminiyga yaqin turadi. Magniy qotishmalari ba'zan «elektron» deb ataladi. Magniy qotishmalari konstrukciyalarini englillashtirish zarur bo'lgan hamma erda, ayniqsa transport hamda mashinasoxlikda ishlatish maqsadga muvofiqdir. Samoletlar matorlarining xilma-xil detallari aeroplan va to'plarnig g'ildiraklari, moy va benzin solinadigan baklar, radio apparatlarning detallari, temir yo'l vagonlarining, metro vagonlarining, tramvaylarning, avtobus va trolleybuslarnin qoplamalari, stanoklarning detallari, ko'chma asboblari, ro'zg'or asboblari – bo'larning hammasi magniy qotishmalari ishlatsa bo'ladigan sohalarning bir bo'lagi.

Hozirda alyuminiy etishmasligi va magniy xom ashyosining ancha qulayligi sababli eng yirik hamma sanoatlashgan mamlakatlar magniy sanoatining rivojlanishini tezlatmoqda. Alyuminiy er qobig'ida kislorod va kremniy qatorida ko'pchilikni, er qobig'ining 7,3% ni tashkil yetadi. Granitdan, sienitdan, dioritdan, bazaltdan va boshqa jinlardan vujudga kelgan baxaybat tog' massivlarining paydo bo'lganligi va mavjudligi boisi faqat va faqat alyuminiydandir. Birlamchi tog'jinlarining nurashi

natijasida turli tuman narsalar, avvalo gil hosil bo'ladi. U insoniyatning moddiy madaniyatida (qurilishlarda, idish tovoqlar va boshqa narsalar tayyorlashda qo'llanilishi bilan) nihoyatda katta ahamiyat kasb etdi. Tarkibida gil tuprog'i bo'lgan va topilag joyi – Franciyaning Janubidagi Bo (Veaix) shaxri nomidan olinib, boksit deb atalgan jins 1821 yilda tavsiflab berildi. Boksit tarkibida qariib 50% gil tuproq, 26% temir oksidi va 24% suv bo'ladi.

Alyuminiy ishlab chiqarish uchun asosan alyuminiy oksid suyuqlanmasi qo'llaniladi. Alyuminiy chiqarishda bir tonna alyuminiy olish uchun 20ming Kilovatt-soat energiya talab qilinadi va qariib 2 kg gil tuproq kerak bo'ladi. Alyuminiyning qimmatli xususiyatlari: elektr va issiqlik o'tkazuvannligi, qayishqoqligi, engilligi, ko'p kimyoviy moddalarga nisbatan chidamliligi va boshqalar alyuminiyga keng istiqbol ochib bergan bo'lar edi. Lekin nihoyat darajada engil bo'lgani holda mexanik xossalari jihatidan eng qimmatli bo'lgan qotishmalar xosil qila olishi tufayligina alyuminiy «istiqbolli metall» ga aylandi. Bu qotishmalarda 1909 yili kashf etilgan dyuralyumin avivciya sanoatida, tarnsportda, kimyo sanoatida va texnikaning boshqa sohalarida juda ham ko'p maqsadlar uchun qo'llaniladi. Dyuralbyumin tarkibida: 92-96% alyuminiy, 3,5-5% mis, 0,5% magniy va 0,5% marganec bo'ladi. Boshqa qotishmalardan silyumin (tarkibida 12-13% kremniy va 0,1% natriy bor) ko'p ishlatiladi. Uchichi qimmatli qotishma magnalidur. Bu – alyuminiyning magniyli har xil qotishmalarga berilgan umumiy nom.

Ular atmosfera koroziyasiga qarshi g'oyat darajada turg'un bo'lib, negizini alyuminiy tashkil qilgan qotishmalar ichida eng engilidir (solishtirma og'irligi qariib 2,5). Alyuminiy avtomobillar, dirijabllar, sammolyotlarda muhim rol' o'ynaydi. Alyuminiy sanoatining taraqqiy etishiga xavoni zabt etishni tez kuchayib borayotgani, shubxasiz, yordam berdi. Alyuminiy, elektrosimlarni tayyorlashda har xil aslaxa buyumlar va uy-ro'zg'r buyumlari ishlab chiqarishda ko'p qo'llanilmoqda. Alyuminiy qotishmaarining tobora ko'plab ishlatilayotganligi alyuminiy sanoatining tez taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Xrom – er po'stlog'ida 0,2% bo'lib, uning xromli temir tosh tarkibli rudasi majud ( $Fe_0\text{-}Cr_{203}$ ). Ishlatilishi. Metallarni xromlashda (koroziyaga qarshi) po'latni legarlashda ishlatiladi. U po'lat tarkibida bo'lsa, bunday po'lat koroziyaga chidamli bo'lib, qattiqligi oshadi. Marganes. Yer po'stlog'ini 0,1% ni tashkil qiladi. Tabiatda  $MnO_2$ ,  $Mn_3O_4$ ,  $Mn_2O_3$  holida uchraydi. Marganes, marganes sulfatni elektroliz qilib, uning oksidlaridan kremniy yordamida qaytarib olinadi. Ishlatilishi. Asosan po'latni legarlashda ishlatiladi. Tarkibiga 15% marganec qo'shilgan po'lat yuqori qattiqlikka va mustaxkamlikka ega bo'ladi. Bunday po'latdan temir yo'l relslari tayyorlanadi.

Mn+Cu+Ni=Magnanin qotishmasi elektrotexnikada ishlatiladi. Uning KMnO<sub>4</sub> birikmasi medicinada, kimyo sanoatida va xo'jaliklarda turli maqsadlarda qo'llaniladi. Temir. Er po'stlog'ining 4% ni tashkil yetadi. Oksidlar, sulfidlar va boshqa birikmalar holda uchraydi. Temirdan cho'yan va po'lat ishlab chiqariladi.

Ishlatilishi. Temir paravoz, elektrovoz, vagon, trolleybus, avtomobil, traktor, mashinalar, shaxtalarning jixozlari va boshqa buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Shahar va qishloqlarda temirbeton uylar va maishiy muassasalar qurilishida keng iste'mol buyumi sifatida ishlatilmoqda. Kobalt. Yer po'stlog'ida 0,004 % ni tashkil yetadi. Ishlatilishi. Kobalt qotishmalar ishlab chiqarishda keng ishlatiladi. Uning qotishmalari isiqlikka chidamli bo'ladi. Undan magnitlar tayyorlanadi. Kesuvchi asboblari tayyorlanadi. Shisha sanoatida shishaga rang berishda ishlatiladi. Nikel. Yer po'stlog'ida 0,01% tashkil yetadi.

## Xulosa

Konstruksion materiallar quyidagi metallar asosida tayyorlanadi: magniy, alyuminiy, titan, xrom, vannadiy, marganes, temir, kobolt, nikel, mis, rux, qalay, qo'rg'oshin va boshqalar. Konstruksion materiallar sifatida ishlatiladigan metallar va ularning qotishmalari engil qiyin yoki oson suyuqlanuvchan, mustaxkam, edirishga chidamli, korroziyaga chidamli kabi talablarga ega bo'lishi kerak. Hozirgi zamon texnikasining mashinalar, stanoklar, samoletlar, avtomobillar, temir yo'l vagonlari, og'irligini ularning puxtaligiga putur etkazmagan holda engillashtirishga imkon beradigan metallarga talabi katta.

## Adabiyotlar ro'yhati

1. V.A.Mirboboev Konstruksion materiallar texnologiyasi. T: O'qituvchi. 1991 yil.
2. A.I.Dalskiy i dr Texnologiya konstruksionnux materialov. M: Mashinostroenie. 1980g.
3. V.A.Mirboboev, E.Umarov. Konstruksion materiallar texnologiyasi kursidan laboratoriya ishlari. T: O'qituvchi 1993 yil
- 4.S.Po'latov va boshqalar. Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi fanidan amaliy ishlar.T: Mehnat 1992 yil.
- 5.Kucher A.M. Metall qirquvchi dastgohlar, M. Mashinasozlik. 1974.
- 6.Tepinkichiev V.S. Metall qirquvchi dastgohlar, M. Mashinasozlik. 1979.
- 7.Kolev N.T. Metall qirquvchi dastgohlar, M. Mashinasozlik. 1983.
- 8.To`raxonov Sh.A. Metallar texnologiyasi va konstruksion materiallar, O`qituvchi, 1979.

**Sportni rivojlantirishda pedagogik va psixologik tamoyillar**

**Bozorov Elbek Baxodir o'g'li**

**Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 39-umumiy o'rta ta'lim maktabi**

**Jismoniy tarbiya o'qituvchisi**

**Toshpulatova Dilfuza Komiljon qizi**

**TATU Samarqand filiali talabasi**

**Annotasiya:** Ushbu maqola orqali davlatimiz rahbarining sportni rivojlantirishga oid olib borayotgan davlat dasturi haqida va maktabgacha va maktabdagi ta'lim tizimi sportni rivojlantirishga oid olib borilayotgan say harakatlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Olimpiada, sport inshooti, sog'lom avlod, konsepsiya, Milliy Olimpia qo'mitasi, sog'lom turmush tarzi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 4-sentyabr kuni jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, xalqaro musobaqalarga tayyorgarlikni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda bu borada ham juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Sohani boshqarishni takomillashtirish maqsadida Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etildi. 2019-2023-yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Aholining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilovchi "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarini o'tkazish tizimi joriy etildi.

Besh tashabbus hamda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida sport obyektlari ishga tushirilib, yoshlar sportga faol jalb etilmoqda. Olimpiya o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari g'olibi bo'lgan 204 nafar sportchi tuman va shaharlarga birlashtirildi, ayrimlarining sport maktablari ochildi. Yurtimiz vakillari o'tgan yilgi Osiyo o'yinlarida jami 70 ta, jumladan, 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza medalini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 5-o'rinni egallagan edi.

Joriy yilning o'tgan davrida esa xalqaro musobaqalarda jami 442 ta, jumladan 145 ta oltin, 134 ta kumush va 163 ta bronza medali qo'lga kiritildi.

Yig'ilishda bundan keyingi musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'rish, buning uchun joylarda zarur sharoit yaratish masalalari muhokama etildi.

2020-yilda Tokioda bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ahvoli qoniqarli emasligi, qator sport federatsiyalari va hokimliklar yuqori natijalarni ta‘minlaydigan sportchilarga sharoit yaratishga e‘tibor bermayotgani tanqid qilindi.

Milliy Olimpiya qo‘mitasi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga saralab olingan sportchilarning yaqin oylarda o‘tkaziladigan xalqaro musobaqalarda yuqori o‘rin egallab, Olimpiadaga litsenziyani qo‘lga kiritishlari uchun yanada keng shart-sharoit yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Albatta, moddiy-texnik baza muhim. Lekin natijani iqtidorli sportchi ta‘minlaydi. Umumta‘lim maktablarida – o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jalb qilgan holda iste‘dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sinfdan tashqari sport to‘garaklari va seksiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 4 soatdan) maktabgacha ta‘lim muassasalari, umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari jismoniy tarbiya o‘qituvchisi (instruktori) hamda oliy ta‘lim muassasalari jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va kafedra mudiri lavozimlariga xalqaro darajadagi sport musobaqalari g‘oliblari tayinlanishi mumkin.

- 2021 yilda umumta‘lim maktablariga 50 ta sport zali qurilishi uchun 100 mlrd so‘m, sport ta‘lim muassasalariga 48 ta sport inshooti qurilishi uchun 400mlrd so‘m ajratiladi.
- 2021 yil 10 aprelga qadar 2022-2023 yillarga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqilib, shu asosda umumta‘lim maktablari sport zallari bilan to‘liq ta‘minlanadi, har bir tuman(shahar)da moddiy-texnika bazasiga ega bolalar va o‘smirlar sport maktablari hamda boshqa jismoniy tarbiya va sport muassasalarining sport inshootlari quriladi va jihozlanadi.
- Bundan tashqari, prezident imzolagan sog‘lom turmush tarziga oid farmonga asosan: ikki oy muddatda umumta‘lim, professional va oliy ta‘lim muassasalarida darslar oralig‘ida (katta tanaffus vaqtida) "Sport daqiqasi" jismoniy mashqlari amaliyotga joriy etiladi;
- darslar boshlanishidan oldin esa 2 daqiqa nafas olish mashqlari o‘tkaziladi;
- 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab o‘quvchilar, talabalarning yosh toifasiga qarab ularning jismoniy ko‘rsatkichlarini (yugurish, otish, sakrash, tortilish) baholash

mezonlari ishlab chiqilib, "Kundalik" reyting daftariga alohida sahifada kiritiladi; har chorakda tahlil qilib boriladi.

1. Jismoniy tarbiya vositalariga umumiy xarakteristika: jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtirish kuchlari, gigienik omillar.
2. Jismoniy mashqlar- jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi.
3. Jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni.
4. Jismoniy mashqlarning turkumlarga bo'linishi.
5. Jismoniy mashqlar texnikasi.

Jismoniy tarbiya vositalariga umumiy xarakteristika. XX asrning texnika taraqqiyot davrida jismoniy tarbiya va sportga katta o'rin ajratilmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda (17 yanvar 1996 y.). «Futbol» turini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Prezidentining farmoni hammani quvontiradi. Inson salomatligi jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishidan ajralmagan hol bo'lib qoldi. Chunki, texnik taraqqiyot davrida insoniyat jismoniy mehnatdan ozod bo'lib, eng xavfli kasallikka «Gipodinamiya»ga uchramoqda, ya'ni harakatsizlik. Bu esa XX asrning juda xavfli qon-tomir tizimining kasalligiga olib keladi. Shuning uchun, ayniqsa, oxirgi yillarda sevimli mustaqil respublikamizda davlatimiz raqbarlari tomonidan «Jismoniy tarbiya va sport» bo'yicha chiqarilgan qonun va «Sog'lom avlod uchun» farmon bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi, ularning Sog'lom, mehnatsevar, baxtli bo'lishlari to'g'risidagi hamkorlikni ko'rsatadi. Shunday bo'lar ekan, aholining, ayniqsa bolalarni jismoniy, har tomonlama garmonik rivojlanishi uchun qanday jismoniy tarbiya vositalardan foydalanishimiz mumkin.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya qadimdan mavjud bo'lib inson hayoti bilan rivojlanib kelgan. Inson jismoniy tarbiya uchun vositalarni asta-sekin tanlab borib, hayotida jismoniy tarbiya vositalarini vujudga keltirgan bular jismoniy mashqlar gigienik omillar, tarbiyaning sog'lomlashtirish kuchlari. Insonning jismoniy rivojlanishiga turli harakatlar ham ta'sir etadi (mehnat, rasm solish, kiyinish va boshqalar), shartsiz refleksi, massaj va boshqalar. Lekin, faqat majmua holda hamma jismoniy tarbiya vositalari qo'llanilsa, shundagina, yuqorida ko'rsatilgan vazifalarga to'la javob berish mumkin, chunki har bir vosita organizmga har xil ta'sir etadi. Bu vositalar, shuningdek, davolash va profilaktik maqsadlarda ham keng qo'llaniladi. Har bir sohaning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'ladi. Sportni rivojlantirishda ham to'siqlar bor albatta. Insonni rivojlantirish uchun uni ham manan ham jismonan rivojlantirish kerak. Sportni



rivojlantirishda psixologiyaning ham oʻrni boʻlak albatta. Har bir insonning oʻziga yarasha xarakteri mavjud .Bu esa oʻz navbatida har bir pedogogdanyaxshi psixolog boʻlishni ham talab etadi. Yosh avlodga taʼlim berishda oʻz oʻrnida ularni tarbiyalash ham joizdir. Yoshlar bizning kelajagimiz ekan ularni toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirish ham bizning vazifamizdir .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4),71-75

2.lex.uz



*Psychological components of professional-pedagogical culture*

Zukhra Safarova Qurbon qizi

Karshi 1-son IMI

E-mail [Zuhkras22@gmail.ru](mailto:Zuhkras22@gmail.ru)

**Abstract**

This article discusses the role that psychological culture of class teacher plays in the establishment and maintenance of psychological safety in a modern schoolchild. The problem of protection against psychological abuse within the educational environment of a school is particularly important in the current socio-cultural realm. The article analyzes many pedagogical and psychological studies regarding the problem of psychological education of teachers.

**Keywords:** psychological culture, psychological safety, class teacher, modern schoolchildren

Today's socio-cultural situation is responsible for many examples of negative impact on the formation of personality traits that external factors make. This increases the need for social, psychological and physical security in otherwise unstable social situation. According to many psychological and sociological studies, large percentage of parents is concerned with their child's safety within the educational environment. Parents are concerned about the way their children feel at school, whether they are accepted, understood, positively regarded, respected and loved regardless of their academic success. But they are even more concerned about destructive effects of psychological or physical abuse and bullying their children get from their peers, older children, and, sometimes, teachers.

It seems very important to study influence of teacher's psychological culture on schoolchildren's psychological safety. It seems even more important to define the alternative educational methods that would foster the development of future teachers' psychological culture. Currently, none of the teacher universities and colleges prepares a future teacher for assuming the position of a class teacher [1], which further widens the gap between a modern teacher's personal and professional qualities, and the requirements of class teacher duties.

For professionally competent, successful and effective realization of their duties, class teachers ought to be familiar with the psychological and pedagogical basics of working with children of specific age, be informed about the latest advancements in forms and methods of educational work, know and use modern educational technologies.

The central element of the class teacher professionalism is his or her professional psychological-pedagogical competence, the understanding of the complexity of personality, ability to analyze interaction of schoolchildren with the world, and manifestations of the schoolchild's interpersonal relations with other people. Thus, the psychological culture can be viewed as a part of psychological and pedagogical competence of a class teacher.

The lack of basic psychological literacy is the main reason for many problems, difficulties, conflicts, stress, and emotional hurt in the life and work of both individuals, and the society as a whole. As noted by I.V. Dubrovina (2000), our society need more psychological knowledge and psychological culture, that facilitates interest in another people, respect for their personalities, and a willingness to understand other people's actions, attitudes, and feelings.

In psychology, there is discernment between directed and undirected influence. The first employs persuasion and suggestion. Here a class teacher seeks to achieve a certain result of the pupils. In contrast, the undirected influence has no any special task, and the educational effect is produced by imitating the behavior of a role-model. The non-verbal means of influence are also of certain importance, because with their help it is easy to express the attitude towards a schoolchild, weaken his or her psychological defense and invade the world of the child's senses. Among these are certain facial expressions, gestures, and expressive means of voice (pitch, rhythm of speech, pauses, laughter, and other), eye contact, and tactile contact.

The choice of an educational strategy or of kind of influence is always left to a teacher. Teachers simply need to remember that "it takes a personality to form a personality, and it takes character to form character". A teacher must be a Person, as it is his of her professional characteristics. Therefore, the development of future teachers' psychological culture that would serve as a mechanism for effective communication, understanding, and communication between people of different nationalities, age, gender, occupation and other characteristics, is the basis of the psychological safety of both modern schoolchildren and the educational environment in general.



### References

1. Allakhverdov, V.M., Beljak, N.V., & Ivanov, M.V. (1985). O formirovanii psihologicheskoy kul'tury u studentov tehničeskogo vuza [On the formation of psychological culture of students of technical high school]. Psihologicheskoe obespechenie uchebnovospitatel'nogo processa v vuze [Psychological support of the educational process in college]. Leningrad: LGU.
2. Ananiev, B.G. (2001). Chelovek kak predmet poznaniya [Human as an object of knowledge]. St. Petersburg: Piter.
3. Basov, M.Ya. (1975). Izbrannye psihologicheskie proizvedeniya [Selected psychological works]. Moscow: Pedagogika.
4. Bodalev, A.A. (2002). Psihologija obshcheniya: Izbrannye psihologicheskie trudy [Psychology of communication: Selected psychological works], 2nd ed. Moscow: Moskovskij psihologo-social'nyj institut; Voronezh: NPO «MODJeK».
5. Dubrovina, I.V. (Ed.). (2000). Psihicheskoe zdorov'e detej i podrostkov v kontekste psihologicheskoy sluzhby [Mental health of children and adolescents in the context of psychological services]. Ekaterinburg: Delovaja kniga.
6. Zimnyaya, I.A. (2005). Obshchaja kul'tura i social'no-professional'naja kompetentnost' cheloveka [General culture and social and professional competence of the person]. Vysshee obrazovanie segodnja [The higher education today], 11, 14-20.
7. Zinchenko, V.P., & Morgunov, E.G. (1994). Chelovek razvivajushchij: Oчерki rossijskoj psihologii [Developing person: Essays on Russian psychology]. 2nd ed. Moscow: Trivola.
8. Klimov, E.A. (2004). Vvedenie v psihologiju truda [Introduction to labour psychology]. Moscow: Moscow State University.

## Abdulla Qodiriy ijodida millati va milliy o'zlik masalasi

Termiz davlat universiteti  
Iqtisodiyot va turizm fakulteti  
3-kurs talabasi Madatova Mahliyo

### Annotatsiya

Ushbu maqolada A.Qodiriy ijodidagi millatparvarlik, yurt qayg'usi va milliy qadryatlarimiz badiiy funksionalligi haqida so'z boradi. Zero, A.Qodiriy o'z asarlari bilan o'sha paytda yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda katta hissa qo'shgan.

**Kalit so'zlar:** Qodiriy ijodi, O'tgan kunlar, vatanparlik, milliy o'zlik masalasi.

**Kirish.** Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega adiblardan biri. Bugungacha uning asarlari kitobxonlarning sevimli, shu sababli adib ijodiga bir qancha o'zbek olimlari va ijodkorlari o'z fikrini bildirgan va o'rgangan. Adib adabiyotga „Juvonboz“ hikoyasi bilan kirib keladi. Albatta bular adabiyotdagi ilk urinishlar va tajribalar edi. Shu sababli ushbu hikoya bo'yicha bir qancha tanqidiy fikrlar mavjud. Xususan, bu asar Oybek tomonidan „quruq bir til, xalq tilidan juda uzoqda“ kabi fikrlar bilan tanqid qilingan. Biroq Qodiriyning tinimsiz mehnatlari va izlanishlari natijasida uning asarlarida adib mahoratining o'sganligi yaqqol ko'rina boshladi. Darhaqiqat, bir qancha vaqtdan keyin e'lon qilingan „Uloqda“ hikoyasini „tirik, obrazli bir til“ deya ta'riflangan. Qodiriy haqida boshqa olimlarning ham fikrini ko'rishimiz mumkin. Xususan, M.Muhamedov „mening nazarimda, Abdulla Qodiriy o'sha paytda o'z tili va mahorati bilan boshqalardan ajralib turadigan so'z san'atkori ekanini ko'rsatgan edi“ kabi qarashlarini bayon etgan edi. Ko'plab qodiriyshunoslar adibning badiiy til mahoratiga tan berishgan. Hatto, „O'tgan kunlar“ni ayamay tanqid qilgan Sotti Husayn ham adibning „o'zbek adabiy tilining takomillashida katta xizmati bor“ligini ta'kidlagan.

Qodiriy ijodini nafaqat o'zbek olimlari balki, chet el olimlari ham o'rgangan. Xususan, adabiyotshunos E.Nabi adib asarlarining janr xususiyatlari, millatparvarlik g'oyalari va qadryatlarini o'rgangan. Bundan tashqari adib ijodini amerikalik va angliyalik E.Olvort, A.Beningsin, E.Uimbush, Robet J.Barret, D.Montgomeri, G.Morris, H.Battersbininglar O'rta Osiyoni o'rganishga bag'ishlangan izlanishlarida bayon etgan. Hozirgi kunda ham adib ijodi o'rganilmoqda. Xususan, amerikalik tadqiqotchi Mark Riz Abdulla Qodiriyning „O'tgan kunlar“ asarini ingliz tiliga tarjima qilish uchun 15 yil umrini sarflagan.

**Asosiy qism.** XX-asr adabiyotining shakllanishida Abdulla Qodiriy asarlari katta o'rin egallaydi. Zero, adib o'zbek romanchiligining asoschisi sanaladi. Biroq Abdulla Qodiriy o'z asarlari bilan faqatgina o'zbek adabiyotida yangi yo'nalish boshlab bermadi, balki yosh avlodning o'zligini anglashiga ham yordam bergan. Bu borada, ayniqsa, adibning,, O'tgan kunlar'' romani muhim o'rin egallaydi. Ushbu asarni adib 1919-yil yoza boshlagan. 1922-yil,,Inqilob'' jurnalida romanning dastlabki parchalari chop etilgan. 1925-yil II bo'lim, 1926-yilda III-bobi nashr etilgan.

Adib o'z asarlari haqida:,,Yozmoqg'a niyatlanganim ushbu - ,,O'tgan kunlar'', yangi zamon ro'monchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrida talay kamchiliklari bilan maydonga chiqishi,ahllarining yetishmamlari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kecha turgan qusur va xatolardan cho'chib turmadim. Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik deydilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlarida bo'lg'an keyingi ,,xon zamonlari''dan belguladim'', - deydi.

### **O'tgan Kunlar haqida**

Darhaqiqat, xon zamonida va mustabid tuzum davrida xalqning ahvoli ayanchli tarzda edi. Xalq bir tomondan xonlarning cheksiz xoxish-istaklaridan jabr ko'rsa, ikkinchi tomondan mustamlakachilik zulmidan qiynalardi. Adib esa o'z asarlari bilan mudrab yotgan xalqni uyg'otishga harakat qildi. Bunga misol qilib oladigan bo'lsak, Otabekka savdogar kasbi tanlanishi. Kasbi tufayli Otabek boshqa shaharlarga ham borar va ularning iqtisodiy va siyosiy ahvolidan yaxshi xabardor edi. Adib aynan Otabekning ko'zi bilan xonlarning va davlat ayonlarining asl yuzini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Bundan "O'tgan kunlar" faqatgina sevgi-muhabbat asari emasligini ko'rishimiz mumkin. Bu asar nafaqat, o'sha davr ijtimoiy tizimini ifoda etgan, balki insonlarning xulq-atvorini ham ko'rsatib bergan. Asarning boshi va oxirining o'zigina uning o'zgacha ruhda yozilganini, katta mano kasb etganini ko'rsatadi. Xususan, adib asar boshini shom vaqti va qish fasli bilan boshlaydi. Aynan o'sha vaqtda Otabekning karvonsaroyda ekanligi tilga olinadi. Atrofdan shom azoni eshutilganligi haqida so'z boradi. Asarning tugashida esa "O'zbek oyim qora kiyib, ta'ziya ochdi" jumllarini ko'rishimiz mumkin. Shu jumllarining o'zidayoq katta mano bor. Bular Sobiq Ittifoq tomonidan bo'ladigan noxo'shliklar haqida ogohlantirish edi. Darhaqiqat, 1937-1938-yillardagi voqealar ko'pchilik insonlarning o'limiga sababchi bo'ldi, bazilarni qora kiyishiga majbur bo'ldi.

Asar qahramonlaridan biri Kumushni adib suyib-suyib tasvirlagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Hatto Otabekdan ham ortiq sevganmikan deb o'ylash mumkin. Aks holda Otabekni muhabbatini bu qadar tasvirlay olmasdi. Ammo Qodiriyning Kumushga muhabbatini aslida vatanga deya tushunsak bo'ladi. Asar boshida Kumush xasta edi, Otabekning muhabbati unga malham bo'ldi. Bundan shuni anglash mumkinki, o'sha paytlardagi inqiroz va mustabid tuzum sababli vatan xastalangan, uni faqatgina mard va jasur o'g'lonlargina qutqarishi va xalos etishi mumkin. Asar oxirida Kumush halok bo'ladi. Bunga sabab oddiygina ayollar o'rtasidagi rashk deb qarab bo'lmaydi. Otabekning ikki ayoliga birdek mehr bermagani va teng ko'ra olmagani ham Kumushning o'limiga sabab bo'lgan. Bundan xonlarning mamlakatdagi turli qabilava urug'larga birdek munosabatda bo'lmagani ular o'rtasida turli xil nifoqlarga sabab bo'lishi va inqirozning kelib chiqishiga sabab bo'lishini anglash mumkin.

Abdulla Qodiriy asarlari bilan faqatgina vatanparlik va milliy uyg'onishni chorlab qolmagan, balki, urf-odatlarimiz va qadryatlarimizni ham ko'rsatib bergan. Xususan, Kumush va Ranoning go'zalligiga, latofatiga va ibo-hayosiga hozirgi kunda ham ko'pchilik qizlar havas qiladi. Aynan mustabid davrda yo'qolib borayotganda o'zligimizning qayta uyg'onishiga ham ushbu obrazlar katta rol o'ynaydi.

**Xulosa.** Malum bo'ladiki, Qodiriy asarlarida xalqni uyg'onishga chorlagan. Bu ayniqsa yosh avlodga katta tasir ko'rsatgan. Undagi har bir so'z va jumla o'zida katta mano kasb etadi. Ehtimol shu sabablidir ko'pchilikning muhabbatiga sazovar bo'lgandir. Zero, birgina O'tgan kunlar asari qo'lma-qo'l o'qildi, navbat kutib o'qildi. Asardan ko'pchilik vatanparlik tuyg'ularini oldi. Ammo bularga Sovet tuzumi jimgina qarab tura olmas edi. Shu sababli ham adib bevaqt vafot etdi. Biroq adibning asarlari, qilgan ishlari va xotiralari hamon yashamoqda. Xalqimiz bunday vatanparvar insonlarni aslo unutmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- <https://oz.sputniknews-uz.com/20190410/abdulla-qodiriy-hayoti-va-ijodi-22340395.html>
- <https://saviya.uz/hayot/nigoh/abdulla-qodiriy-haqida/>
- <https://tafakkur.net/abdulla-qodiriy.haqida>
- <https://bilimlar.uz/abdulla-qodiriy-1894-1938/>

## ODDIY QALAMNING "BUYUK ISHLARI"

*Qosimova Nilufar Muratjon qizi*

*Qo'qon Davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrası o'qituvchisi*

*Qo'ziyeva Gulira'no Akramjon qizi*

*QDPI TSMG yo'nalishi 3-kurs talabasi*

*Qosimov Barkamol Solijon o'g'li*

*Qo'qon Universiteti iqtisodiyot yo'nalishi Sirtqi bo'lim 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** *Tasviriy san'atning yirik va keng qamrovli tur va janrlarida yaraladigan buyuk asarlarning dastlabki bosqichi albatta oddiy qora qalam yordamida bajariladi. Bundan tashqari qalam yordamida ham yorug'-soya nurini o'z o'rnida ishlatgan holda ajoyib asarlar yaratish mmkin.*

**Kalit so'zlar:** *qalam, siyoh, sangina, pastel, sous, kompozitsiya.*

Qalam bilan chizish barcha tasviriy san'atning asosidir. Rassom qanday tasviriy san'at yaratganidan qat'i nazar, u qalam bilan chizilgan rasmga asoslanadi. U dastlab yirik asarlar kompozitsiyasi bo'yicha o'z kuzatish va izlanishlarini qalam bilan boshlang'ich chiziqlar bilan ifodalaydi. Badiiy asar yaratishda bu qoramalar rassom uchun yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom qalam bilan chizish orqali u yoki bu rasmni yaratishga kirishadi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinga estetik zavq bag'ishlaydi. Boshqacha aytganda, hech bir ijodkor qalamsiz o'z asarini mukammal qila olmaydi. Qalam bilan chizilgan rasm ham tugallangan san'at asari bo'lishi mumkin. Siyoh, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko'plab rasmlar dunyoning turli san'at muzeylari va ko'rgazmalariga kiritilgan. Chizmachilikni o'rgatish nafaqat bo'lajak rassom, balki turli kasb egalari uchun ham to'g'ri tasviriy tasavvurni, borliqni idrok etish, qo'l, ong va his-tuyg'ularni rivojlantirishda zarurdir. atrof-muhitni keng va batafsil o'rganish natijasida aniq fanlar kabi tabiatni ilmiy tahlil qilish orqali o'rganiladi. Binobarin, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tabiatni mushohada qilib, qanchalik ko'p sevsa va o'rgansa, rasm sohasida ham shunchalik yuksak marralarga erisha oladi.

Uyg'onish davrining buyuk rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni chuqur o'rganib, o'z asarlarida ishonchli tasvirlab berdilar. Misol uchun, Leonardo da Yinchi, Alberti va Dyurer inson tanasining har bir qismini aniq o'lchamlarda o'rganib, ularni o'z tasvirlarida ishlatgan. Ular inson qiyofasi yoki portretini tasvirlashdan oldin anatom tadqiqotchi kabi uning strukturaviy xususiyatlarini chuqur o'rganib chiqdilar va natijada dunyoga mashhur san'at asarlarini yaratdilar. Tabiat qonunlari tasviriy san'atga



ta'sir qiladi va uning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Chizmachilik qonuniyatlari o'quvchining qalam chizish bilimini oshiradi va ko'nikmasini rivojlantiradi, ijodiy qobiliyatlarini o'stirib kelgusidagi pedagogik faoliyatga har tomonlama tayyorlaydi. Tabiatdagi predmetlarni tasvirlash mashqi tasviriy san'atning asosi hisoblanadi va u o'quvchidan yuqorida ko'rsatilgan qoidalar asosida ishlashni talab qiladi. Binobarin, rassom o'qishning boshidanoq rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini to'liq o'zlashtirib olishi, o'tmishning buyuk rassomlarining ijodi va tasvir texnikasini chuqur o'rganishi kerak. chizishni, shu bilan birga bu narsa va obyektning ichki mohiyatini chuqur tahlil qilishni ham talab qiladi. Bu borada buyuk fransuz rassomi va me'mori Le Korbuser shunday degan edi:

"Rasm chizish jarayonida siz obyektlaringizning dunyoga qanday kelishini, qanday rivojlanishini, o'sishini, gullab-yashnashini ko'rasiz. Bu mavjudlikni kuzatish obyektning "ichki" dunyosini, keyin esa "tashqi dunyosini o'rganish natijasida amalga oshiriladi. Tasvirlash kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir".

Tasvirlangan buyumning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, rassom uni shunchalik ko'p o'rganishi va tahlil qilishi kerak. Obyektning chiziqli konstruktiv tuzilishi va istiqbol holatini aniqlashda qalam bilan chizishda ilmiy yondashuv ayniqsa muhimdir. Qalam chizishda mahoratga erishish ko'p jihatdan avtoportretga bog'liq. Narsalarni o'ziga yarasha tasvirlash mahorati maktabidan o'tmasdan turib, badiiy taraqqiyot zinapoyasiga ko'tarilib bo'lmaydi. Bir nechta etuk shogirdlarni tayyorlagan rassom va murabbiy P.P. Chistyakov aytganidek, talaba avval chizayotgan bitumni diqqat bilan kuzatishi, keyin esa tabiatni o'ziga "bo'ysundirishi" kerak. Rassom qanchalik yetuk bo'lmasin, o'ziga yarasha narsani tasvirlashdan voz kechmasligi kerak. Boshqacha aytganda, rassomning tasavvuri uni oladi. U doimo atrofdagi mavjudot bilan bog'liq bo'lishi kerak. Rassom badiiy asar yaratishdan oldin, kuzatgan, eslab qolgan borliq obrazlarini qayta tiklaydi, tahlil qiladi, so'ngra ularni ko'plab amaliy mashg'ulotlar orqali olgan bilim va tajribasi asosida tasvirlaydi.

Tabiatdagi obyektlar turli o'lchamlarga ega. Obyektning o'lchamini ularga yorug'lik tushishi natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar orqali tasavvur qilamiz. Ma'lumki, yorug'lik tabiiy (quyosh va oy) yoki sun'iy (elektr va olov) bo'ladi. Quyosh nurlari Yerdagi hamma narsa va jismlarga tarqaladi. Asosan sharsimon shakllarda va obyektidagi yorug'lik va soyalar tarqoq va nisbatan noaniq. Obyektning o'z-o'zidan tasvirlashda sun'iy yorug'lik manbalaridan foydalanish obyektning to'g'ri hajmi va shaklini beradi. chizishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar qalam bilan chizishning o'ziga xos ilmiy jihatlarini o'zlashtirish, ularning keyingi ijodiy faoliyatida katta ahamiyatga ega bo'lishini yodda tutishlari kerak. Qalam chizish darslarida oddiy qalam

bilan predmetlarning o'lchamlari aniq va real tasvirlanadi. Rassomlikdan farqli o'laroq, bu vazifa murakkabroq bo'lib, o'quvchilardan qalam chizish bo'yicha ko'plab amaliy mashqlarni bajarishni talab qiladi. Shuning uchun ham har xil o'lcham va shakldagi predmetlarning soyasini tasvirlashda o'quvchilardan buyumning o'lchami va shakliga qarab ishlash talab etiladi. Bunda talaba obyektga tushayotgan yorug'lik, soya, yarim soyali yorug'lik chiziqlari bilan bir tekis chizishga, chiziqlar chizishda ularni parcha-parcha qilib olishga e'tibor berishi kerak. Obyektga yorug'lik qanchalik to'g'ridan-to'g'ri tushsa, uning tasviri shunchalik aniq bo'ladi. Boshqa tomondan, tashqi tomondan yorug'lik obyektga umumiy tarzda tegib, ko'rsatilgan tasvirning xiralashishiga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T., "O'qituvchi", 1984  
Boymetov B. Badiiy grafika kulliyoti birinchi kurs sirtqi bo'lim talabalari uchun qalamtasvirdan metodik tavsiyalar. T., 1992- yil.
2. Boymetov B. Qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar. T., 1995-yil.
3. Solijon o'g'li, Qosimov Barkamol. "CARPENTRY SCHOOLS-APPLIED ART FOUNDATION OF DEVELOPMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 945-949.
4. Kasimova, N. M. K. (2022). Representatives of the Kokan School of Coppersmithing, Glorifying the National Craft. *RegiINTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT*, 4(11), 86-90.
5. Nilufarkhan, Q., & Dildorakhan, A. (2022, May). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE HISTORY OF APPLIED ARTS OF UZBEKISTAN. In *E Conference Zone* (pp. 12-13).
6. Muhammedovich, Sharabayev Ulug'bek. "Problems of Teaching Drawing at School." *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development* 4.1: 35-39.
7. Qosimova, Nilufar. "5 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALARNI RASM CHIZISHGA O'RGATISH METODIKASI." (2022).
8. Nilufar, K. (2022). IN FINE ARTS AND DRAWING LESSONS" USING CASE STAGE EDUCATIONAL TECHNOLOGY. *Open Access Repository*, 9(11), 88-92.
9. Qosimova, N. (2022). IN FINE ARTS AND DRAWING LESSONS" USING CASE STAGE EDUCATIONAL TECHNOLOGY. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Rahimberdiyev, A., & Qosimova, N. (2023). KANDAKOR USTA, YORQINJON AXMADALIEVNING "IQTIDOR MARKAZI" DAGI FAOLIYATI. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(2), 36-41.

**Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning  
ilmiy-nazariy asoslari**

*Umurzakova Bonukhon Azizovna*

*Farg'ona davlat universiteti Gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrası  
katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik-psixologik xususiyatlari, fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatning shakllantirish tizimi tahlili tadqiq etilgan.*

**Kalit so'zlar:** **Mediamadaniyat, mediata'lim, axborot xuruji, axborot savodxonligi, mediamahsulot, mediamadaniyat**

Shaxs faoliyatining barcha jabhalarida xalqaro aloqalarning kengayishi, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlardan avvalgiga nisbatan erkinroq foydalanish, axborot-kommunikatsiya vositalarining barcha sohalarga keng joriy etilishi har bir insondan hech bo'lmasa bitta xorijiy tilni bilishni talab etadi. Xorijiy tilni amaliy bilish bizning davrimizda nafaqat yaxshi ta'lim belgisi, balki hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Bugungi kunda esa Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'rganishda axborot-kommunikatsiya vositalari va ijtimoiy tarmoqdan teng nisbatda foydalanish zaruratini beradi.

Workoteka.ru portalining o'tkazgan so'rovnomasiga ko'ra, axborot-kommunikatsiya sohalar tarmog'ida chet tilini biladigan hodimlarga bo'lgan (asosan ingliz tili) extiyoj birinchi o'rinda turadi.<sup>1</sup> Bu esa o'z-o'zidan xorijiy til o'rganuvchilarda ijtimoiy tarmoq, mediamahsulot bilan ishlash ko'nikmasi boshqa soha vakillariga nisbatan yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki,mediavositalarning ta'lim sohasidagi o'rni, ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitish tizimida ahamiyatlidir.Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchisining til bilish saviyasi chet tilini o'qitish sohasidagi madaniyatlararo muloqotda to'liq ishtirok etish imkoniyatini beradi.

"Mediamadaniyat" atamasini mualliflik yondoshuvi asosida tahlil qilar ekanmiz, media so'ziga ijtimoiy tarmoq yoki axborot kommunikatsiya vositalari yordamida bizga yetkaziladigan har qanday ko'rinishdagi axborot yoki xabar beruvchi sifatida ta'riflashimiz mumkin bo'ladi. O'z navbatida media to'rt xil shaklda bo'ladi: bosma (gazeta, jurnal), video, audio va rasm.

<sup>1</sup> Кудряшова А.П.Роль изучения иностранного языка в современном образовательном процессе.

Madaniyat atamasi esa, jamiyat tomonidan belgilangan, ma'lum normalarga asoslangan, insoniyatning xulqi, bilimi, dunyoqarashi, maqsadlari, urf-odatlari va qadriyatlari jamlanmasi deya ta'riflash mumkin. Madaniyat so'ziga O'zbekiston milliy ensiklopediyasida<sup>2</sup> arabcha "Madina" so'zdan olingan deyiladi. O'rta asr madaniyati asoschilaridan bo'lgan Abu Nasr Farobiy talqiniga ko'ra "har bir inson o'z tabiatiga ko'ra oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi." Uning fikriga ko'ra "madaniy jamiyat va madaniy shahar(mamlakat) bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma barobardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi."<sup>3</sup>

Bugungi kunda mediamadaniyat so'zining sinonimi sifatida pedagogikada "mediata'lim" va "mediasavodxonlik" so'zlari ham qo'llaniladi. Mediata'lim-shaxsning axborot olish va tarqatish huquqining bir qismi.

Ommaviy axborot vositalarining kishilar ongi, ruhiyatiga ta'sir etish va ongni boshqarishdagi imkoniyati juda katta. Mediata'lim atamasi doirasida, jamiyat hayotida, ayniqsa yoshlar o'rtasida "blogger", "xesh-tek", "chellenj", "tik-tokerchi" "selfi" kabi atamalar paydo bo'ldi. Bu kabi atamalar yoshlar hayot tarzini tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu atamalar o'z navbatida xorijiy tillardan o'zlashtirilib, yoshlar o'rtasida yangi qiziqishlarning ommalashishiga sabab bo'lmoqda.

Mediatadqiqotchilar selfi tushish paytidagi baxtsiz hodisa va o'limlarni o'rganishda "Heimdill-Project" epidemiologik razvedka usulidan foydalanishmoqda. Bu usul yordamida ijtimoiy tarmoqdan Selfi oqibatida sodir bo'lgan barcha baxtsiz hodisalar haqidagi axborotni topa oladi, shu bilan birga, Selfi vaqtida o'limga olib kelmagan baxtsiz hodisalarni hisobga olmaydi. 2020 yil statistikasiga ko'ra Selfi vaqtidagi o'limlar 50 ta davlatga tegishli bo'lgan. Bugungi kunga kelib(2022), bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan. Ijtimoiy tarmoqning bu kabi salbiy oqibatlarini minglab sanash mumkin.

Bunday mediavositlarning yoshlar hayotida salbiy oqibatlarini oldini olish va millat mentalitetiga ta'sirini kamaytirish xorijiy til o'qituvchilaridan katta mahorat va ma'suliyat talab etadi. Xorijiy til o'qituvchisi chet tilini biluvchi mutaxassis sifatida talaba-yoshlarda o'zga millat yoki mamlakat madaniyatini o'z madaniyati va an'anasiga aralastirmasligini, qabul qilinayotgan mediamaxsulotni taxlil qilish, uning davlat va jamiyat xayotiga salbiy ta'sirini kamaytirishda vositachi bo'lib xizmat qiladi

<sup>2</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild, 2000y

<sup>3</sup> Abu Nasr Farobiy, Fozil odamlar shahri. –T.: Yangi asr avlodi. 2016. – B. 163-164

Xulosa shuki, har bir talaba-yoshlar jamiyat va millatimizning ertangi kelajagiga dahldor mustahkam poydevordir. Shunday ekan, talabalarning ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli ravishda foydalanishlari, ularda mediamadaniyatni shakllantirish, ular foydalanayotgan vertual olamga ko'z-quloq bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Dissertatsiyaning «**Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi**» deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarida fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatni shakllantirishning mazmuni va modeli hamda uni rivojlantirishning amaliyotdagi o'rni, xolati tadqiq etilgan.

Mediatizatsiyalashuv natijasida medialar tashkilot va muassasalar hamda jamiyatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi va ular medialarga bog'lanib qoladi<sup>4</sup>. Shu bois xorijiy mediadan foydalanishda mediamadaniyatni shakllantirish, uni birinchi qabul qiluvchilari bo'lgan xorijiy tilga ixtisoslashgan kasb egalarini mediasavodxonligini oshirish masalalari dolzarblik kasb eta boshlaydi.

Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarida mediamadaniyatni rivojlantirish orqali ularda o'quvchilarga til o'rgatishda mediadan ratsional foydalanish ko'nikmasini shakllantirish mumkin bo'ladi. Ya'ni talabalarga media mahsulotdan til o'rganishdagina foydali jihatlarni olish ko'nikmasini shakllantirish amaliyotini o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, doimiy axborot aloqasi bo'lmasa, insonning to'la qonli rivojlanishi, ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyatning mo'tadil faoliyat olib borishi mumkin emas<sup>5</sup>.

Shu bois bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarini mediamadaniyatini shakllantirish modelini ishlab chiqish tadqiqotning ilmiy-pedagogik vazifalaridan biri bo'ldi. Modelning maqsadi xorijiy til o'rganayotgan talabani fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Oliy o'quv yurtlari uchun yaratiladigan multimediali media vositalar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- tanlangan fan mazmuni, ta'lim maqsadlariga hamda davlat ta'lim standartlariga mos kelish;
- bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining mustaqil bilim olishini ta'minlash;
- boshqa fanlar bilan uyg'unlashish (integratsiya);
- fanga oid yetarli miqdordagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirish;

<sup>4</sup> Mamatova YA, Sulaymanova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyotiyo'lida. O'quv qo'llanma.– Toshkent.:«Extremum-press», 2015. –B.8.

<sup>5</sup>Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.-М.: Знание, 1997. –С.64.

▪ bo'lajak xorijiy til o'qituvchilariga o'z-o'zini yoki professor-o'qituvchiga talabalar bilimni baholash va nazorat qilish imkoniyatini yaratish. Shu bilan bir qatorda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga, o'zlashtirilgan bilimlarni kundalik turmush amaliyoti bilan bog'lashga, ta'lim va tarbiyani o'zaro chambarchas bog'lashga, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilmog'i zarur.

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini shakllantirishda tarbiya sub'ektlarining tarbiyaviy-profilaktik ishlarining o'zaro aloqasi va uzviyligini ta'minlash, yomon xulqli talabalarning kundalik hayot faoliyatini kuzatish, axborot profilaktika tadbirlarini to'g'ri tanlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda har bir talabaga alohida profilaktik ta'sir ko'rsatish uning ongiga milliy axloq me'yorlariga doimiy rioya qilish zarurligini singdirish hamda ularga tarbiyaviy va nazoratli ta'sir o'tkazish metod va usullari, ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy jihatlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ayni paytda bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilariga salbiy ta'sir etadigan medianing ma'naviy buzg'unchi omillarni bartaraf etish va ularning munosabatini o'zgartirish tizimini o'rnatish maqsadida axborot muhitiga ta'sir etish shakllarini belgilash zarur bo'ladi. Bu esa har bir talabaga samarali ta'sir eta oladigan ijobiy axborotlarga tayanadigan ta'sir vositalarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarda media ta'siriga qarshi ijobiy axborot muhitini yaratishning ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat:

- -mediata'lim jarayonining mazmunliligi, yo'naltirilganligi, uzviyligi; bir tomondan talabalarga ma'naviy-ma'rifiy talablarni o'rgatish, boshqa tomondan ular shaxsining xususiy jihatlari va umumiy taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganishga qaratilganligi;
- -bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida mediata'lim asosida himoya imuunitetini shakllantirishda majburlashga yo'l qo'ymaslik;
- -bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari faolligi, tashabbuskorligi va irodasini namoyon etishiga erishish.

Bugungi kun tolibi ilmlarining dunyoqarashi va tafakkuri va u asosidagi mediamadaniyati televizion kanallarning yangidan-yangi imkoniyatlari, videotexnika, kompyuter va internet internet tarmog'i kengayib borayotgan bir sharoitda shakllanmoqda. O'z navbatida bu hozirgi globallashuv sharoitida media tizimlari va texnologiyalari orqali ko'plab axborot xuruji va ommaviy madaniyat xavfi kuchayib borayotgan bir jarayonda namoyon bo'lmoqda<sup>6</sup>. Bu jarayonda turli internet-kafe,

<sup>6</sup>G'ulomov S. va boshq. Axborot tizimlari va texnologiyalari. –T.: Sharq, 2000. 46 b.; Erkayev A. Globallashuv, axborot xuruji va ommaviy madaniyat. –T. 2009. –B. 18..

kompyuter klublari, kompyuter o'yinlarini tashkil qilayotgan shaxslar talabalarni doimiy muxlisga aylantirish uchun medianing barcha imkoniyatlaridan foydalanmoqdalar. Xilma-xil kayfiyat uyg'otuvchi axborotlar orqali amalga oshirilayotgan g'oyaviy buzilishlar natijasida turli salbiy holatlar sodir bo'lmoqda. Ana shunday tahlikali vaziyatning oldini olish uchun tezkor choralar asosida mediamadaniyatni shakllantirish uchun mas'ul bo'lgan mutaxassis yoki tir o'qituvchisining kundalik faoliyat dasturiga kiritilishi lozim bo'lgan eng muhim vazifasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bonuxon Umurzakova Azizovna " Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini zararli axborotlar tahdididan himoyalashda milliy va umummilliy qadriyatlarga asoslanish tamoyili" Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.2020y 60-b
2. B. Umurzakova Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishda ta'lim tizimlarining integratsion hamkorligining ahamiyati. Miasto Przyszlosci. Kielce 2022.20b
3. Mamatova Y, Sulaymanova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma.–Toshkent.: «Extremum-ress», 2015. –B.8.
4. Kadirova M.R.Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassalari talabalariga chet tilini o'rgatishda ijodiy faollikni modernizatsiyalash. 2018.
5. Islomov Z. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. – Toshkent: «O'zbekiston», 2005  
va M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar. Avtoref. ... fal.fan.dok. – T., 2012. – 56 b.



**Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining fanlararo hamkorlik asosida  
mediamadaniyatini rivojlantirishning dolzarbligi va ahamiyati**

*Umurzakova Bonuxon Azizovna*

*Farg'ona davlat universiteti gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrası  
katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarida mediamadaniyatni xorijiy til hamkorligida rivojlantirishning ustuvorligi va ahamiyati muntazamlilik, uzluksizlik ta'moyillari asosida takomillashtirilgan. Mediamadaniyatning tarkibiy qismlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *fanlararo hamkorlik, mediamadaniyat, mediasavodxonlik, mediamahsulot, axborot savodxonligi, mediata'lim.*

Jahonda axborot-kommunikatsiya tizimi taraqqiy etishi bilan, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ilm-fan sohasiga ommaviy axborot vositalarining turli ko'rinishlaridagi mediamahsulotlar oqimi kirib kelmoqda. Davlat ta'lim siyosatiga qarshi chiqadigan mediamahsulotlarning salbiy ta'sirlari, tajovuzlariga qarshi tura oladigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun uchun dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Medianing global xarakteri, ayniqsa raqamli media imkoniyatlari YUNESKONing asosiy strategiyasini qaytadan belgilashga undadi va natijada 1982 yilda YUNESKO tomonidan Mediata'lim deklaratsiyasi qabul qilingan. Mazkur hujjatda, yoshlarda media iste'moli madaniyatini rivojlantirish zarurati qayd etilgan. Shu bois ta'lim tizimiga mediata'limni olib kirish orqali talaba-yoshlarda mediamadaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va shart-sharoitlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biriga aylandi.

Dunyoning rivojlangan ilmiy tadqiqot institutlarida va xalqaro ilmiy markazlarida mediamadaniyatning pedagogik mexanizmlari va shart-sharoitlarini ishlab chiqish, ularning ijtimoiy hayotga ta'siri, keltiradigan muammolari, ularning fanlararo hamkorligi, mediata'limni rivojlantirish va bu orqali media iste'moli madaniyatini shakllantirishga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyadagi Ingliz tili va Mediamarkaz(The English and Media Centre-Ta'limning mustaqil xayriya tashkiloti bo'lib, milliy va dunyo miqyosida Mukammalilik markazi sifatida tanilgan), Nyu-Meksikodagi Mediata'lim markazi(Center for Media Education), Los-Anjelesdagi Mediasavodxonlik markazi(Center for Media Literacy), Shimoliy Karolinadagi "Mediasavodxonlik ortidagi fuqaro" harakati, San-Fransiskodagi "Mediasavodxonlik bo'yicha strategiya" (Strategies for Media Literacy)

assotsiatsiyasi va Milliy alyans mediasan'ati va madaniyati (National Alliance for Media Arts and Culture) markazlarida ham mediata'lim orqali mediamadaniyatni shakllantirishning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga doir bir qancha fundamental tadqiqotlar olib borilgan.

Mediamadaniyatni shakllantirish zaruratini tadqiq etishdan avval axborot savodxonligi, axborot madaniyati, mediata'lim va mediamadaniyat tushunchalarining mazmun mohiyati, lug'atlarda tariflanishini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Axborot savodxonligi – axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Axborot savodxonligi axborotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini e'tirof etadi.



### 1-rasm. Mediamadaniyatning tarkibiy tushunchalari

Media savodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Demak, media savodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi.

Media savodxonlik ham, axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat'iy nazar o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq.

Mediata'lim atamasi tor mazmunda ta'limning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi. U umumiy ta'limning maqsadlariga muvofiq keladi. Mediata'lim so'zining ishlatilishiga ko'ra sinonim sifatida pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat so'zlari ham qo'llaniladi. Ta'limning yangi yo'nalishi, bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot va kommunikatsiyasohasidagi ta'limdir. 1982 yilda YUNESKO Mediata'lim deklaratsiyasini qabul qilgan. Unga ko'ra, "mediata'lim medianing barcha turlari (bosma, grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) va turli texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan. U insonlarga ommaviy kommunikatsiyadan ijtimoiy ongda qanday foydalanishni tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikatsiya paytida mediadan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirish kabi bilimlarni beradi". YUNESKOning ta'rifi ko'ra: "mediata'lim zamonaviy ommaviy axborot vositalaribo'yicha bilimning nazariya va amaliyotini o'rganishdir". Demak, mediadan qanday foydalanish dunyoqarashi va tafakkuri mediata'limning asosi hisoblanadi. Shu bois yoshlarda ham ta'lim jarayonida mediadan qanday oqilona foydalanish masalalarini tizimli tahlil etish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Oksford ensiklopediyasiga ko'ra, "mediata'lim mediani o'rganishdir. Mediata'lim yaratilayotgan va tarqatilayotgan mediamatnlar bilan bog'langan. Ta'lim oluvchilarda mediamatnlarning mazmun-mohiyatiga izoh va baho berish uchun tahlil qila olish qobiliyatini shakllantiradi. Mediani o'rganishodatda amaliy tarzda, ya'ni mediamatnlar yaratish bilan bog'liq amalga oshiriladi. Mediata'lim mediani o'rganish orqali mediasavodxonlikni oshirishga xizmat qiladi".

Rossiyaning "Pedagogik qomusiy lug'ati"da esa mediata'lim quyidagicha tariflanadi: "o'rganuvchilarga ommaviy kommunikatsiyani o'rgatuvchi pedagogikaning bir yo'nalishi". Ta'riflarning hech birida fanning mohiyati o'zgarmaydi va u mediamadaniyatni o'rganishga asoslanganligi kelib chiqadi.

"Vikipedia" elektron qomusida berilishicha, mediata'lim — ommaviy axborot vositalari — matbuot, televideniye, radio, kinematografiya, Internetni o'rganishdir. Bu boradagi bilimlar nafaqat soha uchun kadrlarni yetkazib berish uchun, balki axborot texnologiyalariga murojaat etadigan har bir insonda mediasavodxonlik — mediamatnlarni tahlil etish, baholash va yaratish ko'nikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Mediata'lim nafaqat pedagogika va badiiy tarbiya bilan, balki bir nechta gumanitar bilim sohalari, masalan, san'atshunoslik (kinoshunoslik, teatrshunoslik), adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, tarix (dunyo madaniyat va san'ati tarixi), psixologiya (san'at, badiiy tarbiya, ijodkorlik psixologiyasi) bilan chambarchas bog'langan.

Hozirgi vaqtda global kompyuterlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini, shu jumladan ilm-fan va ta'limni qamrab olgan. Internetning rivojlanishi va o'quv jarayonini soddalashtiradigan ko'plab kompyuter dasturlarining paydo bo'lishi chet tillarini o'rganishni sezilarli darajada o'zgartirib, haqiqiy manbalar bilan ishlashni tezroq va osonlashtirdi.

Tadqiqotchi olim N.B.Golubevaning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish professional yo'naltirilgan chet tili ta'limining ajralmas qismi ekanligi haqida dalillar keltirilgan. Ijtimoiy fikrlash sifatida tanqidiy fikrlashga ta'rif berilgan va shu sababli ushbu hodisaning kommunikativ tomoni ta'kidlangan. Shuningdek, kommunikativ chet tili kompetensiyasining xarakterli xususiyatlari yoritilgan va uning shakllanish shartlari ko'rsatilgan. Xulosa qilinganki, ushbu kompetensiya chet tili va interaktiv bo'lib, mohiyatan fanlararo bog'liqligi asoslangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. B.Umurzakova "Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatini rivojlantirishning pedagogik modeli."Kasb-hunar ta'limi. 2022.134 b
2. F. Yusupjanova."Ingliz tilini o'rganishda tarjimaning o'rni". Farg'ona davlat universiteti,Chet tillarni o'qitishning dolzarb masalalari,Respublika konferensiya materiallari, 2019 y, 287 b
“Vatan ostonadan boshlanadi degan naqlni ko'p eshitamiz”, shu o'rinda bu fikrga qo'shimcha qilib aytmoqchi edimki, “Tarbiya olish -oiladan boshlanadi “Bola 3yoshga to'lib maktabgacha ta'lim dargohiga qadam qo'yishdan oldin oilada ota-ona bag'rida ulg'yadi, atrof muhitni borliqni anglay boshlaydi. SHarq allomalari farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolarga e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrat hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g'ofilin “asarlarda inson farzandlarining yuksak insoniy fazilatlar asnosida kamol topishini tarannum etadi.

Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandlarning chiroyli odobidan umid qilgan ota -ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobini quyidagilar bilan odobini tartibga keltirib turmog'i zarurdir

Farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, kamtar va bosiq bo'lishiga e'tibor qarating.

Yoshi ulug' kishilar, ustozlar ko 'ziga tik boqmay, savollariga javob berish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga joylashtirishga e 'tibor bering.

Mirzo Ulug 'bek oila muhitini yaxshilash, sog 'lom tarbiya berish haqida quyidagi fikrlarni bildirgan. Bolani bilim olishga bo 'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, yani oila muhim rol egallaydi. Oilada ota -onani o 'qimishli bo 'lishini, tarbiya berishda ota-onani o 'zini o 'rnak va hayotiy misollarni guvohi bo 'lishi juda yaxshi samara beradi.

Berdaq oilaning bola tarbiyasida, muhim o 'rin tutishini alohida takidlaydi, oilada ota -ona va farzand orasida o 'aro hurmat va yaqinlik bo 'lishi bola tarbiyasida yaxshi natijalarga erishish mumkinligini aytadi. Berdaqning ta'kidlashicha inson tug'ilgan kunidanoq tarbiyaga muxtojdir, unga ilk tarbiyachi albatta ota- onadir.

Fitrat jamiyat rivoji va yurt farovonligida, oila haqida fikr yuritiib, o 'zining "Oila asarida shunday deydi. "Har bir millat izzat va hurmati shu xalqning ichki intiomi va totuvligiga bog 'liqdir ".

Afsuski, hozirgi kunda oila davrasida bilim olish kitob o 'qish borasida suhbat yuritish, farzand olayotgan bilim darajasini muhokama qilish kundan kunga kamayotib boryapdi. Bularning o 'rnini zamonaviy texnologiyalar bilan masalan, uyali telefon ishlash, soatlab vaqtini ularga sarflash egalladi.

Albatta ular hayotimizda bir qatorda qulaylik imkoniyatini yaratmoqda, lekin yosh avlodlarning diqqat-e'tiborini jamlashda, zimmasidagi vazifalarini bajarish o 'rniga, o'z vaqtlarini behuda sarflashlariga sabab bo 'livchi va chalg 'ituvchi omil bo 'lib bormoqda. Bola xotirasidagi asosiy voqealar uyda sodir bo 'ganlaridir. Balkiy shuning uchun ham uyda ota -ona bilan dars qilgan yok iota -onasi bilan hamjixatlikda o 'qigan kitobning ahamiyati ular uchun kuchli va ta 'sirliroq. Bugungi kunda biz pedagoglarning bosh maqsadimiz – pedagogik ahamiyatda tarbiyachilarni mashg 'ulotlar hamda oilada ishlash orqali bolalar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyatini yo 'lga qo 'yish orqali bolalar va ota- onalarning birgalikdagi faoliyatini yo 'lga qo 'yish orqali bilim berish va tarbiyalashdir.

Oilaviy o‘qish -bu ma‘lumot olish usuli emas, bu eng muhim va eng samarali aloqa usuli, kuchli ta‘sir va hissiyotga boy bo‘lgan tarbiya usuli. Ota-onalar oilaviy o‘qish orqali bolalarda o‘qish orqali bolalarda o‘qishga bo‘lgan, bilim olishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishga yordam beradi.

Oilaviy o‘qish- bu ma‘lumot olish usuli emas, bu eng muhim va eng samarali aloqa usuli, kuchli ta‘sir va hissiyotg motivatsiyaga boy bo‘lgan tarbiya usulidir.

Ota- onalar oilaviy o‘qish orqali bolalarga o‘qishga bo‘lgan, bilim olishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishga yordam beradi.

Oilada bolalarning muntazam o‘qishini targ‘ib qilish va rivojlanish bo‘yicha ota- onalar bilan hamkorlikda kuchaytirish, har bir ota – onani bolalarning o‘qishi va rivojlanish muommolarini hal qilishga jalb qilish muhim ahamiyat kasb qiladi. Oilaning, ota -onaning ko‘zgusi bu farzandir.

Bugungi kunda biz tarbiyachilar orqali har qanday ota -ona bo‘lish etikasini, oilda ota -ona va farzand burchlari nimadan iborat ekanini anglata olishimiz kerak. O‘qtuvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, maqsad qo‘ya olish va reja bilan ish ko‘rish ko‘nikmalarini rivojlantirish tarbiyachi bilan bir qatorda ota -onalarga bog‘liq ekanligini yana bir karra tushintirishimiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Haydarova H.B Yosh avlod tarbiyasida oila manaviyatini o‘rni. <https://buxdu.uz/index.php/ru/>
2. Fitrat “Oila”
3. Boboevaning D.R Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining asosiy mezonlari //Pedagogik ta‘lim j. -T;2001 2- son 65-66-b
4. Oila pedagogikasi /O. Hasanboyevning umumiy taxriri ostida. -T;Aloqachi, 2007.-384b

## The role of parents in children's early learning

Urganch State University

Student Avezova Mahliyo Sultonnazar kizi

**Abstract.** Early childhood is a critical period in a child's cognitive, emotional, and social development, and the importance of parents in this process cannot be overstated. Parents are their children's first teachers and role models, and their involvement in their children's education has a significant impact on their academic and overall success. This research paper investigates how parents can help their children's early childhood learning by creating a supportive learning environment, promoting positive attitudes toward learning, and actively participating in educational activities with their children. The paper also investigates the advantages of parental involvement in early childhood education and the impact it has on the child's later academic and life success.

**Key words:** children, ability, optimum, study.

### Introduction

Early childhood, defined as the period between birth and the age of eight years, is critical in the development of a child's cognitive, emotional, and social skills.<sup>1</sup> During this time, children lay the groundwork for all future learning, and their interactions with the world around them mold their developing brain and set the stage for their future success. A parenting approach known as responsive parenting can best assist the development of children's cognitive and social abilities, which are required for eventual academic achievement.<sup>2-4</sup> Responsiveness is a component of supportive parenting that is defined in numerous theories and research paradigms (e.g., attachment, sociocultural) and plays a crucial role in laying the groundwork for optimum child development. A responsive style's affective-emotional characteristics include parenting that instills positive emotions and high levels of warmth, as well as responding in a way that is contingently related with indications from a young child ("contingent responsibility").<sup>5</sup> These characteristics, when paired with cognitively responsive behaviors to the child's demands, such as delivering rich verbal information and maintaining and growing the child's interests, provide the breadth of support required for numerous elements of a child's learning.<sup>6</sup>

### Subject

When it comes to understanding the influence of the environment in child development, one of the most commonly mentioned parts of parenting is responsive parenting. According to research, it has the potential to promote normal developmental pathways for high-risk children, such as those from low-income families and/or those

born prematurely.<sup>11</sup> Unresponsive parenting, on the other hand, can jeopardize the development of children, particularly those most vulnerable to developmental difficulties.<sup>12</sup> Given the potential relevance of responsive parenting, a better understanding of the types of behaviors that are most useful in supporting key aspects of a child's learning may increase our understanding of how to assist good parenting practices.

## **Problem**

Despite the central significance of responsive parenting in diverse study settings, descriptive studies provide much of what we know about this parenting style. As a result, we can only infer the significance of responsive parenting. Believing that responsive parenting has a causal influence on child outcomes would necessitate data from randomized controlled trials. A substantial amount of experimental research demonstrating how higher levels of responsive parenting produce higher levels of learning could provide a better understanding of the process by which responsive conduct increases a child's learning. Another topic that has to be addressed is whether there is any relationship between certain response actions and the assistance they give for specific areas of child development.

## **Context of the Study**

Interactions with parents boost cognitive acquisition in early children. Some evidence suggests that the process through which responsiveness promotes cognitive development may be dependent on consistency throughout the development of this parenting style.<sup>11,13</sup> Many factors might support or impact the parent's continuous employment of responsive behavior because the child and parent are part of a larger social context. Depression, unfavorable judgments of parents' own parenting history, or beliefs and attitudes that interfere with parents' sense of importance in their children's life are all personal variables that might influence parenting responsiveness. Other elements, such as increased social support from friends and family, can alleviate some of these unfavorable societal and personal issues.<sup>11</sup> In a recent study, parents' opinions of a positive social support network indicated that parents with intervention converted from an unresponsive to a responsive parenting style more than other criteria.<sup>15</sup> This is a promising finding because parenting interventions can be tailored to give the social support that mothers from high-risk communities require to establish responsive parenting styles.<sup>16</sup>

## **Key Research Questions:**

1. Does an improvement in parental responsiveness result in an increase in early children's learning?

2. Is parental responsiveness equally effective, or does it differ depending on the qualities of the child (e.g., cultural background, ethnicity, and biological risk factors)?
3. Can improvements in various dimensions of responsiveness explain favorable gains in many aspects of cognitive development?
4. Is there a critical period in a child's development when responsiveness is especially vital, or is consistency required throughout growth for more optimal learning?

### **Latest Study Findings**

A recent randomized intervention trial investigated if maternal receptive behaviors might be aided and whether such behaviors would benefit the learning of early children.<sup>6</sup> To investigate optimal intervention timing (e.g., infancy versus toddler/preschool versus both), families in the intervention and non-intervention groups were re-randomized at the conclusion of the infancy period to receive or not receive the responsive intervention at the child / preschool age.<sup>17</sup> The intervention was intended to assist mothers in adopting crucial behaviors that are both affectively and cognitively appealing, as both sorts of support were believed to be required to enhance learning. Mothers who got the intervention exhibited significant gains in all response behaviors after infancy, and their babies showed higher scores and faster growth rates in a range of skills. For example, infants whose mothers got the intervention exhibited better gains in independent problem-solving during toy play than newborns whose moms did not get the intervention. The effect of the intervention on children's learning was mediated by affective-emotional and cognitively responsive behaviors, demonstrating that the effectiveness of responsiveness can be better understood when framed as a wide term. Furthermore, certain reaction behaviors were used to improve various areas of children's learning. Children's cooperation, for example, was improved by mothers' increased use of contingent responsiveness and verbal encouragement, as well as their less frequent restriction of children's activities, whereas children's verbal use improved when mothers directed children's attention to their interests more frequently. and label objects or behaviors.

### **Conclusion**

According to several descriptive and less experimental studies, responsive parenting is a crucial process in supporting early children's learning. There is now evidence that responsive parenting has a causal role, because bigger advances in parenting practices linked with responsive style accounted for the effect of parental intervention on greater gains in young children's learning. Because both normal and

high-risk children benefited from affective-emotional and cognitive assistance, the effectiveness of responsiveness appears to be best understood when defined broadly. Emerging evidence suggests that specific responsive actions can give various sorts of learning assistance for children, and that this support might vary depending on the child's developmental needs. There are numerous new study routes that need to be explored, as well as questions raised in recent studies that merit additional investigation.

## References

1. Bornstein MH, Tamis-Lemonda CS. Maternal responsiveness and cognitive development in children. In: Bornstein MH, ed. *Maternal responsiveness: Characteristics and consequences*. San Francisco, CA: Jossey-Bass; 1989:49-61.
2. Ainsworth M, Blehar M, Waters E, Wall S. *Patterns of attachment: A psychological study of the Strange Situation*. Hillsdale, NJ: Erlbaum; 1978.
3. Grusec JE, Goodnow JJ. Impact of parental discipline methods on the child's internalization of values: A reconceptualization of current points of view. *Developmental Psychology*; 1994:1-19.
4. Rogoff B. *Apprenticeship in Thinking*. New York, NY: Oxford University Press; 1990.
5. Stroufe LA. Infant-caregiver attachment and patterns of adaptation in preschool: The roots of maladaptation and competence. In: Perlmutter M, ed. *Minnesota Symposia in Child Psychology*. Hillsdale, NJ: Erlbaum; 1983:41-83.
6. Landry SH, Smith KE, Swank PR. Responsive parenting: Establishing early foundations for social, communication, and independent problem solving. *Developmental Psychology*; 2006: 627-642.
7. Maccoby EE, Martin JA. Socialization in the context of the family: Parent-child interactions. In: Mussen PH, Hetherington EM, eds. *Handbook of child psychology*. 4th ed. New York, NY: Wiley; 1983:1-101.



## MA'NAVIYAT – INSON VA JAMIYATNING NEGIZI SIFATIDA

Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li

O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish" yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Ilmiy rahbar:** Xolmo'minov Mo'minmirzo Zokir o'g'li

O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedراسi katta o'qituvchisi  
[mominmirzoxolmominov@gmail.com](mailto:mominmirzoxolmominov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma'naviyaning, inson va jamiyat hayotida o'rni, uning tashkil etadigan unsurlar haqida fikrlar yuritilgan. Undan tashqari ma'naviyat va madaniyat inson hayotining bir bo'g'ini ekanligi ham ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, madaniyat, inson, jamiyat, mezon, axloq, ma'naviy meros.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль духовности в жизни человека и общества, ее составляющие элементы. Также было подчеркнуто, что духовность и культура являются частью жизни человека.

**Ключевые слова:** Духовность, культура, человек, общество, критерий, нравственность, духовное наследие.

**Abstract:** This article discusses the role of spirituality in the life of a person and society, its constituent elements. It was also emphasized that spirituality and culture are a part of human life.

**Key words:** Spirituality, culture, human, society, criterion, morality, spiritual heritage.

*Bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning  
ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.*

**SH.M.Mirziyoyev.**

Ma'naviyat va madaniyat o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgani yo'q, albatta. Bular xalqning, millatning asrlar davomida orzu qilib, intilib kelgan maqsad-muddaolarining natijasi sifatida shakllanadi. Lekin bu shunchalik murakkab va qiyin kechadigan jarayonki, uni to'liq tasavvur etish uchun o'sha xalqqa yoki millatning qadimiy tarixini ko'z o'ngimizdan o'tkazishimiz, tushunib, anglab yetishimiz kerak bo'ladi. Yana bir narsani yaxshi bilib olishimiz kerak. Ma'naviyat ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bu degani uning paydo bo'lishi, takomillashishi, avloddan avlodga o'tishi inson faoliyati bilan bog'liq. Bundan ko'rinib turibdiki, ma'naviyat faqat insonga xos xususiyatdir. Chunki dunyodagi jonzotlar ichida faqat odamgina o'z oldiga maqsad qo'yib, o'ylab-fikrlab yashaydi. Ma'naviyatshunos olim A.Erkayev bu borada quyidagi mulohazalarni yozadi. "Tabiatda ma'naviyat yo'q. Biz hayvonot dunyosi turlari, xillari, nasli va

boshqa belgilarga qarab ularni odobli va diyonatli, nozik didli, xudojo‘y yoki vijdotsiz, kufri botqog‘iga botgan deya olmaymiz. Agar yanada aniqroq va jonli misol yordamida aytadigan bo‘lsak, mana bu to‘ng‘iz va eshak-nozik ta‘b, nafas oshuftalari, ana u ikkalasi o‘ta xudojo‘y, mana bulari esa noinsof va ta‘magir – degan iboralarga aql bovar qilmaydi” [1:19].

Bundan ko‘rinadiki, biz ma‘naviyat va u bilan bog‘liq tushunchalar haqida gapirganimizda, faqat insonga xos yuksak tuyg‘ular, hislar, ko‘nikmalar, hayotiy tajribalardan kelib chiqqan hollarda gapirishimiz va ular orqali amaliyotga sinashimiz mumkin. Albatta, ma‘naviyatning axloqiy mezonlari inson tarbiyasi va madaniyatida alohida o‘rin tutib, shaxs va jamiyat ma‘naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllaridir. Masalan, urf-odatlar, an‘analar, vatanni sevish, o‘z xalqi va millatni hurmat qilish, ota-onasini e‘zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash, o‘z ishiga ma‘suliyatli bo‘lish, o‘z vatanini taqdiriga daxldorlik hissi kabi yuksak ma‘naviy fazilatlar o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan.

Ma‘naviyatning axloqiy negizlari muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma‘noda milliy muhit ularning yanada rivojlanishiga ko‘mak beradi, jamiyat a‘zolari bundan o‘zlariga kerakli sifatlarni oladi. Aynan shu belgilar kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ulardagi mushtaraklikni yorqin namoyon etadi. Ma‘naviyatning axloqiy mezonlari axloq, odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlar tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu ma‘noda ma‘naviyatning axloqiy fazilatlarini ma‘naviyat tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ma‘naviyat – inson, axloq, jamiyat va davlatning intellektual salohiyati, ma‘rifiy kuch-qudratidir. Buni quyidagilar mezonlar orqali o‘rgansak bo‘ladi:

1. jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro a‘loqalarni tartibga soluvchi talab va qoidalar majmui;
2. xalq va jamiyat hayoti bilan a‘loqador ma‘naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar, ezgu g‘oya va maqsadlar tizimi;
3. axloq, madaniyat, ma‘rifat, din va ta‘lim tarbiya tizimidan iborat yaxlit ma‘naviy hodisalar majmui;
4. ma‘naviy jarayonlar, insonning o‘zini va o‘zi yashayotgan dunyoni takomillashtiruvchi ijodiy faoliyati;
5. inson kamoloti, shaxsiy-axloqiy xususiyatlar va ma‘rifiy fazilatlar;
6. komillik tuyg‘usi va ma‘naviy yuksalish;
7. moddiy, ma‘naviy, madaniy va ma‘rifiy poklanish va yuksalish kabi tuyg‘ular orqali insonning jamiyatdagi ma‘naviy qiyofasini ko‘rish mumkin [2:79].

Jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi mezon va tamoyillarni qomusiy olimlarimiz yaratgan ma'naviy me'ros namunalari orqali anglaymiz, ular tomonidan yaratilgan axloqiy fazilatlarni o'z hayotimizga singdirib boramiz. Misol uchun, buyuk geograf Abu Rayhon Beruniy, matematika fanining asoschisi Al-Xorazmiy, tibbiyot olami sultoni Ibn Sino, buyuk astronom Mirzo Ulug'bek, islom dini olimlari Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ulug' allomalar ma'naviyati keng bilim darajasi yuksak insonlar bo'lishgan. Bizlar shu shaxslarning milliy ma'naviy va madaniy merosini o'rganishimiz va asrab avaylashimiz shart.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov inson ma'naviyati haqida juda yaxshi mulohaza yuritganlar ya'ni "Ma'naviyat insonning qon-qoniga, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi" – deganlar [3:28]. Chindan ham ma'naviyat insonning qon-qoniga, suyak-suyagiga singadigan tuyg'ular, qarash va ko'nikmalar me'zoni ekan, demak ularni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydi, rangi yoxud hidini bilish mumkin emas. Ma'naviyat inson ruhiyatida, qalbi va ongida shakllanib ulg'ayadi va inson ruhiyatini poklaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ma'naviyat millatning, xalqning ma'naviy qiyofasidir. Ma'naviy qiyofasiz inson o'zligini yo'qotadi. Uning uchun na vatan, na ona yurt, na mahalla ko'y, na oila mavjud bo'ladi. Biz ma'naviyatimizni va o'zligimizni anglashimiz uchun doimo ma'naviy va madaniy ongimiz va saviyamizni boyitib borishimiz zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahim Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot. –T. "Ma'anaviyat" nashriyoti, 2009-yil, 19-bet.
2. Qo'chqorov, Mahmudov, Zamonov. Ma'naviyat asoslari. –T. " Yangi yo'l poligraf servis" nashriyoti. 2017-yil, 79-bet.
3. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2013-yil, 28-bet.

## Maktabni sevimli maskanga aylantiramiz

**Samarqand viloyati Samarqand shahar 39- umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Tursunova Muxlisa Nosirullo qizi  
Andijon viloyati Izboskan tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'zbek tili  
fani o'qituvchisi Ro'ziyeva Hilola**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ilm maskani hisoblanmish maktab haqida, unga bo'lgan e'tibor, Maktabni sevimli maskanga aylantirish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Maktab, sinfdoshlar, o'quvchi, pedagog

Maktab inson xotirasida muxrlanib qoladigan eng go'zal fasl. Maktab abadiy ko'nglimizda yashashiga sabab birinchi o'qituvchi, sevimli darslar, sevimli o'qituvchi, sinfdoshlar....

Maktabning har bir onini o'quvchi ongida muxrlash biz pedagoglarning yetakchi vazifasi.

Uchqun Nazarovning "Insho" hikoyasini o'qib, yuragimda og'ir yuk bo'lib yotgan savollarga javob topgandek bo'ldim [1].

Sakkizinchi sinf o'quvchisi Xurshid geografiya fani o'qituvchisi Daler Saidovich va tarix fani o'qituvchisi Tursun Sobirov haqida fikrlarini o'quvchiga hos soddalik bilan bayon qiladi. Bu hikoyachani o'qigan har qanday o'quvchi Daler Saidovich kabi uztozi bo'lishini xohlasa har qanday o'qituvchining qalbida shu hamkasbiga o'xshashlik havasi uyg'onadi.(Garchi hech kimga bildirmasa ham)

Shu hikoyani o'qib o'z-o'zimga savol berdim. Nimaga men shunday sevimli o'qituvchi bo'la olmayman? Ming shukrki, (nokamtarlik bo'lsa ham) o'quvchilarim qolgan hamkasblarimdan ko'ra meni ko'proq yaxshi ko'rishini aytishadi. Ularning aytishiga qaraganda men dars beradigan adabiyot fani o'zining sehrlilari bilan ularni o'ziga tortar ekan. Ona tili fani ham adabiyotga yondosh bo'lgani uchunmi darslarimiz qiziqarli bo'ladi.

Lekin...

Ming afsuski, darsga qiziqmaydigan bir chetda o'zining hayollari bilan band bo'lgan o'quvchilarni ham ko'raman. Ularni qanday darsga jalb qilishni o'ylayman. Uchqun Nazarov mening hamma savollarimga javob berdi. Har qanday o'quvchining ham o'zi juda ham qiziqadigan mashg'uloti bo'ladi. Agar shu mashg'ulotni siz ham uning darajasida uddalab bilsangiz siz u uchun ideal o'qituvchi bo'lasiz.

Shunday mashg'ulotlarni izlab topishga harakat qildim.

Bolalik xotiralari hamisha kishi qalbida eng aziz hissiyotlar uyg'onishiga turtki beradi. Uni olis va takrorlanmas yo'llarga yetaklaydi. Bu yo'llarda insonning inson bo'lib shakllanishida xizmat qiluvchi turli-tuman voqea-hodisalarga duch kelinadi, ota-bobolarning eng ulug' ma'naviy meroslari bamisoli daryoday yuragimizga oqib kiradi. Bu merosdan bebahra odam bolasi yashashdan mahrum bo'ladi, xalq esa tanazzulga mahkumdir[2].

Savollarimga javob izlar ekanman, sevimli buvijonim xotiramda gavdalandi. Har ikki gapiga maqol qo'shib gapirar, chiroyli xalq laparlarini aytar edi. U kishi bilan suhbatlashish insonga huzur beg'ishlar edi. Milliy an'ana va urf odatlar, milliy o'yinlar, go'zal laparlar, ohangi dilni yayratuvchi yallalar har qanday o'quvchining ko'ngil torlarini chertib o'tadi.

Hayolimdagi fikrlarni isbotini ko'rish uchun darslarimda xalq og'zaki ijodidan, xalqning merosidan foydalanishga qaror qildim.

8-mart xalqaro xotin qizlar kuni munosabati bilan qizlar o'rtasida alla aytish musobaqasini e'lon qildim. 7-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan bu baxs o'zining ijobiy natijasini berdi. O'zim sevib o'ynagan qo'girchog'im hali hanuz menga hamrohlik qiladi. Uni quchib alla aytayotgan qizchalarning ko'zida mehr, qizlarga tug'ilganidanoq ziynat beradigan onalik tarovati namoyon bo'ldi. Bu alla ta'sirida sinfdosh yigitlar ham sho'xliklarini-yu, ozorlarini unutib o'zlarini, hayollarinida sinf xonasiga olib kelishdi. Burchakda darsga quloq solmay o'z hayollari bilan band o'tiradigan yigit ham alla haqidagi suhbatimizga qo'shildi. Filologiya fanlari nomzodi Mahmud Sattor

ta'kidlaganlaridek: "Alla axloqiy, tarbiyaviy, didaktik, an'anaviy va oniy ijod na'munalaridan iborat bo'lgan. Alla tinglagan bola onaga mehrni sut bilan o'z taniga, shuuriga singdiradi. Alla insonda, ong qatlamlarida bir umr mungli, hazin, nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi.[3]"

Alla haqidagi suhbatdan (Tashkiliy qismdan) so'ng yangi mavzuni boshladim. Bu sinf bilan yordamchi so'z turkumlarini o'rganayotgan edik.

Eng oxiri alla aytish uchun yozuv taxtasi oldida turgan o'quvchiga o'zi yod bilgan allani yozuv taxtasiga yozishini aytdim:

Alla aytay, jonim bolam,

Quloq solgin allayo, alla!

Shirin allam tinglab asta

Oromlar olgin allayo, alla!

O'quvchilarga ketma-ket topshiriqlar berdim:

1. Doskaga yozilgan "Alla" dagi so'zlarni qaysi so'roqqa javob bo'lishini ayting.
2. Gap bo'laklarini aniqlab tagiga chizing.
3. Yuqorida keltirilgan allada hech qanday so'roqqa javob bo'lmaydigan so'z bormi?

Mana shu savoldan so'ng osongina yangi mavzuga o'tib ketdim.

Dars men kutganimdan ham qiziqarliroq bo'ldi. Hatto eng to'polonchi o'quvchim ham butun vujudini quloqqa aylantirib meni tinglar edi.

Endi darslarimda xalq o'yinlaridan foydalanmoqchiman. Zero: "O'zingizga ma'lumki, bolalarni kattalar, yerga ursa ko'kka sapchiydigan koptokka o'xshatishadi. Chunki ular biror daqiqa ham harakatsiz, jim o'tirisholmaydi. O'yin ishqibozi, o'yinqaroqlar. Hayotni ko'chasiz, o'yinlarsiztasavvur qilasholmaydi. Aslida, bolalikning eng aziz, o'ziga xos tomonlari ham shunda-da! Jamiyatga, odamlarga foydasi tegadigan, dunyoda mashhur olim-u yozuvchilarning, shoirlarning bolalikda yerga ursa ko'kka sakraydigan o'yinqaroq bo'lganliklari bejiz emas. Bu hol ularda ijodiy tafakkurni o'sishi uchun benihoya katta ahamiyatga ega.[4]"

Hozirgi izlanishlarimdan shu xulosaga keldimki, darslarning mustahkamlash qismida “Oq terakmi – ko’k terak”, “Qushim uchdi” o’yinlarini qo’llash mumkun.

“Qushim uchdi” o’yinini qo’llash tartibini quyidagicha amalga oshirish mumkun: 10 nafar o’quvchi bilan o’yin o’ynaladi. Har bir yutkazgan o’quvchi savolga javob beradi. Oxirida qolgan o’quvchi mukofot tarzida savolsiz a’lo baho bilan baholanadi.

Biz darslarimizda ushbu metoddan foydalansak ham o’quvchilarni darsga qiziqтира olamiz, ham ularni milliy qadriyat va urf odatlarga hurmat ruhida tarbiyalay olamiz.

Zero, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2018-yil 14-avgustda chiqarilgan qarorida ham aynan yoshlarni milliy an’ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash nazarda tutilgan.

Ta’limda bunday usuldan foydalanishning foydali tomonlari bisyorligi bilan bir qatorda, agar o’qituvchi nazoratni, boshqaruvchanlikni qo’ldan boy bersa darsda shovqin-suronga sabab bo’lishi mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. XX asr o’zbek hikoyasi antologiyasi. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti. Toshkent – 2016
2. O’zbek udumlari. Mahmud Sattor. Cho’lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodi uyi. Toshkent - 2016
3. O’zbek udumlari. Mahmud Sattor. Cho’lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodi uyi. Toshkent – 2016
4. O’zbek udumlari. Mahmud Sattor. Cho’lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodi uyi. Toshkent - 2016



## DAUN SINDROMI BILAN TUG'ILGAN CHAQALOQLAR

*Farmonova Ruxshona Farrukhovna*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Pediatriya fakulteti 104-guruh talabasi*


*Daminov Muslimbek Asadullayevich*

*Tibbiy biologiya va umumiy genetika kafedrasida assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Daun sindromi bilan tug'iladigan chaqaloqlar haqida o'rganilgan va qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** daun sindromi, gipotenziya, braximezofalangiya, asfiksiya

**Daun kasalligi.** Bu kasallik angliyalik vrach L.Daun tomonidan 1866-yili aniqlangan edi. Bunday kasalliklarda 46 o'rniga 47 xromosoma kuzatiladi.



Bu kasallik autosomal sonining o'zgarishi bilan yuzaga chiqqanligi uchun erkaklarda ham, ayollarda ham kuzatiladi. Kasal bolaning bo'yi past, kallasi kichik va yumaloq, buruni kalta, ko'z kesimi egri, quloq suprasi kichik, og'zi yarim ochiq, og'zidan ko'pincha tili chiqib turadi. Til, teri, lablari quruq va ko'pincha ko'zida g'ilyalik bo'ladi. Tishlar bir tekisda bo'lmaydi. Boshida sochlari siyrak, silliq. Qo'l barmoqlari kalta va yo'g'on bo'lib, beshinchi barmoq juda ham kichik. Kaft terisida faqat ko'ndalang ketgan egatcha bo'ladi. Barmoq uchlari terisidagi chiziqlarning shakllari asosan ulnar tomonga ochiladigan ilmoqsimon bo'ladi. So'ngi ma'lumotlarga ko'ra, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 4-6%ida tug'ma nuqsonlar uchrayapti. Daun Sindromi(DS) - tug'ilmasdan oldin yoki tug'ilgandan keyin davolab bo'lmaydigan kasallikdir. Bu kasallik oila va jamiyat uchun katta muammo hisoblanadi.



**Ishning maqsadi:** Daun Sindromi bilan tug'ilgan chaqaloqlarda klinik-anamnestik tadqiqot o'tkazish.

**Tadqiqot usullari:** 13 nafar Daun Sindromi bilan tug'ilgan chaqaloqlarda tadqiqot ishlarini olib bordik. Biz klinik va anamnestik ma'lumotlarni o'rganib chiqdik va yangi tug'ilgan chaqaloqlarning klinik tekshiruvini o'tkazdik.

**Tadqiqot natijalari:** Daun Sindromi diagnostikasi anamnez, klinik va genetik ma'lumotlar asosida tadqiqot olib borildi. Biz tadqiqot olib borgan 5ta bolada (41,6%) bu kasallik irsiylanish tufayli kelib chiqqan, 6tasida (50%) irsiy bo'lmagan. Onalarning anamnezidan kasallikka olib kelishi mumkin bo'lgan xavf omillari aniqlangan: onaning yoshi 35dan kattaligi 5 bolada (41,6%), onadagi yomon odatlar tufayli 3 bolada (25%), surunkali kasalliklar tufayli 1ta (8,3%) onada, irsiy kasalliklar tufayli 3 bolada (25%) kelib chiqqanligi aniqlandi. Bolalarda tashqi belgilarida o'zgarishlar va tug'ma nuqsonlar aniqlandi. Shulardan 6 ta (50%) bolalar orasida tug'ma yurak nuqsonlari aniqlandi, 4 tasida (33,3%) bolada yurak qorinchasi septal nuqsoni, 2 tasida (16,6%) atriyal septal nuqsoni, 2 tasida (16,6%) o'n ikki barmoqli ichakning atreziyasi va stenozi, 3 tasida (25%) bronxosefaliya aniqlandi. Tashqi belgilar orasidan 10 bolada (83,3%) epikantus, 8 tasida (66,6%) bo'g'imlarning giperbilligi, 8 tasida (66,6%) mushak gipotenzivasi, 8tasida (66,6%) yassi ensa, 9tasida (75%) kalta qo'l-oyoqlar, 11 tasida (91,6%) braximezofalangiya kuzatildi. Tekshiruvdan o'tgan yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida 22-28 haftada 7 tasi (58,3%), 35-36 haftada 5 tasi (41,6%), o'rtacha darajadagi asfiksiya bilan 7 tasi (58,3), og'ir darajali asfiksiya bilan 3 tasi (25%) kasallanganligi aniqlandi.

**Yangi tug'ilgan bolalar orasida Daun kasalligining uchrash chastotasi.**  
(Angliyada o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi)

Onaning yoshi	DS ning uchrash chastotasi
15-19	3 : 10 000
20-24	4 : 10 000
25-29	4 : 10 000
30-34	11 : 10 000
35-39	33 : 10 000
40-44	124 : 10 000
45 va undan katta	312 : 10 000

**Xulosa:** Shunday qilib, olingan natijalar shuni ko'rsatdiki Daun Sindromi ko'pincha tug'ma yurak nuqsonlari bilan bog'liqligi va ular orasida eng keng tarqalgani yurak qorinchasi septal nuqsoni va atriyal septal nuqsoni ekanligi aniqlandi. Daun kasalligi bor bolalarda immunitet past bo'lganligi uchun ular har xil yuqumli

kasalliklarga bardosh bera olmasdan yoshligidayoq o'lib ketadilar. Hozircha bu kasallikning davolash usullari aniq emas.

**ADABIYOTLAR**

1. Tibbiy biologiya va genetika. P.X.Xolikov, A.Q.Qurbonov, A.O.Daminov, M.V.Tarinova
2. Pediatric Pharmacology 2020. Tom 17. N 4.

«CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023» VOLUME-1,  
ISSUE-2 (28 February)  
MUNDARIJA

1	MODERN INTERACTIVE METHODS IN LESSONS OF CHILDREN'S LITERATURE. <b>Botirova Surayyo Furqat qizi, Badirdinova Nozima Jaloldin qizi, Mamayoqubova Shahlo</b>	5-7
2	Milliy qadriyatlarni anglamoq Vatanni anglamoqdir. <b>Omonov Fazliddin Asadulla o'g'li</b>	8-9
3	Pragmatic goal and context relation <b>Nuralieva Ozoda</b>	10-18
4	BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI <b>Nurmatov Sardorjon Siddiqovich</b>	19-21
5	Ta'limda bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi <b>Nurmatov Sardor Siddiqovich</b>	22-24
6	SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI <b>Jonbo'tayeva Zumradxon Abdujabborovna</b>	25-28
7	СИНТЕЗ АДАПТИВНЫХ НЕЧЕТКИХ РЕГУЛЯТОРОВ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПАРАМЕТРАМИ КОТЛОМ В ТЕПЛОЭЛЕКТРОЦЕНТРАЛЬ. <b>Турсунова Садокат Абдусалом кизи</b>	29-32
8	Как цифровая экономика меняет нашу жизнь <b>Турдиев Шахзод Махмуд ўғли, Абдуллаева Нилуфар Джавдатовна</b>	33-37
9	INTERNET ODOB AXLOQI <b>XOLYOROVA DILNURA</b>	38-40
10	SPEECH ERRORS AND WAYS TO ELIMINATE THEM <b>ALLANAZAROVA RUXSHONA VAHODIR QIZI</b>	41-43
11	Hozirgi zamon psixologiyasi va uning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni <b>XUDAYOROVA SHODIYA HAMDAM QIZI</b>	44-46
12	Motiv va motivatsiya <b>Bekchanova Charos Bohram qizi</b>	47-50
13	DIAGNOSIS OF CHANGES IN PREGNANT WOMEN WITH VULVOVAGINITIS <b>Yusufzoda Hosiyat Turon kizi, Khamidov Obid Abdurakhmonovich, Juraev Kamoliddin Danabaevich</b>	51-55
14	SYMPHYSIOPATHY AND PREGNANCY <b>Khasanova Diyora Zafarjon kizi, Khamidov Obid Abdurakhmonovich, Juraev Kamoliddin Danabaevich</b>	56-60
15	OPTIMIZATION OF DIAGNOSIS AND TREATMENT OF POST-COVID PNEUMONIA <b>Akbarov Sardor Ikrom ugli, Khamidov Obid Abdurakhmonovich, Juraev Kamoliddin Danabaevich</b>	61-66
16	Система уроков и уроков математики в начальных классах <b>ОТАБАЕВА ЭЛИНУР РУСЛАНБЕК КИЗИ</b>	67-69
17	Qiyosiy pedagogika fanining tadqiqot bosqichlari <b>Davlatova O'g'iljon Ihombek qizi</b>	70-72

18	Turkiy tillarda soʻz turkumlarining umumiy xususiyatlari <b>XUDAYOROVA SHODIYA HAMDAM QIZI</b>	73-75
19	Ona tili oʻqitish metodikasining tamoyillari <b>Xudayorova Shodiya Hamdam qizi</b>	76-78
20	The role of social networks in the current era of globalization <b>Jumayeva Dildora Parda qizi</b>	79-81
21	Yerqalampir oʻsimligining shifobaxsh xususiyatlari <b>Yuldasheva Aziza Azamat qizi</b>	82-84
22	Dorivor tirnoqul – Calendula Officinalis L oʻsimligining shifobaxshlik xususiyatlari <b>Yuldasheva Aziza Azamat qizi</b>	85-87
23	Adonis oʻsimligining tarqalishi, tarkibi, shifobaxshlik xususiyatlari <b>Yuldasheva Aziza Azamat qizi</b>	88-90
24	HUQUQIY MADANIYATNING SHAXS VA DAVLAT BILAN UZVIY BOGʻLIQLIGI <b>Samiyev Baxtiyor Norbobo oʻgʻli, Xolmoʻminov Moʻminmirzo Zokir oʻgʻli</b>	91-93
25	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ОМИЛЛАРИ <b>Т.О.Раҳманов., Г.Қ.Нарзуллаева</b>	94-96
26	USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN LEARNING ENGLISH <b>Xurshida Tojmurudova Rashidovna</b>	97-99
27	SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA INSONPARVARLIK FAZILATLARINING TARANNUM ETILISHI <b>Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi</b>	100-101
28	STRESS <b>Qurbanazarova Dinora Muzaffar qizi</b>	102-104
29	Oila psixologiyasining asoslari. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi <b>Qurbanazarova Dinora Muzaffar qizi</b>	105-107
30	Psixologiya <b>Qurbanazarova Dinora Muzaffar qizi</b>	108-110
31	Psixologiya tarixi <b>Soliyeva Komila Gʻayrat qizi</b>	111-113
32	Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari <b>Soliyeva Komila Gʻayrat qizi</b>	114-116
33	Psixologiya fanining asosiy metodlari <b>Soliyeva Komila Gʻayrat qizi</b>	117-119
34	ПОЛИМОРФИЗМ ГАПТОГЛОБИНА У БОЛЬНЫХ С РЕВМАТОИДНЫМ АРТИРОМ <b>Пулатов Улугбек Суннатович Суюнов Асрор Фарходович</b>	120-123
35	AYOLLARDA SIYDIK AJRATISH TIZIMI KASALLIKLARINING TAʼSIRI <b>Iskandarov Asliddin Husniddin oʻgli, Qurbonov Nizom Azimovich</b>	124-128
36	GRAVITATIONAL STRESS INNOVATIVE TREATMENT METHODS <b>Khazratov Alisher Isomiddinovich, Muminov Asliddin Yusupovich</b>	129-133

37	Ёшларда экологик тарбия ва толерантлик ривожлантириш жамият тараққиётининг муҳим омили <b>Азимов Адхамжон Солижонович</b>	134-138
38	BOLALARNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING O'RNI. <b>Xolmatova O'g'iloy Tojiddin qizi</b>	139-141
39	GINEKOLOGIK BEMORLARNI TEKSHIRISH USULLARI <b>Xurramova Kamola O'ktamovna</b>	142-144
40	Konstruksion materiallarning mexanik xossalari <b>Axmedov Dilshod Namoz óg'li</b>	145-148
41	Sportni rivojlantirishda pedagogik va psixologik tamoyillar <b>Bozorov Elbek Baxodir o'g'li, Toshpulatova Dilfuza Komiljon qizi</b>	149-152
42	Psychological components of professional-pedagogical culture <b>Zukhra Safarova Qurbon qizi</b>	153-155
43	Abdulla Qodiriy ijodida millati va milliy o'zlik masalasi <b>Madatova Mahliyo</b>	156-158
44	ODDIY QALAMNING "BUYUK ISHLARI" <b>Qosimova Nilufar Muratjon qizi, Qo'ziyeva Gulira'no Akramjon qizi, Qosimov Barkamol Solijon o'g'li</b>	159-162
45	Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari <b>Umurzakova Bonukhon Azizovna</b>	163-167
46	Bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchilarining fanlararo hamkorlik asosida mediamadaniyatini rivojlantirishning dolzarbligi va ahamiyati <b>Umurzakova Bonuxon Azizovna</b>	168-171
47	THE ROLE OF MOTIVATION IN THE SPORTSMAN'S ACTIVITY <b>Normuradova Dilshoda Alisher qizi</b>	172-174
48	MALAKALI KURASHCHILARDA TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIGINI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH USULLARI <b>B.Q. Erimbetov</b>	175-181
49	Chet tillaridagi darslarni taqdimot usulida tashkil etish <b>Olimjonova Gulnoza No'monjon qizi</b>	182-184
50	NEFTNI BIRLAMCHI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI VA UNI AMALGA OSHIRISH QURILMASI <b>Xushboqov Abduvali Bahodir o'g'li, Nurmonov Suvonqul Erxonovich, Abduraxmonov Sayyod Toshtemir o'g'li</b>	185-189
51	<b>Dunyo tan olgan mutafakkir Omonov Fazliddin Asadulla o'g'li</b>	190-191
52	THE IDEAS OF HUMANISM IN WILLIAM FAULKNER'S WORKS <b>Akramova Sitora Ikrom qizi, To'rayeva Bakhor,</b>	192-195
53	Камбағаллик феномени, унинг шакллари ва жамиятда намоён бўлиши. <b>Мелибоев Азизжон Низомиддинович</b>	196-199

54	Янги Ўзбекистонда камбағалликни қисқаритиш орқали фаровон жамият куриш истиқболлари ва йўналишлари. <b>Мелибоев Азизжон Низомиддинович</b>	200-203
55	БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ МАФКУРАВИЙ ОНГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ <b>НАЗАРОВА МАФТУНА ФАРХОДОВНА</b>	204-206
56	SUD TIBBIYOTI EKSPERTIZASINING PROTSESSUAL ASOSLARI. <b>Rayimnazarov Shaxzot Muxiddin o'g'li</b>	207-209
57	Developing reading skills and strategies <b>Kholmurodova Madina, Elmurodov Ulugbek</b>	210-214
58	Information technologies in teaching a foreign language <b>Ochilova Madina, Elmurodov Ulugbek</b>	215-218
59	BETON TO‘LDIRUVCHILARINING G‘OVAKLIK XOSSASI HAMDA G‘OVAK TO‘LDIRUVCHILARNING HOZIRGI KUNDA QO‘LLANILISHI <b>Ametov Rasul, Husanov Lazizjon, Djo'rayeva Husniya</b>	219-225
60	YANGI O‘ZBEKISTONNI KORRUPSIYASIZ QURAMIZ. <b>Abdug‘aniyev Temurbek Alimardon o‘g‘li</b>	226-232
61	Bola tarbiyasida ota- onaning va tarbiyachining kamfikrligi, bolaga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish. <b>Avezova Mahliyo Sultonnazar qizi</b>	233-235
62	The role of parents in children’s early learning <b>Avezova Mahliyo Sultonnazar kizi</b>	236-239
63	MA’NAVIYAT – INSON VA JAMIYATNING NEGIZI SIFATIDA <b>Samiyev Baxtiyor Norbobo o‘g‘li, Xolmo‘minov Mo‘minmirzo Zokir o‘g‘li</b>	240-242
64	Maktabni sevimli maskanga aylantiramiz <b>Tursunova Muxlisa Nosirullo qizi, Ro‘ziyeva Hilola</b>	243-246
65	DAUN SINDROMI BILAN TUG‘ILGAN CHAQALOQLAR <b>Farmonova Ruxshona Farrukhovna, Daminov Muslimbek Asadullayevich</b>	247-249